Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizimi deb ataladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuvni ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinli. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni «majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat budjetga tushishligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning budjetdan tashqari fondlariga (pensiya,

ijtimoiy sug'urta, bandlik, yo'l fondlari va boshqalar) to'lovlarni ham majburiylik nuqtayi nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud.<sup>2</sup>

Soliqlar bo'yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga xususan soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni budjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi<sup>3</sup> va shu birga

ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.



Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

**Soliq tizimini guruhlash tartibi.** Soliq tizimining asosi bo'lgan soliqlar o'ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning obyektiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga, undirilish

<sup>2</sup> Yahyoyev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». – T.: «G'afar G'ulom» 2000. 31 bet.

<sup>3</sup> Kvan I.B. "Soliq huquqi". – T.: "Konsaudit Inform" 2001. 47 bet.

usullari, paydo bo'lishiga (subyektiga), budjetga yo'naltirilishiga va boshqa belgilariga ko'ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlariga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funksiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat budjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta'minlashda, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasdan faoliyat ko'rsatishi uchun soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga to'g'ri va egri soliqlar guruhlariga bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni budjetga o'tkazish nuqtayi nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbayiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlariga ajartib o'rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning ayrim turlarini ko'rib chiqamiz. Soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'implari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi subyektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, yerdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning ayrimlari koxonalar xo'jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasidan budjetga

to'lanadigan aksariyat soliqlar va majburiy to'lovlar kelgusi davr xarajatlari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi (yer solig'i, mol-mulk solig'i, ekologiya solig'i va boshqalar). Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning asosi hisoblangan, ularni xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga qarab quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

1. Tovar (ish, xizmat)lar oborotidan to'lanadigan soliqlar. Bunday soliqlarga asosan egri soliqlar kiradi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar: pensiya fondiga ajratmalar, kasaba uyushmalari federatsiyasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va boshqalar.

3. Davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar: mol-mulk solig'i, yer solig'i, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar.

4. Korxonalar foydasidan to'lanadigan soliqlar: daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqalar.

Soliqlarni to'g'ri va egri soliqlarga guruhlanishi soliqqa tortish obyektiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi. To'g'ri soliqlar to'g'ridan to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarining bahosida to'lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o'tkazadi.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'ri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo'yiladigan tovarning iste'molchisi esa, egri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi.

Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to'g'ri soliqlarni ham iste'molchilar zimmasiga o'tkazish imkoniyati mavjuddir. Masalan, korxonalar to'laydigan soliqlar yuki inflyatsiya davrida ko'pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste'molchilar zimmasiga yuklab boriladi.

To'g'ri soliqlarga tortishda mablag'larning safarbar qilinishi yangi qiymatni taqsimlash paytida boshlanadi. Davlat daromad olingan paytdayoq uning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qiladi.

Soliq to'lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va hokazo) va uning mol-mulkingini (yer, uylar, qimmatli qog'ozlar va hokazo) qiymati to'g'ri soliqlar obyekti bo'ladi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to'lovchining daromadliligini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish bosqichida undiriladi. Bundan tashqari, to'g'ri soliqlarga tortishda soliq to'lovchi o'z solig'ining summasini aniq biladi.

Tarixiy jihatdan olganda to'g'ri soliqlar XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida shakllandi, ular faqat XX asrda keng ommalashdi.

To'g'ri soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi.

Real soliqlar soliq to'lovchi mol-mulkingini ayrim turlaridan (yer, uylardan) kadastr asosida undiriladi, to'lovchining haqiqiy daromadliligini emas, balki o'rtacha daromadliligini hisobga oladi. Soliqqa tortish obyektiga qarab quyidagilar real soliqlarga kiradi: yerga oid, uy-joylarga doir, kasb-hunarga tegishli, qimmatli qog'ozlardan olinadigan soliqlar. Real soliqlar tashqi belgilarga asoslanadi, soliqqa tortish mol-mulkning kadastr bo'yicha aniqlanadigan o'rtacha daromadliligi bo'yicha amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra bunday soliqlar regressiv tusga egadir.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, davlat faoliyatining kengayishi shaxsiy soliqlarga o'tilishini taqozo etdi, chunki real soliqlar fiskal jihatdan ham, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lmay qoldi. Real soliqqa tortishning ayrim unsurlari, odatda, mahalliy soliqlar tizimida asosan sanoat jihatdan taraqqiyot etgan mamlakatlarda saqlanib qolgan. Shaxsiy soliqlar ravnaq topmoqda, bular daromadlar manbayida yoki deklaratsiya bo'yicha undiriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari va mol-mulkidan olinadigan soliqlardir. Real soliqdan farqli ravishda shaxsiy soliqqa tortishda obyekt (daromad, mol-mulk) har bir to'lovchi uchun yakka tartibda hisoblab chiqiladi, uning moliyaviy ahvoli (oila soni, qarzdorlik va hokazo) e'tiborga olinadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortish obyektiga qarab shaxsiy soliqlarning quyidagi turlari

farqlanadi: daromad solig'i, pullik sarmoyalardan tushadigan daromadlardan olinadigan soliq, sarmoyaning o'sishidan olinadigan soliq, korporatsiyaning foydasidan olinadigan soliq, merosdan va sovg'a qilishdan olinadigan soliq, mol-mulkdan olinadigan soliq, jon boshiga olinadigan soliq va hokazo.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlarga tortishda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilish bilan aslida yangi qiymatning taqsimlanishining ishtirokchisi bo'lib qoladi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. To'varlar, odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining (sartaroshxonalar, hammomlar, kimyoviy tozalash xizmatlari) pullik aylanmasi, tomosha ko'rsatadigan va transport korxonalarining pattalari va shu kabilar soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Egri soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam kengayib bormoqda.

Xaridor-iste'molchi egri soliqlarning to'lovchisi bo'ladi. Tovarning sohibi yoki xizmatlar ko'rsatadigan shaxs aslida soliqni yig'uvchi hisoblanadi. Egri soliqlarning anchagina qismi mulkdor tomonidan tovarning yoki xizmatlarning narxiga qo'shiladi. Davlat korxonalari va monopoliyalar soliqning butun summasiga narxlarni oshirish bo'yicha juda katta imkoniyatlarga egadir. Tarmoq ichidagi raqobat yuksak bo'lganida va talab barqaror bo'lmagan holda soliqning muayyan hissasi tovarning ishlab chiqaruvchisi va sotuvchi tomonidan to'lanadi. Egri soliqlarning asosiy to'lovchisi pirovard oqibatda iste'molchilar bo'ladilar.

Egri soliqlar daromadlilikni, oilaviy ahvolni hisobga olmaydi. Hamma fuqarolar o'z daromadlarining miqdoridan qat'i nazar, bunday soliqlarni to'laydilar, chunki egri soliqlarga tortiladigan turmush uchun zarur bo'lgan tovarlarni iste'mol qilishadi va xizmatlardan foydalanishadi.

Egri soliqlarning stavkalari qat'iy (tovar o'lchamining birligiga) va foizli (tovarning narxiga muayyan hissada) bo'ladi. Foizli stavkalar davlat uchun ko'proq foydalidir, chunki narxlar oshganida soliq tushumlari ham ko'payadi. Soliq stavkalarining oshirilishi ularning tovarlarning narxidagi hissasining ortishiga olib keladi.



Egri soliqlar aksizlarni, davlatning fiskal monopoliyalarini va bojxona bojlarini o'z ichiga oladi. Aksizlar undirilish usuliga qarab yakka tartibdagi (pivoga, shakarga, benzina va hokazo) va universal (qo'shilgan qiymat solig'i va boshqalar) turlarga bo'linadi.

Ular asosan xo'jalik aktlaridan va aylanmalardan, moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi.

Soliqlarning ayrim turlarining nisbati jamiyatning rivojlanishiga qarab o'zgardi. XIX asrda va XX asr boshida undirilishining soddaligi bilan ajralib turadigan egri soliqlar asosiy ahamiyat kasb etgan edi. 20-yillardan boshlab ko'pgina mamlakatlarda to'g'ri soliqlar ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimida to'g'ri soliqlar alohida ahamiyatga ega bo'lib qoldi, daromad solig'i va korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq ular ichida asosiy o'rin tutardi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilganimizda, to'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs hisoblanadi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulotni ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.

Respublikamizda amal qilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, budjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlari moliyalashtirishga yo'naltiriladi. So'nggi yillarda to'g'ri soliqlarning salmog'i yalpi ichki mahsulot qiymatida bir oz kamayib, egri soliqlar salmog'i oshgan. Bu yerda hozirgi sharoitda to'g'ri tendendiya mavjuddir, chunki egri soliqlar to'g'ridan to'g'ri korxonaning investitsion faoliyatining susayishiga olib kelmaydi. To'g'ri soliqlar salmog'i YalM qiymatida pasayishi korxonalarning moddiy-texnikaviy bazasini kengayishiga, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishiga imkon yaratadi.


Keyingi yillarda resurs soliqlarining salmog'i ham ancha oshmoqda. Ular yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Soliqlarning roli yuqoridagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

## 2.2. Soliқ qonunchiligi huquqiy asoslari

Soliq qonunchiligi *keng ma'noda* soliқ qonunlari va qonunosti hujjatlari to'plami (vakolatli qonunlar, davlat va hukumat boshlig'ining hujjatlari, moliya sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining normativ-huquqiy hujjatlari, masalan, moliya vazirligi, davlat soliқ qo'mitasi va boshqalar).

*Tor ma'noda* soliқ qonunchiligi davlatda qabul qilingan soliқ qonunlarining to'plamidir.

Har qanday davlatda soliqlarni yig'ish maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Bu soliқ tizimini markazlashtirilgan tarzda boshqarish, uni davlatning iqtisodiy siyosatining asosiy vositasiga aylantirish imkonini beradi. Soliқ tizimini qurish tamoyillari uning



tuzilishini belgilaydi. Ular asosida soliқ tushunchalari yaratilib, muayyan mamlakatga nisbatan soliқ siyosatini amalga oshirish shartlari belgilanadi.

Ko'pgina xorijiy

mamlakatlarning soliқ tizimlari o'nlab yillar davomida shakllandi va soliqlar tuzilishi, ularni yig'ish usullari bo'yicha ular sezilarli farqlarga ega. Soliқ tizimlarini qurish tamoyillari, qoida tariqasida, ma'lum bir mamlakatning rivojlanishining iqtisodiy yo'nalishiga bog'liq, biroq ular bir qator umumiy xususiyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi soliқ tizimining huquqiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliқ kodeksi, "Davlat soliқ xizmati to'g'risida"gi qonun va hukumatning soliқ qonunchiligiga oid qarorlari, qonunlari hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51 va 123-moddalarida soliqlarga to'xtalib o'tilgan.

*51-modda: "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdir".*

*123-modda: O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli.*

Mamlakatimizda soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartib-qoidalari va soliqlar haqidagi qonun-qoidalarining talablarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlari orqali tartib solinadi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Mamlakatimizda soliq solish masallariga daxldor bo'lgan Normativ – Huquqiy hujjatlar Soliq Kodeksi qoidalariga mos holda bo'lishi kerak. Agar Normativ–Huquqiy hujjatlar qoidalari Soliq kodeksi qoidalariga mos bo'lmagan yoki farq qilgan taqdirda, faqat soliq kodeksi qoidalari qo'llaniladi.

Soliq solish soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to'g'risidagi Qonun hujjatlari soliqqa tortish prinsiplariga asoslanadi.

Soliq solish prinsiplari Soliq kodeksining 7-moddasida<sup>4</sup> aks ettirilgan. Bular soliq solishning prinsiplari (tamoyillari) bo'lib hisoblanadi.

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 31.12.2020. Lex.uz

### 2.3. Soliq qonunchiligi prinsiplari

Ko'pgina xorijiy mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasi ham davlat daromadlarini oshirish yo'llarini samarali tashkil etishga harakat qiladi. Bu maqsadga erishish uchun qator rivojlangan mamlakatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan va o'z samarasini ko'rsatgan soliq tizimining tamoyillariga amal qilish lozim.

Kolumbiya universiteti professori, amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofoti laureati (2001) Stiglitz J. Yu tomonidan tuzilgan "yaxshi" soliq tizimining asosiy tamoyillari ko'plab mamlakatlar soliq tizimi prinsiplari asosi ekanligini ko'rib o'tamiz<sup>5</sup>:

- iqtisodiy samaradorlik prinsipi;
- soliqqa tortishda ma'muriy tizim oddiy va nisbatan arzon bo'lishi kerak bo'lgan ma'muriy soddalik prinsipi;
- soliq tizimining o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga tezda (ayrim hollarda — avtomatik ravishda) javob berishi kerak bo'lgan moslashuvchanlik prinsipi;
- soliq tizimi odamlarni siyosiy tizimni o'z imtiyozlarini yanada aniqroq aks ettirish uchun to'lashlarini ta'minlash uchun soliq tizimini qurish kerak bo'lgan siyosiy mas'uliyat prinsipi;
- soliq tizimi turli shaxslarga tegishli yondashuvda adolatli bo'lishi kerak bo'lgan adolat prinsipi.

Soliq tizimini qonunchiligi yuqoridagi tamoyillarini buzish va buning natijasida soliq qonunchiligining nomutanosibligi, soliqlarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, nazorat shakllari va usullari, soliqlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimining yo'qligi, ularga xos bo'lmagan funksiyalarning soliq organlari tomonidan bajarilishi budjet daromadiga soliq yig'ishdan tushadigan mablag'larning keskin kamayishiga olib kelishi mumkin.

Agar soliq tizimini qonunchiligi tamoyillarini yanada kengroq ko'rib chiqsak, unda oqilona soliq tizimi qurilayotgan tamoyillarni ham qayd etish lozim:

- *soliqqa tortish teng obyekt bo'yicha teng soliqlar* (foyda, daromad, mol-mulk va hokazo);

<sup>5</sup> Stiglitz J. Yu. Davlat sektori iqtisodiyoti. — M.: Moskva davlat universiteti; INFRA-M, 1997. - b. 369-386.

- mulk shaklidan, faoliyat turidan va daromad olish manbasidan qat'i nazar, *solliqlarni yig'ishning yagona tartibi*, noqonuniy bo'lganlar bundan mustasno;

- *solliqqa tortishning bir xilligi*, ya'ni imkon qadar istisno, xuddi shu obyektни ikki tomonlama solliqqa tortish.

Umuman, soliq tizimining barqarorligi va uning alohida elementlari tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va xorijiy investorlarni jalb qilishning ajralmas shartidir. Shu bilan birga, soliq stavkalari uzoq vaqt davomida belgilanishi mumkin emas, chunki ular haqiqiy iqtisodiy vaziyatga, budjet sarf-xarajatlarning kattaligiga, aholi daromadlari darajasiga va ularning farqlanishiga bog'liq.

Mamlakatimizda Soliq to'g'risidagi Qonun hujjatlari solliqqa tortish prinsiplariga asoslanadi. Soliq solish prinsiplari soliq kodeksining 7-moddasida keltirilgan va ular quyidagilar: *soliq solish majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.*

**Majburiylik prinsipi.** Har bir shaxs Soliq Kodeksida belgilangan solliqlar va unda nazarda tutilgan yig'imlarni to'lashi shart.

Hech kimga solliqlar va yig'imlarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan solliqlar va yig'imlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

**Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi prinsipi.** Solliqlarni va yig'imlarni belgilovchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilarni hamda ushbu solliqlarning va yig'imlarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan ularni to'lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerak.

Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to'lovchilar bilan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini to'g'ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shart. Bunda soliq organlari soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to'siqlar yaratishga haqli emas, soliq to'lovchilar esa soliq organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.

**Adolatlilik prinsipi.** Soliqlar va yig'imglar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

**Soliq tizimining yagonaligi prinsipi.** Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir.

O'zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O'zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning (xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Oshkoralik prinsipi.** Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari rasman e'lon qilinishi shart.

Rasman e'lon qilinmagan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi.

**Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi.** Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etiladi.

#### **2.4. Soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig'imglarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari mazkur shaxslarning soliqlar va yig'imglarni to'lash bo'yicha majburiyatlarini Soliq Kodeksida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ushbu alohida bo'linmalar joylashgan yeri bo'yicha bajaradi.


Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan soliq to'lovchilar alohida bo'linmalarni hisobga olib markazlashgan holda soliq hisobotini taqdim etadi va soliqlarni (yig'implarni) to'laydi.

Soliq Kodeksida nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 21 va 22-moddalarida soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari belgilab qo'yilgan<sup>6</sup>.

### **Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:**

soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to'g'risida, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek, ularni to'ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish;



o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo'lgan

ma'lumotlarni olish;

ushbu Kodeksda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish;

soliqlar, penyalari va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o'z vaqtida hisobga o'tkazish yoki qaytarish;

ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash;

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 31.12.2020. Lex.uz

soliq solish obyektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

ushbu Kodeksga muvofiq o'z hududida o'tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvini va soliq auditini o'tkazish chog'ida hozir bo'lish;

sayyor soliq tekshiruvi va soliq audit materiallari bilan tanishish, shuningdek, ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish;

soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosiga taalluqli masalalar bo'yicha tushuntirishlar berish;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining ushbu Kodeksga va (yoki) soliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan talablarini bajarmaslik;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning normativ tusga ega bo'lmagan hujjatlari hamda qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlarning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, soliq tekshiruvi materiallarini yoki soliq organlarining boshqa hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etish;

soliq munosabatlari masalalariga oid o'z manfaatlarini shaxsan yoxud soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa o'z vakillari orqali ifodalash;

soliq siriga rioya etish va uni saqlash.

Soliq to'lovchilar ushbu Kodeksda va soliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarida belgilangan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek, vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.



Soliq to'lovchilarning huquqlari soliq organlari va boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslarining tegishli majburiyatlari bilan ta'minlanadi.

Soliq to'lovchilarning huquqlarini ta'minlashga oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Soliq to'lovchilarning majburiyatlari.** Soliq to'lovchilar:

belgilangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda hisoblab chiqarishi va to'lashi;

hujjatlarni ko'rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to'g'risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi;

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraqa-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi;

soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek, elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko'rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;

agar Soliq Kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarning tegishli soliqlarni to'lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi besh yil mobaynida but saqlanishini ta'minlashi;

o'zi soliq bo'yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to'g'risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo'lsa, xabardor etishi shart.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, o'zlari hisobga olingan joydagi soliq organlariga o'zlarining barcha alohida bo'linmalari to'g'risida va alohida bo'linmalarga oid ilgari xabar qilingan ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida alohida bo'linma

tashkil etilgan yoki mazkur ma'lumotlar o'zgartirilgan kundan e'tiboran bir oy ichida xabar qilishi shart.

Soliq Kodeksi bilan zimmasiga soliq hisobotini elektron shaklda taqdim etish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq organlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o'z vakolatlarini amalga oshirish chog'ida foydalaniladigan hujjatlarning soliq organidan telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda olinishini ta'minlashi kerak.

Soliq Kodeksiga muvofiq soliq solish obyekti deb e'tirof etiladigan ko'chmas mulkka ega bo'lgan chet el yuridik shaxslari ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, ko'chmas mulk obyekti turgan joydagi soliq organiga ushbu chet el yuridik shaxsining ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda xabar qilishi shart. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari ko'rsatilgan holatlarda o'z muassislari, benefitsiarlari va boshqaruvchilari haqidagi ma'lumotlarni xabar qilishi kerak. Chet el yuridik shaxsida (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasida) ushbu qismda ko'rsatilgan bir nechta mol-mulk obyekti mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu shaxs tanloviga ko'ra, xabar mol-mulk obyektlarining biri turgan yerdagi soliq organiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tilishi munosabati bilan soliqlar to'laydigan soliq to'lovchilar zimmasida O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlar ham bo'ladi.

Soliq to'lovchilarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Soliq tizimiga ta'rif bering.
2. Soliq tizimining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimada?
3. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini guruhlab bering.
4. Obyektiga qarab soliqlar necha guruhga bo'linadi?
5. To'g'ri va egri soliqlarning farqlarini aniqlab bering.
6. Egri soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
7. To'g'ri soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?

8. Soliq tizimi modellarini sanab bering.
9. Soliq tizimining huquqiy asoslari qaysilar?
10. Unitar va federativ davlatlar soliq tizimlari qanday?
11. Soliq to'lovchilar qanday huquqlarga ega?
12. Soliq to'lovchilar majburiyatlari nimalardan iborat?
13. Soliq tizimi prinsiplari qaysilar?
14. Oshkoralik prinsipini tushuntirib bering.
15. Soliq tizimining yagonaligi prinsipini tushuntirib bering.

### TESTLAR

1. Bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi – bu ... deyiladi.

- A. Soliq siyosati
- B. Soliq tizimi
- C. Soliq strategiyasi
- D. Soliq taktikasi

2. Soliqlar subyektiga ko'ra ... larga bo'linadi.

- A. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq.
- B. Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq.
- C. Egri va to'g'ri soliq.
- D. Mahalliy va umumdavlat soliq

3. Soliqlar budjetga tushishiga ko'ra ... larga bo'linadi.

- A. Egri va to'g'ri soliq
- B. Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq
- C. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq
- D. Mahalliy va umumdavlat soliqlari

4. Soliqlarni soliqqa tortish obyektiga ko'ra guruhlang.

- A. Mahalliy va umumdavlat soliqlari
- B. Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliqlar
- C. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar
- D. Egri va to'g'ri soliqlar

5. Undirish usuliga ko'ra soliqlar ...larga bo'linadi.

- A. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq
- B. Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq
- C. Egri va to'g'ri soliq
- D. Mahalliy va umumdavlat soliq

6. Respublikamizda soliqlar budjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab ...larga bo'linadi.

- A. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq
- B. Mahalliy va umumdavlat soliqlari
- C. Egri va to'g'ri soliq
- D. Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq

7. To'g'ri soliqlar keltirilgan javobni ko'rsating?

- A. QQS, aksiz solig'i
- B. Daromad (foyda) solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i

C. Yagona soliq to'lovi, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, aksiz solig'i

D. Bojxona bojlari, yalpi daromad solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq

8. Egri soliqlar keltirilgan javobni ko'rsating.

- A. QQS, aksiz solig'i
- B. Aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliq, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq

C. Bojxona bojlari, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i

D. QQS, aksiz solig'i, yer solig'i

9. Qaysi qatorda resurs soliqlari keltirilgan?

A. Mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

B. Yer solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

C. Aksiz solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

D. Yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan

transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliq.

10. Qo'shilgan qiymat solig'i bu – ....

- A. Oborotdan olinadigan egri soliq
- B. To'g'ri soliq
- C. Korxonalar foydasidan undiriladigan soliq
- D. Mahalliy soliq

11. Soliq obyektiga ta'rif bering.

- A. Soliq to'lovchilarning manfaatlari, majburiyatlari
- B. Soliqqa tortiladigan mol-mulk qiymati, daromadlari
- C. Yollanib ishlovchilarning majburiyatlari va tadbirkorlar mulklari
- D. Soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki

12. Soliq agenti deb kimga aytiladi?

- A. Yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolib, davlat budjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar
- B. Soliq to'lovchilardan soliq to'lovlarning yig'ib oluvchi jismoniy shaxs
- C. Soliq to'lovchilardan soliq to'lovlarini budjetga o'tkazib beruvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- D. Yollanib ishlovchilarning solig'ini hisoblovchi yuridik va jismoniy shaxslar

13. Soliqqa tortish predmetiga ta'rif bering.

- A. Soliq solinadigan daromad, mol-mulkning bir qismi
- B. Soliqqa tortiladigan daromadning, mol-mulkning huquqi
- C. To'g'ri javob A va B
- D. Soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulkka bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zi, ya'ni egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalar

14. Soliq manbayi bu – ...

- A. Soliq organlari undiriladigan soliqlarning obyekt
- B. Soliq to'lovchilarning to'laydigan soliqlari manbayi, ya'ni daromad;
- C. Jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki qiymati, daromadi summasi
- D. To'g'ri javob A va C

15. Soliqqa tortish birligi bu – ...
- A. Soliq obyektining o'lchov birligi
  - B. Soliq subyektining daromadi summasi
  - C. Soliq organlarining soliq to'lovchilariga hisoblangan soliq summasi
  - D. To'g'ri javob yo'q
16. Soliq stavkasi deb nimaga aytiladi?
- A. Soliq obyektini qiymatiga nisbatan hisoblangan summa
  - B. Soliq obyektining har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir
  - C. Soliq to'lovchilarini daromadlariga nisbatan hisoblangan summa
  - D. To'g'ri javob yo'q
17. Soliq imtiyozlari bu – ...
- A. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beruvchi soliq summalari
  - B. Soliq to'lovchilarga soliq to'lashdan bo'yin tovlagan qismi
  - C. Soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar
  - D. To'g'ri javob yo'q
18. Soliqni to'lash muddatlariga qaysi bandda to'g'ri ta'rif berilgan?
- A. Soliq organlari tomonidan belgilangan soliq to'lovlarini to'lash kunlari
  - B. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lash kunlari
  - C. Soliq to'lovchilarning davlat budjeti oldida soliq majburiyatlarining bajarish muddati
  - D. To'g'ri javob A va B
19. Soliq bazasini hisoblashning qanday usullari mavjud?
- A. Kadastrli usul va manbadan olish usuli
  - B. Kassa usuli va kadastrli usul
  - C. Kassa usuli va hisobga olish usuli
  - D. To'g'ri javob A va C

### 3-BOB. SOLIQ SIYOSATI

- 3.1. Soliq siyosatining tarkibi.
- 3.2. Soliq siyosatining xususiyatlari.
- 3.3. Soliq siyosati konsepsiyasi va strategiyasi.
- 3.4. Soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari.

**Bobning qisqacha mazmuni:** Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, budjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati – bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. Shundan kelib chiqib mazkur bobda soliq siyosatining tarkibi, xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan.

#### 3.1. Soliq siyosatining tarkibi

Soliq siyosatini olib borishda davlat soliqlarga xos funksiyalarga tayanadi va faol soliq siyosatini amalga oshirish

*Soliq siyosati davlatning, jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlarining moliyaviy ehtiyojlarini ta'minlash, shuningdek, moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun mamlakatning soliq tizimini shakllantirish bo'yicha davlatning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy choralari to'plamidir.*

uchun ushbu funksiyalardan foydalanadi<sup>7</sup>.

Soliq siyosati fiskal siyosatning ajralmas qismidir va ko'p jihatdan davlatning umumiy iqtisodiy siyosati bilan belgilanadi. Ma'lumki, fiskal siyosat davlatning umumiy talabning o'zgarishiga, ish bilan bandlik darajasiga, inflyatsiyaga va davlatning iqtisodiy siyosatining boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan soliq va xarajatlar sohasidagi moliyaviy faoliyatlari to'plamidir. Pul-kredit siyosati bilan bir qatorda, moliyaviy siyosat ikki asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotini tartibga soluvchi mustaqil vositalar yoki boshqa so'zlar bilan aytganda, davlatning barqarorlashtiruvchi siyosatining tarkibiy qismi. Fiskal siyosat soliq va budget siyosati deb ataladi, chunki u davlat, budgeti mablag'larini shakllantirish va sarflashga tushadi: soliqlar budgetning asosiy

Makroiqtisodiy siyosat asosiy yo'nalishlari :

fiskal, ya'ni byudjet-soliq siyosati

monetar, ya'ni pul-kredit siyosati;

Ish haqai-narx siyosati;

Tashqi iqtisodiy siyosat.

daromadlari va davlat xaridlari va transferlari – uning xarajatlari.

Ixtiyoriy va avtomatik fiskal siyosat mavjud.

**Ixtiyoriy fiskal siyosat** iqtisodiy o'sish, ishsizlik va inflyatsiyaga ta'sir ko'rsatish maqsadida soliq tizimiga ongli ravishda aralashish

va davlat xarajatlari hajmining o'zgarishiga asoslangan. Ixtiyoriy aralashuv misollarini har qanday hukumat amaliyotida topish mumkin.

**Avtomatik fiskal siyosat** iqtisodiyotning ishbilarmonlik sharoitlariga tabiiy moslashishini ta'minlaydigan ichki stabilizatorlar ta'siriga asoslangan. Eng mashhur o'rnatilgan stabilizatorlar-progressiv soliqqa tortish tizimi, ijtimoiy imtiyozlar tizimi, korporatsiyalarni tejash va shaxsiy jang'armalar. Daromadlarning o'sishi natijasida ko'tarilgan davrda soliqlar yuqori stavkalar bo'yicha

<sup>7</sup> Pankov V. G. Rossiya Federatsiyasida soliq va soliqqa tortish: universitetlar uchun darslik. — 2-e Ed., pererab. va qo'shimcha. — M.: kitob dunyosi, 2000. — 457 p.



undirila boshlaydi, buning natijasida bir martalik daromadning o'sish sur'ati iste'mol talabining o'sishini cheklovchi milliy daromadning o'sish sur'atlaridan ortda qoladi. Bundan tashqari, daromadlarning o'sishi natijasida davlat xarajatlari ijtimoiy nafaqalar uchun kamayadi. Natijada, jami talabning o'sishi cheklanadi. Retsessiya davrida, aksincha, umumiy talab rag'batlantiriladi.

Soliq siyosatining uch turi mavjud:

**Birinchi tur** – maksimal soliq siyosati, “mumkin bo'lgan hamma narsani olish” tamoyiliga asoslanadi. Shu bilan birga, davlat soliq daromadlarini oshirish bilan birga emas, balki “soliq tuzoq” ga tayyorgarlik ko'rmoqda. Narxlar chegarasi belgilanadi va har bir alohida holatda bir qator omillarga bog'liq.

**Ikkinchi turi** – oqilona soliq siyosati. U qulay soliq muhitini ta'minlab, tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Tadbirkor soliqdan maksimal darajada chiqib ketadi, ammo bu ijtimoiy dasturlarning cheklanishiga olib keladi, chunki davlat daromadlari kamayadi.

**Uchinchi tur** – ijtimoiy yo'naltirilgan soliq siyosati, juda yuqori soliqqa tortishni nazarda tutadi, lekin muhim ijtimoiy himoya bilan. Soliq daromadlari turli ijtimoiy fondlarni ko'paytirishga qaratilgan. Bunday siyosat inflyatsiya spiralining ochilishiga olib keladi.

Rivojlangan iqtisodiyotda ushbu soliq siyosatining barcha turlari muvaffaqiyatli birlashtirildi.

**Soliq siyosatining maqsadi** – faoliyatning moliyaviy sharoitlarining barqarorligi va prognozligini ta'minlash, shuningdek, xarajatlarni tejash va kapital qo'yilmalarni saqlashga qaratilgan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishdir.

Ushbu maqsaddan quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

1. *Moliyaviy*: davlatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash.
2. *Iqtisodiy*: iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarishning siklik darajasini pasaytirish, ayrim hududlarni rivojlantirishda nomutanosibliklarni bartaraf etish, inflyatsiya jarayonlarini bartaraf etish, moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish uchun shart-sharoitlar yaratish.

3. *Ijtimoiy*: aholi daromadlari darajasida tengsizlikni bartaraf etish uchun muayyan ijtimoiy guruhlar manfaati uchun milliy daromadni qayta taqsimlash.

4. *Xalqaro*: boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, to'lov balansi uchun noqulay sharoitlarni bartaraf etish.

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida soliq siyosati ishlab chiqarish tuzilmasini, hududiy iqtisodiy rivojlanishni, aholining rentabellik darajasini o'zgartirish uchun mamlakat milliy daromadlarini qayta taqsimlash uchun davlat tomonidan qo'llaniladi.

Soliq siyosatining maqsad va vazifalarini amalga oshirish to'g'ridan to'g'ri va bilvosita soliqlarning nisbati bilan, soliqqa tortishning turli shakllari va usullaridan foydalanish, moliyaviy federalizmning turli modellarini qo'llashni o'z ichiga oladi.

### **3.2. Soliq siyosatining xususiyatlari**

Soliq siyosatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng avvalo iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishni huquqiy qonunlar nafaqat iqtisodiy balki ham ijtimoiy hamda siyosiy vazifalarni hal qilish asosiy rol o'ynaydi. Respublikamizni soliq siyosatining huquqiy asoslari mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab kuchga kirganligi bevosita mustaqil soliq siyosatini shakllantirish va davlat vazifalarini bajarishga xizmat qilishi fikrimiz dalilidir. Mustaqil soliq siyosatini yuritish davlatning soliq munosabatlari doirasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlarga asoslangan, har tomonlama ishlab chiqilgan chora-tadbirlarga asoslangan, har tomonlama mustaqil munosabatlarni va barqarorlashtirish yo'lida shakllanadi va rivojlanadi.

Soliq siyosati moliya siyosatining tarkibi sifatida bozor iqtisodiyotining zaruriy qismi bo'lib hisoblanadi. Soliq siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun u ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi shartdir. Soliq munosabatlarini chuqur o'rganish, undan ilmiy xulosalar chiqarish orqaligina soliq siyosatida katta muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'ladi. Soliq siyosatini soliq va soliq tizimini

rivojlantirish maqsadida soliq to'lovlari davlat oldida turgan vazifa va chora-tadbirlarni to'liq moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyati yaratilmas ekan, budget taqchilligiga duch kelishga to'g'ri keladi. Bunday nuqsonlarni kelib chiqishning oldini olish va mutaxassislardan tashkil topgan koordinatsion kengashni tashkil etish ularga soliq va munosabatlarini dinamik o'zgarishini kuzatish orqali fikrlar va tavsiyalar ishlab chiqish mas'uliyatini yuklash maqsadga muvofiqdir. Bu esa quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish borasidagi faolligini oshirishni taqozo etadi, ya'ni:

- soliqlarni zamonaviy ijtimoiy muhitni yaratishga qaratilishi;
- soliqlarni iste'molchilarga tushadigan og'irligini tinimsiz oqilona soliq munosabatlarini qo'llash orqali yengillashtirib borishni;
- zamonaviy soliq munosabatlarini yuzaga keltirish orqali faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlarining sonini oshira borishi;
- soliq munosabatlari har tomonlama boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar va ularni o'sishiga monand olib borishga zaruriy shart-sharoitlar yaratishni;
- xo'jalik subyektlari va aholini keng qatlamini soliq qonuniyatlariga amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishni.

Shunday qilib soliqlarni oqilona tartibga solishda, xalq manfaatlari yo'lidagi ta'sirchanligini oshirishda budget taqchilligini oldini olishda soliq siyosati muhim o'rin egallamog'i lozim. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni, ya'ni kichik biznes korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, korxonalarni modernizatsiyalash orqali ularni turli faoliyat yurg'izishga qaratish, moliyaviy bozorni barqarorlashtirish, aholining keng qatlamini moddiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy muhofazani kuchaytirish va xizmatlarni soliqdan kompleks foydalanish orqali amalga oshirish soliq siyosatini barqarorlashtirishga qaratilishi bilan hal etilishi mumkin.

Soliqlar davlat budgetining asosiy qismini tashkil etishda manba vazifasini bajarishi bois davlat soliq siyosati orqali soliq munosabatlarini tartibga keltirib turadi. Shu tariqa davlat soliq siyosatini ishlab chiqishning asosiy tashkilotchisi sifatida maydonga chiqadi. Davlat o'z moliyaviy idoralar faoliyatini soliq siyosatini ishlab chiqishga va amaliyotda qo'llanishiga jalb etadi. Soliq siyosatini ishlab chiqayotganda soliq munosabatlari doirasidagi yutuqlar va

kamchiliklarni e'tiborga olish, ularni o'rganib chiqish orqali soliq hisobi, to'lovi va amal qiluvchi soliq elementlarini o'zgarishini e'tiborga olishi zarur.

Chunki, davlatning soliq siyosatini faol yuritishdagi roli bozor iqtisodiyoti munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Buning uchun davlat o'z soliq siyosatida soliq stavkalarini kamaytirish orqali budjet barqarorligini ta'minlash, "yuqori soliq stavkalari va soliqlarni to'lashdan ommaviy qochish", "past soliq stavkalari va soliqlarni ixtiyoriy to'lash" g'oyasini bosh vazifa qilib olishi kerak. Bu esa soliqlar orqali boshqarish usullarini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirishni taqozo etadi, ya'ni:

- soliq bo'yicha imtiyozlarning samaradorlik darajasini amalga oshirishni;

- moliyaviy sanksiya hamda ma'muriy jarimalar tekshirish natijasida aniqlangan, budjetga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar miqdoriga nisbatan qat'iy belgilangan foizlarda undirib olinishi.

Shularni inobatga olgan holda soliq siyosatini iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ta'sirchanligini yanada oshirishga erishish mumkin bo'ladi. Respublikamizning mustaqillikka erishishi, o'zining mustaqil soliq tizimini shakllantirishni ham taqozo etardi. Shundan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridan e'tiboran mustaqil soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o'laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda bir qadar o'ziga xos bo'lgan soliq tizimi shakllantirildi. O'ziga xos bo'lgan soliq tizimining shakllantirilishini soliq siyosatining samarasi sifatida e'tirof etish mumkin. Respublikamiz davlatchilik shaklidan kelib chiqib respublikamizda respublika budjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umumdavlat soliqlari va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi. Soliqlarning budjetlar o'rtasida taqsimlanishi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi bilan mustahkamlangan bo'lib, unga muvofiq respublikamiz soliq tizimida amal qiladigan har bir soliq turi u yoki bu budjetga tushishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ayrim umumdavlat soliqlari mahalliy budjetlarga to'liqligicha birlashtirilishi yoki ulardan

tushumlar respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Ushbu tizim bir necha yillardan buyon mahalliy budjetlar kamomadini bartaraf etish maqsadida amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibidagi o'ziga xoslikni mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyati sifatida e'tirof etish lozim. Chunki respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim bo'lgan sohalar alohida tartib bo'yicha soliqqa tortilib kelinmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyatlari sifatida soliq to'lovchilarga nisbatan ko'zda tutilgan imtiyozlarni ham qayd etish mumkin. Jumladan eksport faoliyatini rag'batlantirishga, xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirishga qaratilgan, aholining ijtimoiy shart-sharoitini hisobga olgan holdagi imtiyozlarni ularning ifodasi sifatida keltirib o'tish mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida ikki yo'nalish: korxonalar va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati va aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun soliq siyosati kabi yo'nalishlarga bo'lib o'rganiladi.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash, resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, soliq tizimining soddaligiga erishish, davlat xarajatlarini optimallashtirish kabilarni qayd etish mumkin.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bunda birinchi navbatda ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog'ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida, korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini beradi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortilishini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan soliq

stavkalarini kamaytirish va aholi daromadlarini soliqqa tortishning uch bosqichli tizimidan ikki bosqichli tizimiga asta-sekin o'tish konsepsiyasini davom ettirish vazifasi turibdi.

Bevosita soliqlar bo'yicha soliq yukini izchil kamaytirish soliq siyosatining samaradorligini YaIM ga nisbatan ular tushumining barqaror kamayishi tendensiyasi ham isbotlaydi. Soliq tizimini takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita soliqqa tortishga qaratilgan. Bilvosita soliqlar tovarlarga nisbatan qo'shimcha bo'lgani holda, pirovard natijada ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.

### **3.3. Soliq siyosati konsepsiyasi va strategiyasi**

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasining Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib mamlakatimizda soliq tizimini tubdan isloh qilish boyicha bir qator vazifalar belgilandi va tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarini kengaytirish maqsadida yangi soliq kodeksi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishdagi nomutanosibliklarni qisqartirish bo'yicha choralar amalga oshirildi.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, o'rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligi zaruriy

darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi, xususan:

*birinchidan*, umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

*ikkinchidan*, qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to'lovchilarning aylanma mablag'larini jalb qiladigan, shuningdek, iste'mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperatsiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan majburiy to'lovlarning mavjudligi;

*uchinchidan*, soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

*to'rtinchidan*, xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliq va bojxona, shu jumladan, individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli amaliyoti, natijada sog'lom raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi imtiyozlarning samaradorligini nazorat va monitoring qilish tizimining mavjud emasligi;

*beshinchidan*, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliqlar ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirishning shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

*oltinchidan*, o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiladigan nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo'qligi;

*yettinchidan*, mahalliy soliqlar va yig'implarning ma'muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularni yig'iluvchanlik darajasi yetarli emasligi, shuningdek, ko'chmas mulk va yer uchastkalarini to'liq hisobga olish va qiymatini obyektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Soliq siyosatiga nisbatan soliq strategiyasi va taktikasi haqida gapirish mumkin.

Boshqaruv tuzilmalarining taktik harakati va davlatning konstitutsiyaviy huquqiy hujjatlari bilan tasdiqlangan umumiy soliq strategiyasi o'rtasidagi ziddiyatlar muvozanatga olib keladi

budget, iqtisodiy mexanizmdagi muvaffaqiyatsizliklar, reproduktiv jarayonlarni inhibe qilish va oxir — oqibat-iqtisodiy inqirozga.

Soliq siyosatini amalga oshirishda taktik harakatlarning asoslanishi budget daromadlarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Keyingi moliyaviy yil uchun budget vazifalari umumiy soliq strategiyasi bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. belgilashda federal hokimiyat bilan munosabatlarining mohiyatini belgilaydi.

Soliq strategiyasi – bu davlatning soliq sohasidagi uzoq muddatli kursi bo'lib, istiqbolga mo'ljallangan va iqtisodiy va ijtimoiy strategiyada belgilangan keng ko'lamli vazifalarni hal etishni nazarda tutadi.

Soliq taktikasi soliq solish tartibi va shartlarni o'z vaqtida o'zgartirish orqali jamiyatni rivojlantirishning muayyan bosqichi vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat budjeti va xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg'unlikni ta'minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir, yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi – soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig'indisidir.



Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sa'yi-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasi – soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati konsepsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya'ni kam o'zgaruvchan bo'lib, ularning barchasi bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mohiyatini tashkil qiladi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy etish;

– amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

– soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

– soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

#### ***Soliq siyosatiga qo'yiladigan talablar:***

1. Soliq siyosatining ijtimoiy rivojlanish qonunlariga muvofiqligini, soliq nazariyasi xulosalarini doimiy ravishda hisobga olishni nazarda tutadigan soliq siyosatini ishlab chiqishda ilmiy yondashuv. Misol uchun, ko'p yillar davomida korxonalar moliyaviy resurslarning katta qismini budjetga jalb qilishdi. Natijada xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashabbusi buzildi.

2. Siyosiy qarorlar iqtisodiyot va ijtimoiy sohada davom etayotgan jarayonlar, soliq siyosati sohasidagi muayyan tadbirlarni o'tkazish natijalari to'g'risida ishonchli ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi kerak. Unda o'tkazilayotgan soliq siyosatining to'g'riligini, uning jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga ta'siri ijobiyligini tekshirish uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qiluvchi qayta aloqa tamoyillariga amal qilish muhimdir.

3. Soliq siyosatini ishlab chiqishda muayyan tarixiy shartlardan kelib chiqish kerak. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichining

o'ziga xos xususiyatlarini, ichki va xalqaro vaziyatning xususiyatlarini, soliq to'lovchilarning haqiqiy iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Soliq siyosatining joriy momentning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z vaqtida o'zgarishi, iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb ehtiyojlari mamlakatimiz oldida turgan vazifalarni qisqa muddatda va kam xarajat bilan hal etish imkonini beradi.

4. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda kompleks yondashuvga rioya qilish, ya'ni soliqlarni boshqarishning barcha darajalarida o'tkaziladigan tadbirlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari — moliyaviy, kredit, narx-navo siyosati, ish haqi o'rtasidagi yaqin munosabatlarni ta'minlash.

### 3.4. Soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari

Umumiy olganda jahon amaliyotida soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar deb e'tirof etiladi:

1. Xalq xo'jaligi va hududlarning barcha tarmoqlarini izchil rivojlantirishni ta'minlash, iqtisodiy konyunkturaga faol ta'sir ko'rsatish. Davlat soliqlarini tartibga solish bu borada tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyotni ta'minlaydigan tarmoqlar, fundamental ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, nogiron kishilarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlovchi ustuvor soliq siyosatiga muhtoj.

2. Ijtimoiy taraqqiyotga faol ta'sir.

Soliq siyosatida asosiy yo'nalishlar

1. Barqaror davlat byudjetini shakllantirish maqsadida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish

2. Mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash

3. Soliq tizimini yanada soddalashtirish va uning oshkorligini ta'minlash bo'yicha tegishli chora tadbirlarni amalga oshirish

Davlat o'zining ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlari timsolida iqtisodiy qonunlarning amal qilishini, soliq solishni rivojlantirish qonunlarini, moliyaviy-iqtisodiy va soliq siyosati vazifalarini puxta o'rganish asosida

milliy daromadni taqsimlash usullarini belgilaydi, soliq to'lovlarining turlarini nazarda tutadi, soliq solish tamoyillarini belgilaydi.

Mamlakatimizda 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

↓ iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

↓ soliqlarni unifikatsiya qilish yo'li bilan ularni maqbullashtirish, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

↓ makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va uning daromadlarini mustahkam shakllantirishni ta'minlash;

↓ soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish;

↓ soliq solish masalalarini tartibga soladigan havola qiluvchi normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan, kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalari miqdorlarini belgilash;

↓ xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

↓ soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan, soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab

olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq siyosatiga ta'rif bering.
2. Soliq siyosatining huquqiy asoslarini ifodalab bering.
3. Soliq konsepsiyasi nima?
4. Soliq siyosati strategiyasiga ta'rif bering.
5. Soliq siyosati taktikasi nima?
6. Soliq siyosati xususiyatlari va yo'nalishlarini tushuntirib bering.

### TESTLAR

1. Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati... deyiladi.
  - A. Soliq siyosati
  - B. Soliq tizimi
  - C. Soliq taktikasi
  - D. Soliq strategiyasi
2. Soliq konsepsiyasi nima?
  - A. Soliqlarni yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalariining yaxlitligi
  - B. Uzoq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlar yig'indisi
  - C. Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sa'yi-harakatlar
  - D. Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati
3. Soliq siyosati taktikasi ...
  - A. Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlar
  - B. Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati
  - C. Uzoq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlar yig'indisi

D. Soliqlarni yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarining yaxlitligi

4. Soliq siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi organlarni ko'rsating.

A. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va vakolatli davlat organlari

B. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi

C. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi

D. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

5. Soliq siyosatining strategiyasi deganda nima tushuniladi?

A. Davlatning uzoq yillarga mo'ljallangan soliq sohasidagi yo'nalishlar yig'indisi

B. Soliq turlari bo'yicha tushumlarni nazorat qilish tartibi

C. Davlatning qisqa muddatlarga mo'ljallangan soliq sohasidagi yo'nalishlar yig'indisi

D. Soliq sohasida olib borilgan islohotlarning natijalari

## **4-BOB. DAROMAD TURLARIGA SOLIQ SOLISH**

**4.1. Yalpi ichki mahsulotni soliqlar vositasida qayta taqsimlanishi.**

**4.2. Soliq to'lovchilar daromadlarining turkumlanishi.**

**4.3. Daromadlarga soliq solish mexanizmi.**

**4.4. Laffer egri chizig'i va uning elastikligi.**

**Bobning qisqacha mazmuni:** Mazkur bobda yuridik va jismoniy shaxslar daromad turlariga soliq solish bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Xususan, davlat budjetining asosiy daromad manbayi hisoblangan soliqlarning yalpi ichki mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi o'rni, soliq to'lovchilar daromadlarining turlari bo'yicha to'liq ma'lumotlar berilgan. O'zbekistonda daromad turlarining soliqqa tortish mexanizmiga ham urg'u beriladi. Laffer Egri chizig'i orqali soliq stavkalarining iqtisodiyotga ta'siri ko'rsatib berilgan.

### **4.1. Yalpi ichki mahsulotni soliqlar vositasida qayta taqsimlanishi**

Davlat soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solib turadi va daromadlar ustidan katta nazoratni amalga oshiradi. Respublika va mahalliy hukumat yuqori soliq stavkalarini tayinlashi va daromadlarini oshirishi mumkin.

Soliqlarni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali hukumat uy xo'jaliklarining bir martalik daromad darajasiga ta'sir qiladi (soliqdan keyingi daromad). Soliqning ko'payishi bir martalik daromadni kamaytiradi, chunki u uy xo'jaliklaridan pul olib chiqadi. Soliqning pasayishi bir martalik daromadni ko'paytiradi, chunki bu uy xo'jaliklarida ko'proq pul qoldiradi. Ixtiyoriy daromad iste'molchilar talabini harakatga keltiruvchi asosiy omil bo'lib, u umumiy talabning uchdan ikki qismini tashkil etadi.

**Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** – mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. U muayyan davrda rezident va nerezidentlar tomonidan mamlakat hududida yaratilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymatini aks ettiradi.

Lekin har qanday yaratilgan tovar va xizmatlar ham YAIM tarkibida hisobga olinmasligi mumkin. Tovar yoki xizmat YAIMda aks ettirilishi uchun u tugallangan bo'lishi lozim. Masalan, non ishlab chiqarishni olaylik. Faraz qilaylik, fermer xo'jaligida 1 million so'mlik bug'doy yetishtirildi. Yetishtirilgan bug'doy tegirmonga olib boriladi va u yerda unga aylantiriladi, unning qiymati 1,5 million so'mni tashkil etsin. U holda bug'doyni unga aylantirishda qo'shilgan qiymat 500 ming (0,5 million) so'm bo'ladi. Endi, un tayyor non ishlab chiqarish uchun non sexlariga jo'natiladi, non ishlab chiqarish qiymati 1,8 million deb faraz qilsak, u holda un mahsulotidan non ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymat 300 ming so'm (1,8 million-1,5 million=0,3 million yoki 300 ming so'm)ga teng bo'ladi. Demak, non ishlab chiqarishda yaratilgan jami qo'shilgan qiymat 1 million+ 0,5 million+0,3 million=1,8 million so'mga teng bo'ladi.

Mana shu tarzda mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovar va xizmatlarning qiymatlari hisoblanib, ularning yig'indisi olinsa, yaratilgan YAIMning qiymati hosil bo'ladi.

Soliqlar uy xo'jaliklarining mavjud daromadlarini pasaytiradi. Soliqlarda yig'ilgan mablag' iste'molga yo'l topa olmaydi. Ammo agar hukumat soliqni yig'ishga xarajat qilsa, u holda bu miqdor davlat xarajatlari orqali yalpi talabgada o'z o'rmini topadi. Bunday holda, YalMga soliqlar ta'sir qilmaydi. Odamlar shaxsiy buyumlarini (angora sviterlari) yoki jamoat mahsulotlarini (armiya kiyimlari) ishlab chiqarishni va iste'mol qilishni tanlaydimi, iqtisodiyotning hajmi bir xil bo'lib qolaveradi. Tovarlar aralashmasi yalpi ichki mahsulot darajasiga ta'sir qilmaydi, agar ularga sarflangan mablag'larning umumiy miqdori o'zgarmasa.

Hukumat sarflagan summadan ko'ra ko'proq soliq yig'ganda nima bo'ladi?

*Umumiy xarajatlari?* Va shuning uchun YalMning muvozanat darajasi kamayadi. Aytaylik, armiya formasi uchun pul yig'ilgan, ammo sarflanmagan. Bunday holda, forma ishlab chiqarishga hojat yo'q, forma ishlab chiqaradigan fabrikada ishchilar va xodimlarga ish haqi to'lashga hojat yo'q, chunki endi iste'molga sarflanadigan daromadlari kam.

Umuman olganda, hukumat soliqlardan sarflaganidan ko'proq soliq olib kirganda, u mavjud daromadlarni kamaytiradi va

iqtisodiyotning o'sishini sekinlashtiradi. Shunday qilib, haddan tashqari qizib ketgan iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun moliya siyosatining retsepti yuqori soliqlardir.

*Inflyatsiya davrida.* Haddan tashqari talab narxlarini ko'tarib chiqayaptimi? Soliqlarning oshishi va davlat xarajatlarining oshmasligi narxlarining ko'tarilishidagi bosimni susaytiradi. Soliqlarning ko'payishi bir martalik daromadni kamaytirish orqali talabni pasaytiradi. Iste'molchilar talabining qisqarishi davlat talabining oshishi bilan qoplanmagan ekan, umumiy talab kamayadi.

Soliqlarning kamayishi daromadga, talabga va YalMga teskari ta'sir ko'rsatadi. Bu uchalani ham kuchaytiradi, shuning uchun odamlar iqtisodiyot sust bo'lganida soliqlarni kamaytirishga chaqirishadi. Hukumat soliqlarni kamaytirganda, bir martalik daromad ko'payadi. Bu talabning yuqori bo'lishiga (xarajatlarga) va ishlab chiqarishni (YalM) ko'payishiga olib keladi. Demak, sust iqtisodiyot va yuqori ishsizlik uchun moliya siyosatining retsepti past soliqlardir.

Xarajatlar siyosati soliq siyosatining ko'zgidir. Agar hukumat soliqlarni bir xil darajada ushlab turishi, ammo xarajatlarini kamaytirishi kerak bo'lsa, bu soliqni oshirish bilan bir xil ta'sirga ega bo'lar edi, ammo biroz boshqacha kanal orqali. Bir martalik daromadni kamaytirish va iste'molni kamaytirish o'rniga, davlat xarajatlarining kamayishi to'g'ridan to'g'ri talabning pastligi katta iqtisodiyotga o'tadi, daromad va ish bilan bandlikning o'sishini pasaytiradi va inflyatsion bosimni susaytiradi.

#### **4.2. Soliq to'lovchilar daromadlarining turkumlanishi**

Iqtisod fanida daromad tushunchasini aniqlash muammosi ikkita nazariya bilan izohlanadi: *manbalar nazariyasi* (vakili B. Fusting), unga ko'ra daromad sifatida faqat ma'lum manbalardan, ya'ni muntazam ravishda kelib tushadigan daromad turlarini tushuniladi; va *mulk daromadlarining o'sish nazariyasi* (asoschisi-G. V. Schanz—, uning tarafdorlari, daromad manbasi va muntazamligidan qat'i nazar, har qanday mulk o'sishining daromad ekanligini ta'kidlaydilar.

Muammo shundaki, masalan, bepul xizmatlar, tabiiy ish haqi, mol-mulkni sotib olish narxidan past bo'lgan daromad deb hisoblash mumkinmi? Agar bu daromad bo'lsa, unda potensial soliq



to'lovchining soliqni to'lash uchun mablag'ga ega emasligi qanday? Yana bir savol. Kompaniya qimmatli qog'ozlarni sotib oldi. Ulardan ba'zilari uchun foizlar to'lanadi, boshqalari esa qiymatning oshishi hisoblanadi. Birinchi holda, kompaniya moliyaviy resurslarni oladi va ikkinchi daromad qimmatli qog'ozlar sotilgan qadar amalga oshirilishi mumkin emas. Shunday qilib, ikkinchi holatda soliq to'lash uchun mablag' yo'q. Bu yerda daromad bormi? Shunday qilib, har bir shaxsiy masalani alohida hal qilmaslik uchun soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash uchun universal shakl kerak.

Daromad deb qaralishi mumkinmi yoki yo'qmi degan savolga qaytib, shunga ko'ra, bepul xizmatlar, tabiiy ish haqi, jamg'arishga yo'naltirilgan dividendlar va hokazolarni soliqqa tortish kerak, shuni ta'kidlash kerakki, iste'molga tushadigan daromadning bir qismi daromad qopqog'iga va daromadlarning bir qismi — mulkiy. Istisno-jismoniy shaxslarning ish haqidan olinadigan daromadlari, ular teng soliqqa tortish maqsadida, sarf-xarajatlar yo'nalishidan qat'i nazar, jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solinishi kerak.

Amalda, bu qiyin, va ba'zan u tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lov naqd uchun amalga oshiriladi faoliyati, bunday sohalarida daromad haqida to'liq ma'lumot olish uchun ham mumkin emas. Bunday sharoitda davlat soliq va boshqa davlat organlarini tekshirish, shuningdek, mustaqil tashkilotlarni baholash jarayonida statistik tadqiqotlar orqali olingan ma'lumotlar asosida soliq to'lovchiga soliq bazasini hisoblash uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lum miqdorda daromad keltiradi.

Bu daromad bevosita bunday daromad ta'sir omillar majmuini hisobga olgan holda hisoblab soliq to'lovchining mumkin bo'lgan *yalpi daromad*, degan ma'noni anglatadi. Yalpi daromad solig'ini hisoblash uchun uni olish va saqlash bilan bog'liq potensial zarur xarajatlar chiqarib tashlanadi. Bunday soliqlarning misollari qimor soliqlari, yagona soliq-muayyan faoliyat uchun daromad keltiradigan daromaddir.

*Aholidan daromad solig'i shakllari.* Tarixiy jihatdan daromad solig'ining ikki shakli mavjud: global va shedular. Global soliq, uning manbalaridan qat'i nazar, daromad miqdori bo'yicha belgilanadi.

Turli xil daromad toifalari (ish haqi, ko'chmas mulk daromadlari, moliyaviy investitsiyalardan foizlar) shedular soliqlari bilan turli

qoidalar va stavkalariga muvofiq soliqqa tortiladi. Soliq to'lovchining umumiy daromadi soliqqa tortiladigan global tizimdan farqli o'laroq, shedular tizimida daromad qisman bo'linadi - daromad manbaiga qarab. Ushbu tizim 1842-yildan 1873-yilgacha Buyuk Britaniyada ishlatilgan.

1973-yilda umumiy bozorga kirganda, Birlashgan Qirollik soliqlarni birlashtirish doirasida global soliqqa tortish tizimiga o'tdi. Shedular soliq imtiyozlari va chegirmalar berishda o'z ahamiyatini saqlab qolishdi.

Shunday qilib, daromad keltiruvchi aralash-global tizim shakllandi. Turli manbalardan olinadigan daromadlarning bir qismi tegishli chodirlar tomonidan hisoblab chiqiladi va keyinchalik global soliqqa tortish uchun umumlashtiriladi. Shedular soliq tizimining elementlari ba'zi mamlakatlarda -

**Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi**

- |   |  |
|---|--|
| <p>1 Obodidan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar soliq to'lovchining daromadlarining bevosita ob'ektidan aniqlanadi. QQS, YdSE, Aktsiz soliq.</p>    | <p>3 Hisoblik daromadlar solig'i.</p>                |
| <p>2 Daromadli imkoniyat solig'i. Soliq to'lovchi daromad olinadigan to'rtinchi darajada soliq to'lovchining daromad solig'i to'lovchisi bo'ladi.</p> | <p>4 Va imkoniyatning kamida olinadigan solig'i.</p> |

Buyuk Britaniyaning sobiq koloniyalarida (masalan, Sierra Leone) saqlanib qolgan. Bir shaklda uning ta'siri ko'plab rivojlangan mamlakatlarning

daromad solig'i tizimlarida kuzatiladi va turli manbalardan olinadigan daromadni hisoblashning turli usullarida namoyon bo'ladi. Ushbu amaliyot Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Umuman olganda, global daromad solig'i rivojlangan bozor iqtisodiyotiga mos keladi, agar u ortiqcha progressiv shkala bilan birgalikda qo'llanilsa, kam ta'minlangan oilalar uchun imtiyozlar, ikki tomonlama soliqqa tortilishiga yo'l qo'ymaslik qoidalari bo'lsa, ijtimoiy adolat tamoyillariga ko'proq javob beradi. Biroq, global soliqqa tortishning samaradorligining asosiy sharti soliq to'lovchilarning umumiy daromadini aniq aniqlash imkoniyatidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu soliq to'lovchilarning daromadlarini deklaratsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Deklaratsiyaning aniqligi amalda juda kam uchraydigan potensial nazorat bilan ta'minlanadi, ammo ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi va har qanday qonunbuzarliklar aniqlanganda qat'iy choralar ko'riladi. Shu bilan birga, soliq ma'muriyatining kuchli va zamonaviy apparati va soliq to'lovchilar tomonidan hurmat qilish an'analari mavjudligi muhim rol o'ynaydi.

### 4.3. Daromadlarga soliq solish mexanizmi

Soliq amaliyotida soliqlarni undirishning uchta usuli mavjud:

1. Kadastrli.
2. Daromad manbaidan.
3. Daromad egasi daromadni olganidan so'ng (deklaratsiya bo'yicha).

Birinchi usul bevosita real soliqlarni hisoblash uchun foydalaniladigan obyektlar (yer, imoratlar va shu kabilar)ning bahosi va o'rtacha daromadliligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan kadastr yoki reyestrda foydalanilishini taqozo etadi.

Yer kadastrini tuzishda turli tumanlardagi ayni bir xildagi yer uchastkalari sifati, joylashgan joyi, foydalanilishi va boshqa belgilariga ko'ra guruhlanadi.

#### Soliq va to'lovlarni hisoblash usullari.



Har bir guruh uchun maydon birligining qator yillar uchun o'rtacha daromadliligi belgilanadi. Boshqa hamma yer uchastkalari maydon birligidan soliq stavkasi belgilangan u yoki boshqa toifaga tenglashtiriladi.

Soliqni to'lashning kadastrli usulining o'ziga xos xususiyati sifatida shuni ajratib ko'rsatish kerakki, soliqning to'lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog'liq bo'lmaydi, chunki bunday usulda mol-mulk uning taxmin qilinadigan daromadliligining

tashqi belgilari asosida baholanadi. Kadastrli usulda shaharlar va shahar qo'rg'onlarida yer solig'i stavkalarini ishlab chiqishga ular hududini shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholash qiymati bo'yicha kompleks tarzda baholash asos qilib olingan.

Obyektning ana shunday belgilarga asoslanadigan o'rtacha daromadlilik uning haqiqiy daromadligidan jiddiy farqlanishi mumkin, shuning uchun bunday usul ko'p jihatdan tarixiylik tusiga ega bo'lishi mumkinki, undan soliq tizimi uncha rivojlanmagan holatda qo'llaniladi.


O'zbekiston Respublikasida yer solig'i kadastrli usulda undiriladi. Bunda yerlarning unumdorligi (boniteti) hisobga olingan holdagi yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida har yili yangidan tasdiqlanadi.

Ikkinchi usulda soliqni soliq subyektiga daromadni to'laydigan yuridik shaxs hisoblaydi va ushlab qoladi. Ishchining ish haqidan, xizmatchining maoshidan daromad solig'i shu tariqa undiriladi. Soliq korxonada xodimning daromadni olguniga qadar ushlab qolinadi, bu soliqni to'lashdan bo'yin tovlashni istisno qiladi, chunki buxgalteriya soliq solinadigan daromadni va soliq summasini aniq hisob-kitob qilib chiqadi. Bunday munosabatlarda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar ko'pincha fiskal agent yoki soliq agenti sifatida qaraladi.

Soliqning daromad manbayida to'lanishi shuni anglatadiki, soliq uni deklaratsiyalar bo'yicha to'lashdagi singari soliq idorasi tomonidan hisoblanib ushlab qolinmaydi, balki uni yuridik va jismoniy shaxs foydasiga to'lovni amalga oshiradigan fiskal agentlar to'lov manbalari (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, boshqa ish beruvchilar)da hisoblaydilar va ushlab qoladilar.


Uchinchi usul soliq to'lovchilarning soliq idoralariga deklaratsiyalarni, ya'ni ularning olgan daromatlari va o'zlariga

**Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:**



tegishli bo'lgan soliq imtiyozlari haqidagi rasmiy bayonotni berishni nazarda tutadi. Soliq idoralari soliq deklaratsiyasi va amaldagi soliqqa tortish stavkalari asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini nazorat qiladilar. Soliq deklaratsiyasi asosida, odatda, tadbirkorlik faoliyatidan, dehqon (fermer) xo'jaligini yuritishdan olinadigan daromadlar, shuningdek, intellektual faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar (fan, adabiyot, san'at asarlarining mualliflari, kashfiyotlar, ixtirolar mualliflari, sanoat namunalari yaratuvchilari va hokazo) daromadlari soliqqa tortiladi.

*O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha soliqqa tortish tartibi quyidagicha:*



O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb

qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Xuddi shunday vaziyat xorijiy yuridik shaxslarni soliqqa tortishda ham yuzaga keladi. Shunday qilib, O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxs, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan, bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan yuridik shaxslarga O'zbekiston hududidagi manbalardan olgan daromadlari (foydalari) bo'yicha soliq solinadi.

Chet ellik jismoniy va yuridik shaxslardan soliqlar va yig'implarni undirish o'zaro kelishuv asosida to'xtatilishi yoki cheklanishi mumkin, bosharti tegishli chet davlatda ham O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga nisbatan xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasidagi chet ellik investorlarning xorijiy sarmoyalari va boshqa aktivlari "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan himoya qilinadi va milliyashtirilmaydi.

#### **4.4. Laffer egri chizig'i va uning elastikligi**

Jahon iqtisodiy taraqqiyotida o'zining muayyan o'rniga ega bo'lgan taklif iqtisodiyoti nazariyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi soliqlarni kamaytirish va korporatsiyalarga soliq imtiyozlarini berishni nazarda tutadi. Ushbu nazariyaga ko'ra yuqori soliq stavkalari tadbirkorlik qiziqishini kamaytiradi va investitsiya siyosati, ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishni cheklab qo'yadi. Bu nazariyaning asosiy g'oyalardan biri davlat xarajatlarini kamaytirishdir. Ularning shiorlaridan biri tartiblovchi kuch – bu bozorning o'zidir, davlat boshqaruvi va yuqori soliqlar faqatgina uni normal amal qilishiga xalaqit beradi.

Soliq stavkalari shkalalarini shakllanish darajasi bo'yicha umumiy qonun bor. Keng soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan kamroq soliqqa tortish stavkasini qo'llash, yetarli darajada kam bo'lgan soliq bazasiga nisbatan esa, buning teskarisi, alohida soliq turlarini yuqori stavkada qo'llash kerak. Ko'rinib turibdiki, yuqori va past soliq stavkalari xo'jalik faoliyatiga va tadbirkorlarni ish faolligiga har xil ta'sir ko'rsatadi.


A.Smitning fikricha, soliq yukini kamaytirilishi natijasida davlat ko'proq yutadi, ya'ni soliqdan ozod bo'lgan summadan ortiqcha daromad olish mumkin va natijada olingan daromad soliqqa tortish uchun qo'shimcha soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Shu bilan birga soliq to'lovchilar soliq summasini o'z xohishlari va yengillik bilan budjetga o'tkazib berishadi. Bu esa davlatni ortiqcha xarajatlardan, ya'ni soliqlarni undirish, soliq bo'yicha jinoyatlarni topish va unga nisbatan

jazolarni qo'llash xarajatlarini kamaytiradi. A.Smitning bu g'oyalari uning davomchilariga emas, balki keyingi iqtisodchi olimlar uchun aksioma bo'lib qoldi.

1980-yillarda AQSHda iqtisodiy taklif nazariyasi rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar M.Bernson, G.Stayn va A.Lafferlardir. Bu olimlar soliq stavkalarini pasaytirish orqali soliqni progressivligini kamaytirishga erishish, bu esa korxonalarni kelajakda investitsiya qilishlari uchun jamg'arma manbalari ko'payishiga olib keladi deb hisoblashgan.

Neoklassik nazariyaning zamonaviy vakillari ingliz iqtisodchisi A.Laffer o'zining ilmiy izlanishlarida soliq stavkalarini pasaytirish va soliqa tortishning progressivligini kamaytirish orqali Keyns nazariyasidan farqli o'laroq davlat tomonidan investitsiyalarni ko'paytirishni emas, balki korxonalarga investitsiya uchun o'z jamg'armalarini ko'paytirish imkonini berish lozim, degan fikrni ilgari suradi. Uning ilmiy tahlillari tasdiqlaydiki, soliqa tortishning shunday optimal chegarasi mavjud bo'lib, soliq stavkasi undan yuqoriga qancha ko'tarilmasin, soliq tushumlarini ko'paytirishga erishib bo'lmaydi. Soliq yukining ortib borishi soliq bazasining kamayishiga olib keladi. Uning natijasida esa, tadbirkorlar korxonalarni yopib qo'yadilar, yoki soliq bazasini yashirishga urinadi va shu tariqa yashirin iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi. Bu holatni Laffer tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan quyidagi egri chiziq asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.

A.Laffer progressiv soliq stavkasi va budget daromadlarini parabola ko'rinishidagi egri chiziq bilan ifodaladi va u quyidagi fikrga keldi: soliq stavkasini pastligi xususiy sektorning investitsiya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab iqtisodchilar soliq to'lovchilarning daromadini budgetga olishning chegarasi borligi va soliq og'irligini ko'paytirib yubormaslik haqida yozib o'tganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishni o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va budget xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatadi.



BD – budjet daromadlari;  $D_{maks}$  – maksimal budjet daromadlari;  
 $S_1 N$  – soliq stavkasi;  $S_1 N_{maks}$  – maksimal soliq stavkasi.

A.Laffer progressiv soliq stavkasi va budjet daromadlarini parabola ko'rinishidagi egri chiziq bilan ifodaladi va u quyidagi fikrga keldi: soliq stavkasini pastligi xususiy sektorning investitsiya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab iqtisodchilar soliq to'lovchilarning daromadini budjetga olishning chegarasi borligi va soliq og'irligini ko'paytirib yubormaslik haqida yozib o'tganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishni o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va budjet xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatadi.

A.Lafferning hisobiga ko'ra soliqlarni kamaytirish natijasida iqtisodiyotning o'sishi va davlat daromadlarining o'sishini isbotlab bergan. Bu tarixda Laffer egri chizig'i deb ataladi. Soliq stavkasi ma'lum darajaga yetishi soliq tushumlarini ko'paytiradi, uning yanada oshirilishi aksincha soliq tushumlarini kamaytiradi.

Iqtisodiyot subyektlarining soliq stavkasi dinamikasiga ta'siri bir ondayoq sezilmaydi, balki ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng seziladi. Laffer egri chizig'i davlat daromadlarining o'sishi soliq stavkalarining kamayishiga obyektiv bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bu egri chiziqda yotuvchi fundamental g'oya shundaki, soliq stavkasining chegarasi qancha yuqori bo'lsa, individlarni soliqni to'lashdan chetlashlari shuncha ko'p bo'ladi. Chunki odamlar soliq to'lash uchun ishlamaydilar. Sof foyda, ya'ni daromatlardan soliqlarni ayirib tashlagan summa individlarni ishlamayaptimi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Agar tadbirkor o'zining ishlab chiqarish faoliyatidan



daromad olish kelajagiga ishonmasa, ya'ni uni daromadlari yuqori progressiv stavkali soliqlar bilan olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkor bozorda normal faoliyat ko'rsatmay qo'yadi. Daromadning ko'p qismi soliqlar orqali tortib olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkorni ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangilashga va yangi ishlab chiqarishga investitsiya qilishga qiziqishi yo'qoladi.

Soliq stavkasining o'sishi faqatgina ma'lum darajaga yetgunicha budjetga tushadigan daromadlarni o'sishiga olib keladi, keyin bu o'sish sekinlashadi va yana oshgan sari budjet daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib soliq stavkasi ma'lum darajaga etganidan tadbirkorlik initsiativasi o'ladi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to'lovchilarning bir qismi iqtisodiyotni "qonuniy" sektordan "yashirin" sektoriga o'tadi. Laffer nazariyasiga ko'ra iqtisodiyotning rivojlanishi soliq yukini oshishiga to'g'ri proporsionaldir, ya'ni soliqlar oshishi bilan yashirin iqtisodiyot ko'payadi, natijada olingan daromadlarning ko'p qismi deklaratsiyada ko'rsatilmaydi. Bunga aksincha, soliqlarni kamaytirilishi iqtisodiyotni rivojlantirishga rag'bat beradi. Bu esa davlat daromadlarini soliq stavkasi va yukini ko'payishi hisobiga emas, balki soliqqa tortiladigan bazani ko'payishi hisobiga oshadi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasi deganda nimani tushunasiz?
2. Soliq yuki deganda nimani tushunasiz?
3. Soliq yukini ifodalovchi ko'rsatkichlarga qanday ko'rsatkichlar kiradi?
4. Soliq yukini qanday ko'rinishlarda ifodalash mumkin?
5. Laffer egri chizig'i mohiyatini tushuntirib bering.
6. Soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri deganda nimalarni tushunasiz?
7. Soliqlar va investitsiyalarning bog'liqligini izohlab bering.

### **TESTLAR**

1. Soliqlarni undirish qaysi organlar vakolatiga kiradi
- A. Soliq xizmati organlari, bojxona xizmati organlari

- B. Moliya vazirligi, soliq qo'mitasi, bojxona qo'mitasi
- C. Sud va prokuratura organlari
- D. Soliq xizmati organlari, ichki ishlar organlari

2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i iqtisodiy mohiyatiga ko'ra....

- A. To'g'ri soliq
- B. Egri soliq
- C. Mahalliy soliq
- D. Resurs solig'i

3. Soliqlarni undirish usullari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- A. Kadastrli, deklaratsiya, mol-mulk sifatida
- B. To'lov manbayida, daromad olingandan so'ng soliq undirish, erlardan foydalanganda soliq undirish
- C. Deklaratsiya, kadastrli, to'lov manbaida soliq undirish
- D. Faqat naqd va naqdsiz ko'rinishda

4. Soliqlarning qat'iy stavkalari (o'tkazish uslubiga qarab) nimani bildiradi?

- A. Daromad miqdoridan qat'i nazar absolyut (so'm va tiyin) summada belgilanganligini bildiradi
- B. Majburiy tartibda belgilashni bildiradi
- C. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanganligini bildiradi
- D. Qonunshilik asosida belgilashni bildiradi

5. Soliqqa tortishning kadastrli usulining o'ziga xos xususiyati nimada?

- A. Soliqning to'lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog'liq bo'lmaydi
- B. Soliqqa tortish obyektining kam yoki ko'pligiga bog'liq bo'ladi
- C. Soliq stavkalarining pastligida
- D. Soliq imtiyozlarining nisbatan ko'pligida

6. Soliq manbאי korxonalarda nima?

- A. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan yalpi tushum
- B. Soliq to'lanadigan daromad.
- C. To'lash tegishli bo'lgan daromad miqdori.
- D. Tovarlar sotish oboroti.

7. Soliq stavkasi nimani ifodalaydi?

- A. Soliq solinadigan bazaga nisbatan hisoblanadigan miqdorni

- B. Soliq bazasi (obyekti) ning bir qismini budjetga olishni
  - C. Soliq imtiyozlari bo'yicha chegirmalarni
  - D. Bir xil tartibda soliq undirishni
8. Qaysi qatorda soliq to'lash shakllari to'g'ri keltirilgan?
- A. Naqd pul yoki naqd pulsiz
  - B. So'mda va chet el valutasida
  - C. Bo'nak va to'liq
  - D. Pulli

## **5-BOB. BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ SOLISH**

**5.1. Biznes subyektlari faoliyatining iqtisodiy-huquqiy asoslari.**

**5.2. Biznes subyektlari faoliyatini soliqqa tortish mezonlari.**

**5.3. Biznes subyektlari faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish tizimi.**

**Bobning qisqacha mazmuni:** Mazkur bobda O'zbekiston Respublikasida biznes subyektlari uchun yaratilgan muhit hamda ular to'laydigan soliqlar to'g'risida ma'lumot berilgan. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq rejimlari va soliq solish mezonlari ham batafsil yoritib berilgan.

### **5.1. Biznes subyektlari faoliyatining iqtisodiy-huquqiy asoslari**

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri biznes, ya'ni tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir.


Darhaqiqat, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonda mustaqillik yillarida xususiy mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlayotgan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi, davlat xizmatlari ko'rsatishning to'g'ridan to'g'ri muloqotsiz zamonaviy interaktiv shakllari joriy etilmoqda, davlat bilan ishbilarmonlar o'rtasida tizimli muloqot yo'lga qo'yildi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rta sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishning eng muhim omili sifatida kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Shu bilan birga, taraqqiyotning hozirgi bosqichida biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalarida shakllangan yondashuvlarni qaytadan ko'rib chiqish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishning yangi tizimi yaratilishini taqozo etmoqda.

Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada faol jalb etish va xususiy biznesini boshlashga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barcha bosqichlarida yuzaga kelayotgan muammolarni ortiqcha sarsongarchiliklarsiz va qog'ozbozliksiz tezkor hal etishga xizmat qiladigan bozor infratuzilmasining barqaror ishlashi va yanada rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi amaliy mexanizmning samarali tizimini yaratish zarur.

Shu o'rinda, maqomi, faoliyat yo'nalishi va ko'lami, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha tadbirkorlik subyektlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilot hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining vazifalari, faoliyat yo'nalishlari va vakolatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, biznes hamjamiyati va davlat organlari o'rtasida samarali muloqot va sog'lom sherikchilik



mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish,

tadbirkorlar bilan biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo'yicha dolzarb axborot almashinuvining doimiy kanalini, avvalo viloyatlar, shaharlar va tumanlarda joriy etish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijalariga erishish, o'zining biznesini tashkil etish va yuritishda

aholiga har tomonlama ko'mak berish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqazo etadi:

a) tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish sohasida – tadbirkorlik subyektlarini, ayniqsa o'z faoliyatini yo'lga qo'yish davrida ularni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli muhofazasining kafolatlarini kuchaytirish, jadal rivojlanishiga har tomonlama ko'mak berish, xususiy mulk va tadbirkorlikning ustuvorlik roli va daxlsizligini ta'minlash, respublikamiz tumanlari va shaharlarida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish;

– tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligining, avvalo mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijro etilishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshirishning amaliy mexanizmini joriy etish;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari va xodimlariga nisbatan shikoyat arizalari bergan tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qilish;

b) ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash sohasida – tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarini ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyati sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliyotga joriy etilishi ustidan jamoat ekspertizasini tashkil etish va jamoat nazoratini kuchaytirishga keng jalb qilish, jumladan:

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, qulay ishbilarmonlik muhiti va investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha davlat dasturlari, shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

tadbirkorlik subyektlarini ishbilarmonlik muhiti holatini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga keng jalb qilish, tadbirkorlik tuzilmalari bilan birgalikda me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik ekspertizasini, jumladan, sanoat, transport, qurilish, moliya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, savdo va xizmatlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalar bo'yicha ekspert kengashlarini tashkil etish orqali tashkil etish;

d) tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish sohasida – tadbirkorlik subyektlariga biznesni tashkil etish, yuritish va yanada rivojlantirishda amaliy yordam ko'rsatish, davlat organlari va bozor infratuzilmasi subyektlari xizmatlaridan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar va sharoitlar yaratish, maslahat yordami va axborot ta'minotini taqdim etishda quyidagilar orqali ko'maklashish:

– yangidan faoliyat boshlayotgan tadbirkorlarni joylashtirish uchun biznes-inkubatorlar faoliyatini yaratish va tashkil etish hamda ularga biznes-rejalarni tayyorlash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotlarni olish va amaliy masalalarni hal etishda ekspert, huquqiy va maslahat yordami ko'rsatish;

– tadbirkorlarning investitsiya va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotlarni olishiga yordam berish;

– tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda, ular faoliyati bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilganida tadbirkorlik subyektlariga huquqiy va yuridik yordam ko'rsatish;

– moliyaviy va tovar-xomashyo resurslari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, texnologik mashinalar va qurilmalar, ishlab chiqarish obyektlari, shuningdek, yer maydonlaridan foydalanishda amaliy yordam ko'rsatish;

– innovatsiya tadbirkorligini joriy etishga, "startup" loyihalar, yoshlarning, avvalo oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining o'z biznesini tashkil qilish va yuritishga, shuningdek, aholi bandligi va daromadlarining jadal o'sishini ta'minlashga xizmat qiladigan kichik, xususiy va oilaviy tadbirkorlik, kasanachilikning turli shakllarini jadal rivojlantirishga faol ko'maklashish.

e) davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik sohasida – davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari – qonunchilik, sud va ijro etuvchi hokimiyatlar, shuningdek, bank-moliya tashkilotlari va bozor infratuzilmasining boshqa subyektlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlashni moslanuvchanligi va natijadorligiga xizmat qiladigan samarali o'zaro hamkorlik tizimini va yangi ish shakllarini joriy etish, jumladan:

tadbirkorlik subyektlari bilan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, joylardagi barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etishga ko'maklashish, "to'g'ridan to'g'ri va qayta aloqa" tamoyili bo'yicha o'zaro hamkorlikning amaliy va samarali mexanizmini yaratish;

tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini qabul qilish va qayta ishlash, vakolatli organlarga ko'rib chiqish uchun taqdim etish, shuningdek, ularning ijro etilishi ustidan monitoring olib borish va tahlil qilish;

viloyatlar markazlari, tumanlar va shaharlarda Tadbirkorlikka ko'maklashish markazlari faoliyatini tashkil etish, ularning vakolatli davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, davlat xizmatlari taqdim etuvchi xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash.

f) tadbirkorlik subyektlarini o'qitish va kadrlar tayyorlash sohasida – tadbirkorlik tuzilmalari uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi sifatini tubdan oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, har bir tuman va shaharlarda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash doimiy kurslarini quyidagi usullar orqali tashkil etish:

O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan Respublika tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish markazi va uning hududiy filiallari bilan, jumladan, kasb-hunar kollejlari negizida mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarida, o'zaro hamkorlikni tashkil etish;

markaz faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari, xorijiy donorlar va chet davlatlarning tadbirkorlarni o'qitish bo'yicha muqobil markazlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish;

tadbirkorlarga biznes yuritish asoslari, biznes-rejalar tuzish, tadbirkorlik faoliyati sohasida qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, menejment, moliyaviy boshqaruv va boshqa zarur fanlarga o'qitishni tashkil etish bo'yicha tadbirkorlik subyektlari uchun o'quv kurslarini ishlab chiqish va o'tkazish;

tadbirkorlarga xodimlarni tanlash va o'qitishda, ularning kasb malakasini doimiy oshirishda ko'maklashish, hududlar va tadbirkorlik



sohalarida malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashga davlat buyurtmalarini shakllantirishda ishtirok etish;

ta'limni tashkil etish uchun oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlarning o'qituvchilari, amaliyotchi-mutaxassislar, yuqori natijalarga erishgan tadbirkorlar va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.

g) tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalarni jalb qilish sohasida – respublikamiz tadbirkorlik subyektlarining xalqaro ishbilarmonlik hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, mahalliy korxonalar mahsulotlarining tashqi bozorlarga chiqarilishini ta'minlash, milliy brendlarni xorijda faol ilgari surish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, jumladan:

biznes-forumlar, ko'rgazmalar va yarmarkalarni tashkil etish va ularda mahalliy tadbirkorlik subyektlarining keng ishtirokini ta'minlash;

tadbirkorlik subyektlariga ishonchli hamkorlar, yangi bozorlarni izlash va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish, eksport turlarini kengaytirish va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilishda yordam ko'rsatish;

tashkil etilgan kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarda ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga oid loyihalarni amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari, jumladan xorijiy investorlarga har tomonlama yordam ko'rsatish sohaning iqtisodiy rivojiga hissa qo'shadi.

Taniqli olimlarning olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorning o'z faoliyati sohasida olib boradigan ishlari ko'p qirralidir. Bu bozor siyosatining o'zgarishi bilan yoki korxonaning ichki va tashqi omillari ta'sirida aniqlanadi. Lekin tadbirkorning asosiy maqsadi manfaat (foyda) ko'rish bilan bir qatorda, bozorda samarali faoliyat yuritishni ta'minlaydigan ishlarni amalga oshirishdir. Buning uchun tadbirkorlikni boshqarish va unga ko'mak beruvchi zamonaviy menejment usullariga asoslangan mexanizmni yaratish va undan unumli foydalanishni ta'minlash zarurdir.

Biznesning yana bir muhim xususiyati ishlab chiqarish jarayonida yangi g'oyalarning amalga oshirilishi bozor tomonidan qanday qabul qilinishini oldindan ko'ra bilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, yangilikni bozorda tatbiq etish va iste'molchining javobini bitta jarayonga birlashtira olish tadbirkor muvaffaqiyatining garovidir.

Biznesning muhim xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- xo'jalik faoliyati olib borayotgan subyektlarning mustaqilligi va erkinligi. Huquqiy me'yorlar chegarasida har bir tadbirkor u yoki bu masala yuzasidan mustaqil qaror qabul qilishi mumkin.

- iqtisodiy manfaatlilik. Tadbirkorlikning asosiy maqsadi maksimal darajada daromad olishni ko'zlab, jamiyat taraqqiyotiga ham o'z hissasini qo'shishdir.

- xo'jalik tavakkalchiligi va mas'uliyat. Har qanday hisob-kitobda ham noaniqlik va tavakkalchilik bo'lishi mumkin.

Biznesni shakllantirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa muayyan sharoitlar yaratilishi kerak. Iqtisodiy sharoitlarga quyidagilar kiradi: tovarga bo'lgan taklif va talab; xaridor sotib olishi uchun tovar turlarining mavjudligi; haridor sotib olishi uchun kerak bo'lgan pul hajmining mavjudligi; ishchilarning maoshiga, ya'ni sotib olish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi joylarining, ishchi kuchlarining ortiqchaligi yoki etishmovchiligi.

## **5.2. Biznes subyektlari faoliyatini soliqqa tortish mezonlari**

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi<sup>8</sup>.

Yuridik shaxslar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni, oilaviy korhonalarni biz biznes subyektlari deb atashimiz joiz bo'ladi. Qolaversa, Soliq Kodeksida nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari ham soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi. Umuman olganda, mazkur biznes subyektlari O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar va yig'implarni faoliyatlarini doirasida to'laydilar:

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 20-moddasi. 30.12.2020. Lex.uz

- 1) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 2) aksiz solig'i;
- 3) foyda solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.

O'zbekiston Respublikasi hududida yig'imlar belgilanishi mumkin. Yig'imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to'lash tartibi ushbu Kodeksda hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi.

Avtotransport yig'imini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi ushbu Kodeks bilan tartibga solinadi.

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun ham O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilangan:

- 1) aylanmadan olinadigan soliq;
- 2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;
- 3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog'liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutishi mumkin.

Soliq qonunchiligiga muvofiq biznes subyektlarini yillik aylanma miqdori ularning qaysi soliqlarni to'lashlarini va qaysi rejimda faoliyat yuritishlarini belgilaydi. Quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz.

Realizatsiya tushumlari miqdori bo'yicha soliqqa tortish mezonlari<sup>9</sup>

T/r	Realizatsiya tushumlari miqdori	Soliq turi	Soliq stavkasi	Soliqlarni to'lash tartibi
1.	100 mln. so'mgacha	Daromad solig'i	12 % yoki qat'iy miqdordagi summada	Soliqlarni yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya asosida yoki qat'iy belgilangan miqdordagi summada to'lashni tanlashi mumkin.
2.	100 mln. so'mdan 1 mlrd. so'mgacha	Aylanmadan soliq yoki QQS va Foyda solig'i	4 % yoki 15 %	100 mln. so'mdan oshgan summadan aylanmadan soliqni to'lashga o'tadi yoki QQS va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy o'tishi mumkin
3.	1 mlrd. so'mdan ortiq	QQS va Foyda solig'i	15 %	QQS va foyda solig'ini to'lashga o'tadi yoki foyda solig'ini soddalashtirilgan tartibda to'lashni

<sup>9</sup> <https://www.soliq.uz/page/yokka-tartibdagi-tadbirkorlarga-soliq-solish?lang=en>

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni quyidagi tartibda to'laydi:

I. Kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi **100 mln. so'mdan oshmaydigan** yakka tartibdagi tadbirkorlar daromad solig'ini ikki xil usulda:

1) har oyda **qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni** to'lashi;

2) tadbirkorlik faoliyatidan olingan haqiqiy daromadi bo'yicha ushbu daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlar summasini chegirib tashlagan holda doimiy yashash joyidagi davlat soliq inspeksiyasiga deklaratsiya topshirish yo'li bilan **daromad solig'ini** to'lashi mumkin.

II. Kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi **100 mln. so'mdan oshgan biroq 1 mlrd. so'mdan oshmaydigan** yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan **soliqni** (avvalgi yagona soliq to'lovi) to'lashga o'tkaziladi.

Bunday tadbirkorlar ham **ikki xil usulda** soliqlarni to'lashni tanlashi mumkin:

– kalendar yilida realizatsiya tushumi 100 mln. so'mdan oshganda, oshgan summadan **aylanmadan olinadigan soliqni** to'lashi;

– kalendar yilida realizatsiya tushumi 100 mln. so'mdan oshganda, aylanmadan olinadigan soliqni to'lash o'rniga ixtiyoriy tarzda **qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini** to'lashni tanlashi mumkin.

III. Kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 1 mlrd. so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar **qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini** yuridik shaxslar uchun belgilangan tartibda to'lashga o'tadi.

Shuningdek, soliqlarni yuridik shaxslar uchun belgilangan tartibda to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga foyda solig'ini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlashga huquqi berildi.

Bunda, foyda solig'ining soddalashtirilgan tartibdagi soliq bazasi jami daromadning 25 foizi miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig'ini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlaganda soliqni hisoblab chiqarish maqsadida xarajatlar hisobini yuritish majburiyatlaridan ozod qilinadi.

Soliq davrida yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda soliq solinadigan daromadlarning va chegiriladigan xarajatlarning hisobini yuritishi shart.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida soliq solinadigan daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishi shart.

Quyidagilar soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlaridir:

1) chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning soliq solinadigan daromadlarini va tovar operatsiyalarini hisobga olish kitobi;

2) tovar cheklari kitobi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida yakka tartibdagi tadbirkor soliq hisobida turgan joydagi soliq organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorda oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida saqlanadi hamda ularga raqamlar qo'yilgan, ip o'tkazib bog'langan va tegishli soliq organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

**Soliq solish obyektini va soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari.** Soliq solish obyekti va soliq bazasi ushbu moddada nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda, aniqlanadi.

Jami daromad yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan daromadlardan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxs o'zining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni tuzishda, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o'zidan aniq



o'tish to'g'risidagi bildirishnomani soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga yuborganda;

3) qolganlari — joriy yilning 25-yanvaridan kechiktirmay.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash quyidagi muddatlarda boshlanadi:

1) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlangan paytdan;

2) yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig'ini to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirishnomani va soliq bazasini soddalashtirilgan tartibda hisoblab chiqarish haqidagi arizani soliq organiga taqdim etgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab;

3) joriy yilning 1-yanvaridan boshlab.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy ravishda voz kechish va soliq bazasini hisoblab chiqarishning ushbu Soliq Kodeksining 360-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan umumiy tartibiga o'tish kelgusi soliq davri boshlanganidan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning umumiy tartibiga o'tish to'g'risidagi bildirishnoma O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda soliq davri boshlanishidan kamida bir oy oldin soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

**Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar.** Soliq solishda quyidagilar hisobga olinmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorning unga mulk huquqi asosida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yuvchi boshqa ashyoviy huquq tufayli tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni sotishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinishi lozim bo'lgan daromadlari;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hamda yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig'ini to'lashga o'tguniga qadar aylanmadan soliqni to'lash davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

**Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi.** Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliq summasi yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.



Hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq summasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizli ulushi sifatida soliq davri boshlanishidan e'tiboran oshib boruvchi yakun tarzida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan har bir hisobot va soliq davri o'tganidan keyin, soliq solinadigan obyektlar mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq hisoboti yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot choragidan keyingi



oyning yigirmanchi kundan

kechiktirmay;

soliq davri yakunlari bo'yicha — o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay.

**Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash**

**Soliq to'lovchilar.** Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (bundan buyon ushbu bo'limda yuridik shaxslar deb yuritiladi);

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

2) aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

3) yuridik shaxslar — qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda ellik gektar va undan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni mavjud bo'lsa;

4) benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5) lotoreyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o'z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga — oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha;

7) bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo'yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta'mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga.

9) alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shoxobchalariga;

10) bozorlarga va savdo komplekslariga.

*Aylanmadan olinadigan soliqliq qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.* Soliqliq Kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) to'lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Soliqliq Kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqliqni to'lashga o'tish uchun soliq

to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Soliq Kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshganda, agar ushbu moddaning to'rtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tadi.

Soliq Kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida ko'rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to'lash o'rniga qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so'mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi.

Bildirishnoma ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan muddatlarda taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to'laydi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to'lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashni ushbu Kodeksning 237-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun va bir vaqtning o'zida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasi boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan soliq to'lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo'yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami

daromadlari bir milliard soʻmdan oshmagan boʻlsa, aylanmadan olinadigan soliqni toʻlashga kamida oʻn ikki oydan keyin qayta oʻtishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard soʻmdan oshgan soliq toʻlovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi roʻyxatdan oʻtgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish roʻy bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qoʻshilgan qiymat soligʻi va foyda soligʻini toʻlashga oʻtadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi roʻyxatdan oʻtgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi roʻyxatdan oʻtilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga boʻlingan va roʻyxatdan oʻtilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar boʻlgan kunlar soniga koʻpaytirilganda bir milliard soʻmga teng summadan ohsa, u holda bunday shaxslar roʻyxatdan oʻtilgan yildan keyingi yildan eʼtiboran qoʻshilgan qiymat soligʻi va foyda soligʻini toʻlashga oʻtadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari koʻrsatishga oid boshqa shartnomalar boʻyicha vositachilik xizmatlari koʻrsatuvchi soliq toʻlovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini koʻrsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish boʻyicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Boʻsh turgan binolar, yashash uchun moʻljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori boʻlgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi boʻyicha xulosa kiritilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qoʻshilgan qiymat soligʻini va foyda soligʻini toʻlashga oʻtadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari boʻlgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi toʻgʻrisida xulosa berishga vakolati boʻlgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan

oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan obyektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta'mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma rasmiylashtirilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Soliqni to'lash soliq to'lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

ushbu Kodeks bilan uning zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;

agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hisobvara-q-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

**Soliq solish obyekti.** Soliq Kodeksining 43-bobiga muvofiq aniqlanadigan jami daromad soliq solish obyektidir, bundan ushbu Kodeksning 304-moddasiga muvofiq, ushbu moddada nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish chog'ida inobatga olinmaydigan daromadlar mustasno.

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik

xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun — agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

notijorat tashkilotlarining Soliq Kodeksi 318-moddasining birinchi qismida ko'rsatilmagan daromadlari.

Soliq solish obyekti bo'lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

d) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to'lash hisobidan yoki dividend to'lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

4) ko'p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo'lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa, berish.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vauchyerlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha daromadlar ushbu Kodeksning 303-moddasida nazarda tutilgan tartibda jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekt deb e'tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to'lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yoxud qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lash davrida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tguniga qadar olingan daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

**Soliq bazasi.** Soliq Kodeksining 463-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo'yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo'lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko'p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo'lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo'shimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromatlarga ular shakllangan davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazilganligi inobatga olingan holda soliq solinadi;

6) tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar umumiy daromadning 15 foizidan ko'prog'ini tashkil etsa.

Soliq solinadigan baza ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati subyektlari uchun — turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga.

*Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari.* Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasi bo'lib Soliq Kodeks 463-moddasiga muvofiq hisoblab chiqilgan, uning tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan jami daromadi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs o'z tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni tuzishda o'zining yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko'rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o'zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko'rsatishi shart.

Soliq solishda yakka tartibdagi tadbirkorning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingan daromadlari hisobga olinmaydi.

### **5.3. Biznes subyektlari faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish tizimi**

Ma'lumki, soliqlar budjetning daromad qismiga tushadigan tushumlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini yanada kamaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni rag'batlantirish, fuqarolarning daromadlarini oshirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va takomillashtirishga qaratilmoqda. Yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yaratilayotgan keng imkoniyatlar tufayli ularning faoliyat turi va



ko'lamini tobora ortib, aholi bandligini ta'minlovchi muhim sohaga aylanmoqda.

Ma'lumki, soliqlar budjetning daromad qismiga tushadigan tushumlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini yanada kamaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni rag'batlantirish, fuqarolarning daromadlarini oshirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va takomillashtirishga qaratilmoqda. Yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yaratilayotgan keng imkoniyatlar tufayli ularning faoliyat turi va ko'lamini tobora ortib, aholi bandligini ta'minlovchi muhim sohaga aylanmoqda.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini yanada rag'batlantirish maqsadida keng ko'lamli institutsional va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, respublikamiz tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlardagi ishtiroki va eksport faoliyatini yanada kengaytirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ma'lumki, hozirda tashqi bozorlarda keskin raqobat va davom etayotgan iqtisodiy inqiroz sharoitida emin-erkin eksport faoliyatini yuritish, yangi bozorlarga kirib borish murakkab masala. Ushbu vaziyatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining egiluvchanligi, qiyin sharoitlarga tezda moslasha olishi bilan eksport faoliyatining dinamikasini ta'minlaydi.

Shuni inobatga olgan holda, davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatini rivojlantirish uchun ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan.

Biznes subyektlari eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor konyunkturasi o'zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni ta'minlash maqsadida

Tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jam'armasini tashkil etilgan.

Ushbu Fond tomonidan 2 162 ta tadbirkorlik subyektlariga o'z tovar va xizmatlarini eksport qilishda huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatilgan, jumladan 1 767 ta tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarni o'rganishda, 127 ta tadbirkorlik subyektlariga xorijiy hamkor topishda, 135 ta tadbirkorlik subyektlariga xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, xalqaro sertifikatlar olish va bojxona rasmiylashtiruv amalga oshirishda ko'mak berilgan. Buning natijasida joriy yilning to'qqiz oyi yakunlari bo'yicha 395 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 093 mln. dollarlik eksport amalga oshirilgan.

Tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida esa Fond tomonidan umumiy qiymati 5 219 mln. so'm, shundan 4 030 mln. so'm miqdorida foizsiz moliyaviy qarzga moliyaviy ko'mak ajratilgan.

Bundan tashqari, yaratilayotgan imkoniyatlar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligining oshishiga zamin bo'lib, xususiy tadbirkorlar eksportining mamlakatimiz umumiy eksportidagi ulushi oxirgi 15 yilda 3 marotaba oshgan va bugungi kunda 27 foizga yetgan. Keyingi 5 yilda esa, eksport faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar soni 1,5 barobar, kichik biznes subyektlari soni 1,6 barobarga oshgan.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining eksportga qaratilgan faoliyatini rag'batlantirish uchun bir qator soliq, bojxona imtiyozlari, boshqa preferensiyalar yaratishni taqozo etadi.

Yaratilayotgan bunday imkoniyatlar shubhasiz iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishga, uning tayanchi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada rivojlanishiga, ularning qulay ishlab chiqarish muhitida faoliyat olib borishiga va pirovardida eksportni yanada rag'batlantirishga xizmat qiladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Yuridik shaxs deb qanday xo'jalik subyektlari e'tirof etiladi?
2. Yuridik shaxslar qanday soliqlarni to'laydilar?
3. Tadbirkorlik subyektlari qanday soliqlarni to'laydilar?

4. Qanday mezonlarga ko'ra soliq to'lovchilar soliqqa tortiladilar?
5. Qaysi tadbirkorlik subyektlari aylanmadan soliqni to'lovchisi hisoblanadi?
6. Maxsus soliq rejimlari ishtirokchilari qanday soliqlarni to'laydilar?
7. Soliq to'lovchilarga qanday soliq imtiyozlari berilgan?
8. Korxonada tadbirkorlik subyektlariga omborxonalarni ijaraga berishga ixtisoslashgan. Ushbu faoliyat turini amalga oshirsak soliqqa tortish tartibi qanday va necha foizli stavkada soliqqa tortiladi?
9. Korxonaning asosiy faoliyati binolarni ijaraga berish. Asosiy faoliyatdan tashqari xizmat ko'rsatish faoliyatini ham tashkil etdik. Hisobot davrida ijaraga berishdan olingan daromad 350,0 mln. so'mni, xizmat ko'rsatish faoliyati bo'yicha daromad 20,0 mln so'mni tashkil qiladi. Korxonada ushbu holatda aylanmadan olinadigan soliqni qanday tartibda va necha foizli stavkada to'laydi?

### TESTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to'laydilar?
  - A. O'zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan
  - B. O'zbekiston Respublikasidagi manbalaridan
  - C. O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan
  - D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan muvofiqlashtiriladi
2. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchilarning qat'iy belgilangan soliq bo'yicha soliq obyektini aniqlang.
  - A. Fizik ko'rsatkich
  - B. Yalpi daromad
  - C. Sof foyda
  - D. Yalpi tushum
3. Korxonalar foydasiga soliq solishda soliq solish bazasi nima hisoblanadi?
  - A. Korxonaning moddiy va unga tenglashtirilgan xarajatlar, ajratmalar va to'lovlari

B. Korxonada balansdagi «Moliyaviy xarajatlar» shaklining 170-qatoridagi ko'rsatkich

C. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olgan foydasi

D. Balansdagi foyda bilan Soliqqa tortiladigan qism o'rtasidagi doimiy farq

4. Korxonalar tomonidan to'lanadigan soliqlar qaysi manbalar asosida tekshiriladi?

A. Bosh daftar

B. Memorial orderlar

C. Buxgalteriya hisobi

D. Bosh daftar, memorial orderlar, buxgalteriya hisobi

## 6-BOB. JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARIGA SOLIQ SOLISH

- 6.1. Daromad turlari va manbalari.
- 6.2. Daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari.
- 6.3. Ish haqi tarzidagi daromadlarga soliq solish mexanizmi.

### 6.1. Daromad turlari va manbalari

Jahon soliq amaliyotidagi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi milliy xo'jalik aloqalaridagi turbulentslik holatlariga bog'liq bo'lmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda kuzatilayotgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yuqori progressiv stavkalarini pasaytirish (masalan, 2019-yildan AQSHda 39,6% dan 35% ga tushirish) kontekstida daromad turlari bo'yicha soliq stavkalarini tebranish amplitudasini tekislashtirish siyosati amalga oshirilmoqda. Ushbu siyosat natijasida xorijga chiqib ketgan kapitalni "repatriatsiya" qilish, aholining yuqori daromad oluvchi tadbirkor<sup>10</sup> qatlami zimmasidagi soliq yukini pasaytirish vositasida milliy iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirishga fiskal rag'batlar tizimini yaratish ko'zda tutilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa (Masalan, Xitoy, Hindiston) hamon aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik va minimal yashash standartidan past darajada yashovchi aholi qatlamining yuqori salmog'i, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining progressiv mexanizmini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda<sup>11</sup>.

Jahonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimiga xos fundamental va siklik tavsifdagi muammolar kontekstida: aholi turmush farovonligini ta'minlashning fiskal mexanizmi, daromadlarning chegaraviy nafiligi asosidagi soliq yukini aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida optimal taqsimlash muammolari, virtual makonga asoslangan biznesdan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish tizimining tashkiliy asoslari iqtisodchi-olimlar tomonidan

<sup>10</sup> Kapaev: <http://www.worldwide-tax.com>.

<sup>11</sup> Global Economic Prospects Weak Investment in Uncertain Times. A World Bank Group Flagship Report. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433. - January 2017. - 17 pp.

o'rganilmoqda. Yalpi iste'mol talabini soliq mexanizmi orqali rag'batlantirish, jamg'armalar va ularni investitsiyalarga transformatsiyalashga soliq tizimining ta'sirini takomillashtirish, kapitallarning transmilliy harakatlanishini individual daromad solig'i mexanizmi orqali tartibga solish kabi makroprudensial indikatorlarni barqarorlashtirish masalalarida keng tadqiqotlar olib borilmoqda.

«2018-yilda soliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechamiz. Chunki islohotlar davrida davlat tizimining uzluksiz faoliyat ko'rsatishi uchun budget barqarorligi suv bilan havodek zarur...eng muhimi soliq tizimi uzoq muddat davomida aniq va tushunarli bo'lishi kerak, soliq tizimida puxta o'ylangan uzoq muddatga mo'ljallangan siyosatni amalga oshirish lozim»<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasida 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosidagi islohotlarda "Soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish" va "Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish" bo'yicha islohotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab olingan.

Jismoniy shaxslarda jami daromad soliq to'lovchi tomonidan hisobot (soliq) davri davomida olingan quyidagi daromadlardan tashkil topadi:

1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun — O'zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olingan daromadlardan;

2) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan.

Jismoniy shaxslarning jami daromad tarkibiga quyidagilar kiritilmaydi:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan soliq to'lovchi olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik

<sup>12</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Yilgan Murojaatnomasi, Toshkent shahri, 27 dekabr, 2017 yil.

sovg'alarining qiymati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti va sovg'alar;

2) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek, tibbiyot muassasalarining xodimlari tomonidan qon olganlik uchun olinadigan summalar;

3) olingan alimlar;

4) fuqarolar tomonidan olinadigan sug'urta to'lovi summolari;

5) qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda to'lanadigan stipendiyalar;

6) qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

7) davlat pensiyalari, qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi (oilaning betob a'zosini parvarish qilish bo'yicha nafaqa) mustasno;

8) majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallari, ular bo'yicha foizli daromadlar, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari.

9) qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlar;

10) O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo'yicha daromadlar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashda jami daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to'lanadigan quyidagi barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi:

– mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

– ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

– rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

– kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya);

– ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;

– haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to'lovlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

– predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar (bundan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar mustasno);

– yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar;

– O'zbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar.

Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti;

2) yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi nizomida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;

4) ta'tilga qo'shimcha haqlar hamda moddiy yordam;



5) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;

6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov;

7) mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofotlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadga kiritiladigan kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo'yicha to'lovlar). Bunda yuridik shaxslar xodimlarining cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun ish haqiga koeffitsiyentlar hisoblashning eng yuqori summasini aniqlash hisoblash sanasida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida belgilanadi;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek, bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek, doimiy ishi ishlarning vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) ish beruvchi joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha borish va u yerdan qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo'lga ketadigan

kunlar, shuningdek, xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun Soliq kodeksining 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'til uchun to'lov, shuningdek, ushbu ta'tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lovi;

b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek, og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

d) o'qish bilan bog'liq ta'til va ijodiy ta'tillar uchun to'lov;

e) o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolingan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;

3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to'lov;

4) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to'lov;

5) qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma'lum muddatga avvalgi ish joyi bo'yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolingan holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek, vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to'lovi;

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to'lov;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha to'lov;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqti uchun yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun to'lov;

11) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun to'lov;

12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlar mehnatiga to'lov;

13) ish beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar;

14) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqti uchun ish beruvchi hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

Mulkiy daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) soliq to'lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko'chmas mulk bo'yicha esa – kadastr qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq daromad deb e'tirof etiladi;

5) sanoat mulki obyektlariga, seleksiya yutug'iga oid patent (litsenziya) egasi bo'lgan soliq to'lovchining patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) royalti;

7) ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo'yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad;

8) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 324-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan REPO operatsiyalari bo'yicha daromad;

9) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 327—329-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan, qimmatli qog'ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning hosila moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo'yicha daromad;

10) belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

11) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 319-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga) muvofiq ishtirok etishdan olingan daromadlar;

12) Yuqoridagi I—II-bandlarida ko'rsatilmagan mulkiy xususiyatga ega boshqa daromadlar.

Soliq to'lovchi tomonidan moddiy naf tarzida olingan daromadlar, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasining ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagilardan iborat:

1) soliq agenti tomonidan soliq to'lovchi manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to'lash, shu jumladan:

soliq to'lovchining bolalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qitish, tarbiyalash haqini to'lash;

soliq to'lovchilarga berilgan uy-joyning kommunal xizmatlar haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlarini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rmini qoplash qiymatini to'lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, stasionar va ambulator davolanish haqini yoki ularning o'rmini qoplash qiymatini to'lash;

soliq agentining soliq to'lovchi daromadi bo'lgan boshqa xarajatlarini to'lash;

2) soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekin, shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha berilgan mol-mulkning va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati;

3) tovarlarni (xizmatlarni) soliq to'lovchilarga realizatsiya qilish narxi hamda shu tovarlarning (xizmatlarning) yuqorida keltirilgan ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o'rtasidagi salbiy farq;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temiryo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari;

6) soliq agenti tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, soliq to'lovchidan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq agentidan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, ushbu tovarlarning (xizmatlarning) qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq agentidan aksiz to'lanadigan tovarlar yoki qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, bunday tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida aksiz solig'ining va qo'shilgan qiymat solig'ining tegishli summasi hisobga olinadi.

Soliq to'lovchining boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan soliq to'lovchilarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

2) hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlarni va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan, ipak qurtini, chorchachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

3) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulkning, mulkiy huquqlarning qiymati;

4) musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

5) yutuqlar;

6) grant beruvchidan olingan grantlarning, shu jumladan chet davlatlar grantlarining summalari;

7) soliq to'lovchilarning yaratilgan ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun olgan daromadlari;

8) xalqaro sport musobaqalaridagi sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;

10) quyidagicha ko'rsatiladigan moddiy yordam:

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko'rsatiladigan;

xodimga mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoxud sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog'liq holda ko'rsatiladigan;

bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan ko'rsatiladigan;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzida ko'rsatiladigan moddiy yordam;

11) ishlamaydigan pensionerlarga soliq agenti tomonidan to'lanadigan to'lovlar;

12) ma'naviy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha pullik to'lovlar;

13) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining VI bo'limida belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatish kiritish tufayli olingan daromad;

14) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 300-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromad;

15) soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 371-376-moddalarida ko'rsatilmagan boshqa daromadlari.

## 6.2. Daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri ulardan foydalanish ko'lami va shuningdek, aholi daromadlari hamda turmush farovonligi ortishi hisoblanadi.

Soliq imtiyozlaridan foydalanuvchilar orasida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bo'yicha berilgan soliq imtiyozlaridan, ya'ni jismoniy shaxslar soliq solinmaydigan daromadlarining alohida kategoriyalari uchun berilgan soliq imtiyozidan foydalanuvchilar soni yuqori salmoqni tashkil qilmoqda.

Quyidagi daromad turlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summalari:

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari — mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 377-moddasida ko'rsatilgan boshqa hollarda, soliq davri uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

2) soliq agenti tomonidan quyidagi yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari, bundan turistik yo'llanmalar mustasno:

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironligi bo'lgan shaxslarga, shu jumladan ushbu ish beruvchida ishlamaydigan nogironligi bo'lgan shaxslarga to'liq yoki qisman qoplash summolari;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek, sanatoriy-kurort hamda sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshgacha bolalari (o'qiydiganlarga — o'n sakkiz yoshgacha) uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

3) o'z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek, ish beruvchining davolashga hamda tibbiy xizmat ko'rsatishga, nogironlik profilaktikasi va nogironligi bo'lgan shaxslarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olishga oid xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun ish beruvchilar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek, sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida esa — uning oila a'zolariga, ota-onasiga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, bu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida budjet tashkilotlaridan chet el valutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;



7) soliq to'lovchilarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan quyidagilarni sotishdan olingan daromadlar mustasno:

qimmatli qog'ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

noturar joylarni;

o'ttiz olti kalendar oydan kam muddatda soliq to'lovchining mulkida bo'lgan turar joylarni;

8) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar va hokazolarni) tirik holda hamda ularni so'yib mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan (bundan sanoatda qayta ishlash mustasno) chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno;

9) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

10) ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo'lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

ilgari mazkur ish beruvchining xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar hamda boshqa turlardagi yordam;

11) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek, tekinga olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan quyidagilar mustasno:

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot hamda san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek, kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari;

yaqin qarindosh bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi ko'chmas mulk, avtotransport vositalari, qimmatli qog'ozlar, yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlar;

12) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar;

13) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek, banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar va yutuqlar;

14) nodavlat notijorat tashkilotlaridan, xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek, vakolatli organning xulosasi mavjud bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi xalqaro shartnomalari doirasida soliq to'lovchi grant beruvchidan bevosita olgan grantning summasi;

15) soliq to'lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug'urtalash (hayot sug'urtasi sohasining barcha toifalarida) bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash uchun O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslarga yo'naltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

sug'urta badallari o'sib bormaydigan tartibda to'langanda va bir yo'la to'lanadigan sug'urta summasi shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanishi sanasidan 12 oydan so'ng olinganda. Sug'urtalangan shaxsning muayyan yoshgacha yashashi yoki hayotni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasida ko'rsatilgan muddatdan boshqacha tarzda sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda, sug'urta summasi ushbu ko'rsatilgan shartlarga amal qilmagan holda to'lanishi mumkin;

shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanish sanasidan kamida 12 oydan so'ng renta (annuitet) olinganda va rentani (annuitetni) to'lash sanasida shartnoma bo'yicha haqiqatda jamlangan mablag'lar (zaxira) summasi ko'rsatib o'tilgan rentaning (annuitetning) to'rt baravaridan kam bo'lmaganda;

renta (annuitet) to'lash shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanishi sanasidan 12 oy o'tmasdan boshlanganda, bunda dastlabki rentani (annuitetni) to'lash boshlanadigan vaqtda haqiqatda to'langan sug'urta badallari summasi shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotining yillik miqdoridan kam bo'lmasligi kerak va rentalarni (annuitetlarni)

to'lash sanasiga haqiqatda jamlangan mablag'lar (zaxira) summasi ko'rsatib o'tilgan rentaning (annuitetning) to'rt baravaridan kam bo'lmaganda.

Mazkur bandning shartlari buzilganda yoxud shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda va sug'urtachi sug'urta badalini to'liq yoki qisman qaytarganda, qaytarilgan sug'urta badali sug'urtachi tomonidan soliqqa tortiladi.

16) soliq to'lovchining quyidagilarga yo'naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo'lgan ish haqi va boshqa daromadlari:

O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish (o'zining, yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining yoki erining (xotini) ta'lim olishi) uchun to'lov;

soliq bazasining 50 foizidan oshmagan holda, metsenatlik ko'magini ko'rsatish;

olingan ipoteka kreditlarini va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami o'n besh million so'mgacha bo'lgan miqdorda qoplashga, basharti yakka tartibdagi uy-joyning yoki ko'p qavatli uydagi xonadonning qiymati uch yuz million so'mdan oshmasa hamda u dastlabki badalning va (yoki) ipoteka krediti bo'yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun budjetdan ajratilgan subsidiyalarni hisobga olgan holda olingan bo'lsa. Mazkur imtiyoz qarz oluvchiga va birga qarz oluvchilarga, imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan barcha soliq to'lovchilarga berilgan, soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlarni kamaytirish summasi soliq davri davomida jami o'n besh million so'mdan oshmagan taqdirda, tatbiq etiladi;

fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga;

17) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar bu ulushlarni, paylarni va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilsa.

Yuridik shaxs tashkil etmagan chet el tuzilmasiga nisbatan yoki qaysi chet el yuridik shaxsi uchun ro'yxatdan o'tish mamlakatining qonun hujjatlariga muvofiq kapitalda ishtirok etish nazarda tutilmagan bo'lsa, o'sha chet el yuridik shaxsiga nisbatan nazorat qilish huquqi, agar bunday huquqlar ularni bir oilaning a'zolari va (yoki) yaqin qarindoshlar bo'lgan shaxslar o'rtasida o'tkazish natijasida olingan

bo'lsa, daromad olish yoki daromadni tasarruf etish huquqining yuzaga kelishi deb e'tirof etilmaydi;

18) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan soliq to'lovchilarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

19) soliq to'lovchi bo'lgan qimmatbaho metallar qidiruvchilarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qazib olish yo'li bilan ega bo'lgan qimmatbaho metallarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari.

20) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan soliq to'lovchilarga beriladigan nafaqalar, shuningdek, pul mablag'lari tarzidagi yordamning boshqa turlari, biroq soliq davri mobaynida o'n besh million so'mdan oshmagan holda.

Quyidagi jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solinmaydi:

1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston

Respublikasida doimiy yashamasa — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari — agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 380-moddasi asosida ayrim toifadagi soliq to'lovchilarning jami daromadini kamaytirish tartibi keltirib o'tilgan.

Quyidagi soliq to'lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar. Bu imtiyoz urush nogironining (ishtirokchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (ishtirokchilarga) nogironning (ishtirokchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Bu imtiyoz «Halok bo'lgan

askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati yoki O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar. Bu imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor hamda boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Bu imtiyoz erning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnomalar, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jang'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogironligi bo'lgan shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona.

Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan taqdirda, soliq imtiyozi unga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar soliq to'lovchi ushbu moddada nazarda tutilgan bir nechta asos bo'yicha soliq imtiyoziga doir huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta soliq imtiyozi beriladi.

Soliq imtiyozini qo'llash soliq to'lovchining asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi mavjud bo'lmagan taqdirda esa — yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, soliq to'lovchi imtiyozga bo'lgan huquqni yo'qotgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

Sanab o'tilgan soliq imtiyozlari soliq to'lovchining foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo'yicha hisoblansa, soliq imtiyozini qo'llash asosiy ish joyi bo'yicha amalga oshiriladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha hisoblansa, soliq imtiyozi jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida soliq to'lovchining yashash joyidagi soliq organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

### **6.3. Ish haqi tarzidagi daromadlarga soliq solish mexanizmi**

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq to'lovchilari deb (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) quyidagilar e'tirof etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar;

2) O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar.

Soliq to'lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyektiga deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 392-moddasida belgilangan tartibda soliqni qat'iy belgilangan miqdorda to'lash xohishini bildirgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqqa tortish obyektiga bo'lib amalga oshirilayotgan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Soliq bazasi quyidagilar hisoblanadi:

1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun — ushbu bo'limda nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;

2) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun — ushbu bo'limda nazarda tutilgan soliq imtiyozlari qo'llanmagan holdagi jami daromadlari.

Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining ham pul shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi. Bunda soliq to'lovchining alohida turdagi daromadlari ushbu bo'limda belgilangan shartlarda va tartibda jami daromad tarkibida hisobga olinishi yoki hisobga olinmasligi mumkin.

Soliq to'lovchining chet el valutasida ifodalangan daromadlari, haqiqatda daromadlar olingan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha milliy valutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

Turli soliq stavkalari bo'yicha solinadigan soliq bazasi alohida aniqlanadi.

Soliq bazasi, agar Soliq Kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, soliq davri boshidan e'tiboran o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq qonunchiligida daromad olingan sana quyidagicha aniqlanadi:

1) daromadni to'lash kuni, shu jumladan daromadni soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlariga o'tkazish yoki daromadlar



pul shaklida olinganda — daromadni soliq to'lovchining topshirig'iga ko'ra uchinchi shaxslarning hisobvaraqlariga o'tkazish kuni;

2) daromadlar natura shaklida olinganda — daromatlarni natura shaklida berish kuni;

3) daromadlar moddiy naf tarzida olinganda — tovarlarni (xizmatlarni), qimmatli qog'ozlarni sotib olish kuni. Agar sotib olingan qimmatli qog'ozlarga haq to'lash ushbu qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi soliq to'lovchiga o'tganidan keyin amalga oshirilsa, daromadning haqiqatda olingan sanasi sotib olingan qimmatli qog'ozlarning qiymatiga tegishli to'lovni to'lash kuni sifatida aniqlanadi;

4) bir turdagi qarama-qarshi talablarni hisobga olish kuni;

5) belgilangan tartibda soliq agenti tomonidan umidsiz qarz hisobdan chiqarilgan kun;

6) xodim safardan qaytganidan keyin bo'nak hisobot tasdiqlangan oyning oxirgi kuni.

Mehnatga haq to'lash tarzida daromad olinganda bunday daromadning olingan sanasi deb, soliq to'lovchiga mehnat shartnomasi (kontrakti) asosida mehnat majburiyatlarini bajarganligi uchun, unga daromadlar hisoblangan oyning oxirgi kuni e'tirof etiladi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ish qidirish davriga kompensatsiya to'langan sana e'tirof etiladi.

Kalendar oy tugaguniga qadar mehnat munosabatlari bekor qilingan taqdirda, soliq to'lovchi tomonidan mehnatga haq to'lash tarzida olingan daromadning haqiqatda olingan sanasi deb unga daromad hisoblangan oxirgi ish kuni e'tirof etiladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi foydasining summasi tarzidagi daromadlar uchun daromadning haqiqatda olingan kuni deb chet el kompaniyasi yoki tuzilmasi ro'yxatdan o'tkazilgan mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq moliya yili uchun moliyaviy hisobot tuziladigan davrning tugallanish sanasi to'g'ri keladigan kalendar yildan keyingi soliq bo'yicha soliq davrining oxirgi sanasi e'tirof etiladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi ro'yxatdan o'tkazilgan mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish majburiyatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, bunday kompaniya foydasining summasi tarzidagi daromadning haqiqatda

olingan sanasi deb foyda aniqlanadigan kalendar yilidan keyingi kalendar yilning oxirgi kuni e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning daromadlariga 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

6.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari**

T/r	Soliq obyekti	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlar	20

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagilar tomonidan hisoblab chiqariladi va to'lanadi:

1) soliq to'lovchiga daromad to'laydigan soliq agentlari tomonidan;

2) soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda.

Soliq to'lovchilarning alohida toifalari soliqni:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 392-moddasida belgilangan tartibda qat'iy belgilangan miqdorda to'lashni;

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 397-moddasida belgilangan tartibda jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya asosida to'lashni tanlashga haqli.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari uchun qat'iy belgilangan soliq quyidagi toifadagi soliq to'lovchilarga tatbiq etiladi:

1) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi kalendar yilida yuz million so'mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlarga. Agar kalendar yilida tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi belgilangan miqdordan oshsa, yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda aylanmadan soliq yoxud qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lashga o'tadi;

2) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolariga;

3) «Hunarmand» uyushmasi a'zolari bo'lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlariga.

YUqorida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar soliq to'lash tartibini quyidagilar orqali tanlashga haqli:

1) tadbirkorlik subyektining davlat ro'yxatidan o'tkazilishi chog'ida tanlangan soliq to'lash tartibini ko'rsatish;

2) doimiy yashash joyi bo'yicha soliq organlariga joriy yilning 25-yanvaridan kechiktirmasdan tanlangan soliq to'lash tartibi to'g'risida bildirish xati taqdim etish.

Soliqni to'lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va budjetga o'tkazish majburiyati soliq to'lovchiga daromad to'laydigan va soliq agentlari deb e'tirof etilgan quyidagi shaxslarning zimmasiga yuklatiladi:

1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga;

2) yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

3) O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxslarga;

4) O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatxonalariga;

5) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 351-moddasi ikkinchi qismining 5-bandida ko'rsatilgan mol-mulkni sotib olgan jismoniy shaxslarga;

6) soliq to'lovchining mol-mulkini ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi ishonchli boshqaruvchiga.

Soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani va u bilan bog'liq penyani ushbu Kodeksga muvofiq budjetga o'tkazishi shart.

Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summolari va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shaklda ma'lumotnoma berishi shart.

Soliq agentida soliq solinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 371-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari;

2) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 376-moddasiga muvofiq moddiy naf tarzidagi daromadlar; \*

3) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 375-moddasiga muvofiq mulkiy daromadlar;

4) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 377-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar.

O'zi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxsga moddiy naf tarzida daromad to'lovchi soliq agenti jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida soliqni ushlab qolmaslikka haqli. Bunda soliq to'lovchi moddiy naf tarzidagi daromad bo'yicha ushbu O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining Kodeksning 393-moddasiga muvofiq soliqni to'lashi shart.

Soliq agentlari soliq hisobining registrlarida jismoniy shaxslarning ulardan soliq davrida olgan daromadlari, jismoniy shaxslarga to'lov manbayida qo'llanilgan soliq imtiyozlari, hisoblab chiqarilgan va ushlab qolingani soliqlar hisobini yuritadi.

Soliq hisobi registrlarining shakllari, ularda soliq hisobining tahliliy ma'lumotlarini hamda birlamchi hisobga olish hujjatlari ma'lumotlarini aks ettirish tartibi soliq agenti tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi. Mazkur shakllarda soliq to'lovchini identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma'lumotlar, soliq to'lovchilarga to'lanadigan daromad turlari va to'lov manbayida unga qo'llanilgan soliq imtiyozlari, ularni to'lash sanasi, soliq to'lovchining maqomi, soliqni ushlab qolish va to'lash sanasi ko'rsatilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan

daromadlarga soliq solish soliq agentlari tomonidan soliq bazasi hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 387-moddasida ko'rsatilgan daromadlaridan hisoblangan soliq summasini ushlab qolishi shart.

Soliqning hisoblangan summasini soliq to'lovchidan ushlab qolish, soliq agenti soliq to'lovchiga to'layotgan har qanday pul mablag'lari hisobidan, bu pul mablag'lari soliq to'lovchiga yoki uning topshirig'iga binoan uchinchi shaxslarga to'lanayotganda amalga oshiriladi.

Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo'limda belgilangan soliq bazasi hamda soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda, daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan e'tiboran har oyda ortib boruvchi yakun bilan soliq to'lovchining ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa soliq agentlaridan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslarning soliq summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs yillik jami daromadi to'g'risida deklaratsiya topshirganda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgartirgan taqdirda, soliq to'lovchi joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan soliq summaları to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi soliq agentiga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, soliq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 378-moddasi 1-bandining uchinchi xatboshisida va 380-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmagan holda ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilgan taqdirda, soliq summasi ilgari asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida soliqni hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan e'tiboran ilgari va yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromadlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilingandan keyin xodimga ilgari ish joyidan to'lov amalga oshirilganda, bunday to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasi 1-bandining uchinchi xatboshisida va 380-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari qo'llanilmagan holda soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan soliqning yakuniy summasi jami yillik daromad to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha soliq organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Soliq agentlari o'zlarining soliq bo'yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

1) soliq davri tugaganidan keyin o'ttiz kun ichida — soliq organlariga to'lov manbayidan soliq solinmagan moddiy naf tarzida daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakldagi ma'lumotnomani;

2) har oyda, hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida hisoblangan va haqiqatda to'langan daromadlar summolari hamda ushlab qolingan soliqning summolari to'g'risidagi — O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakldagi ma'lumotlarni. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar yil yakunlari bo'yicha hisoblangan va amalda to'langan daromadlarning summolari hamda ushlab qolingan, soliq summolari to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobot yilidan keyingi yilning 25-martiga qadar taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo'lgan, xodimlari 25 nafardan ortiq bo'lgan alohida bo'linmalarga va (yoki) filiallarga ega soliq agentlari, bundan yirik soliq to'lovchilar mustasno, ushbu alohida bo'linmalar va (yoki) filiallar xodimlariga nisbatan mazkur moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan soliq hisobotini — alohida bo'linmalar va (yoki) filiallar hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

To'lov manbayida hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq to'lovchiga daromadlarni to'lash bilan bir vaqtda, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay soliq agenti tomonidan to'lanadi.

Daromadlar natura shaklida amalga oshirilganda soliq natura tarzidagi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida to'lanadi.

Soliq agenti tomonidan soliq to'lovchining daromadidan ortiqcha ushlangan soliq summasi soliq to'lovchining yozma arizasiga asosan qaytarilishi lozim.

Soliq agenti tomonidan bir soliq davri ichida ortiqcha ushlangan soliq summasi qaytariladi.

Soliq to'lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish daromadlaridan bunday soliq agenti tomonidan ushlab qolinadigan soliq to'lovchi bo'yicha ham, boshqa soliq to'lovchilar bo'yicha ham kelgusi to'lovlar hisobidan budjet tizimiga o'tkazilishi lozim bo'lgan ushbu soliq summasi hisobidan, soliq agenti soliq to'lovchining tegishli arizasini olgan kundan e'tiboran uch oy ichida soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish soliq agenti tomonidan soliq to'lovchining arizasida ko'rsatilgan bankdagi hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Soliq agenti bo'lmaganda yoxud ushbu bandning ikkinchi qismida belgilangan soliq davri tugaganda, soliq to'lovchi soliq davrining yakuniga ko'ra soliq deklaratsiyasini bir vaqtning o'zida taqdim etgan holda, ilgari soliq agenti tomonidan ortiqcha ushlangan va budjet tizimiga o'tkazilgan soliq summasini qaytarish to'g'risida soliq organiga ariza berishga haqli.

Soliq davrida O'zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini olgan soliq to'lovchi ushbu soliq davrida norezident maqomida to'lagan soliq summasini qayta hisob-kitob qilishga va qaytarib olishga haqli. Soliq summasini soliq to'lovchiga qaytarish soliq to'lovchi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 397-moddasida belgilangan tartibda ko'rsatilgan soliq davri yakuniga ko'ra soliq deklaratsiyasini taqdim etgan taqdirda yashash joyi (turgan joyi) bo'yicha hisobga qo'yilgan soliq organi tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu deklaratsiyaga mazkur soliq davrida O'zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinishi kerak.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Jismoniy shaxslarning jami daromadiga qaysi daromadlari kiradi?
2. Yuridik shaxslar amalga oshiradigan qaysi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi?
3. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining qaysi daromadlari kiradi?
4. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli qaysi organlar tomonidan tasdiqlanadi?

### TESTLAR

1. **Dividendlar va foizlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**
  - A. Dividendlar va foizlarga to'lov manbayida soliq solinadi
  - B. Sof foyda va foizlarga to'lov manbayida soliq solinadi
  - C. Dividendlar va daromadlarga to'lov manbayida soliq solinadi
  - D. Mol mulk va foizlarga to'lov manbayida soliq solinadi
2. **Ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish deganda nimani tushunasiz?**
  - A. O'zga mamlakatda olingan va soliqqa tortilgan daromadni ikkinchi marotaba o'z mamlakatida soliqqa tortmaslik
  - B. Daromad manbayida hamda deklaratsiya asosida soliqqa tortmaslik
  - C. Soliq to'lovchining sof foydasini soliqqa tortmaslik
  - D. Soliq to'lovchiga soliq imtiyozlari taqdim etish
3. **Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasi qaysi stavka turiga mos keladi?**
  - A. Proporsional
  - B. Progressiv
  - C. Foizli



- D. Regressiv
4. **Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini qaysi muddatlarda to'laydilar?**
- A. yiliga ikki marta 15-aprel va 15-oktyabrgacha teng ulushlarga bo'lib
- B. Soliq davrining 15-oktabrga qadar
- C. 25-noyabrga qadar
- D. 15-iyun va 15-dekabrga qadar
5. **Jismoniy shaxslardan olinadigan yer va mol-mulk soliqlarini hisoblash mas'uliyati kimga yuklatilgan?**
- A. Davlat soliq inspeksiyasiga
- B. Moliya bo'limiga
- C. Soliq to'lovchi jismoniy shaxsga
- D. Iqtisodiyot bo'limiga
6. **Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi nimadan iborat?**
- A. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar va boshqa daromadlar
- B. Mehnat haqi, mulkiy daromadlar
- C. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, mehnat haqi
- D. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar
7. **Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiradi?**
- A. Rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari, ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash
- B. Mulkiy daromadlar, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar
- C. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash, moddiy naf tarzidagi daromadlar
- D. Foiz va dividend ko'rinishida olingan daromadlar, kompensatsiya to'lovlari
8. **Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi qaysi yoshdan boshlab vujudga keladi?**

- A. O'n olti yoshdan
- B. Yigirma yoshdan
- C. Yigirma besh yoshdan
- D. O'ttiz yoshdan

9. **Jami daromadga quyidagilar kiradi...**

- A. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar, boshqa daromadlar
- B. tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan xarajatlar, boshqa daromadlar
- C. tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan sof daromadlar, boshqa daromadlar
- D. tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan yalpi daromadlar, boshqa daromadlar

10. **Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir...**

- A. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari. O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari
- B. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari. O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari
- C. O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari
- D. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari

## **7-BOB. MOL-MULK VA MULKIY DAROMADLARGA SOLIQ SOLISH**

- 7.1. Mol-mulk tushunchasi va huquqiy asoslari.
- 7.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solish.
- 7.3. Jismoniy shaxslarning sol-mulkiga soliq solish.

### **7.1. Mol-mulk tushunchasi va huquqiy asoslari**

Har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulkchilikdan boshlanadi. Hamisha avlodlar mehnati yaratgan va tabiat in'om etgan boyliklar mulk bo'lib kelgan. Mulk egasi bo'lish yoki bo'lmislikka qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqei, aniqrog'i ularning sotsial maqomi yuzaga keladi. Mulkiy munosabatga asoslanmagan iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas. Ishlab chiqarish resurslari bironta mulk bo'lib xarakatga keladi. Yaratilgan mahsulotlar ham muayyan mulk doirasida o'zlashtiriladi.

Mulkchilik inson bilan boylik bo'lmish buyum yoki boshqa narsa o'rtasidagi munosabat.

Jamiyatda kishilarning mulkiy maqomiga qarab, individual, korporativ-guruhiy, umumdavlat va milliy manfaatlar mavjud. Ularning zamirida xususiy, jamoa va davlat, milliy mulk yotadi. Bu manfaatlarning o'z ifodasi mavjud. Individual manfaat mulk egasining shaxsan o'ziga tekkan daromadga ifodalanadi. Guruhiy manfaat mulk egasi bo'lgan jamoaning hamjihatlik bilan o'zlashtiradigan daromadi orqali yuzaga chiqadi. Umumdavlat manfaatini davlat budjeti daromadlari ifodalaydi. Milliy manfaat jamiyatdagi milliy boylikning ko'payishini bildirib, individual, guruhiy va umumdavlat manfaatlarining birligidan iborat. Manfaat iqtisodiyot amaliyotida mulkdorning maqsadiga aylanadi.

Respublikamiz soliq tizimi bevosita va bilvosita soliqlardan tarkib topgan. Bevosita soliqlar aslida olingan daromad summasiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Shuning uchun ham korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyati bevosita ana shu soliqlar bilan bog'liq. Bunda mulk solig'i davlat budjetida boshqa soliq turlari singari o'ziga xos salmoqqa ega bo'lgan soliq hisoblanadi.

Mulk solig'i o'ziga xos xarakterga ega. Mulkning yuqori samara keltirishi mulkdor uchun ham, davlat uchun ham manfaatlidir. SHu sababli davlat mulk samaradorligini oshirishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy choralarni belgilab beradi. Buni mamlakatimizda mulkni soliqqa tortish amaliyoti misolida ko'rish mumkin.

Birinchidan, uning obyektii sifatida nafaqat mulk qiymati, balki o'z muddatida tugallanmagan qurilish va belgilangan muddatda o'rnatilmagan uskunalarining qiymati ham qo'shib hisoblanadi. Shu sababli ham mulk solig'ining to'lovchilari o'zlarida mavjud keraksiz va ortiqcha uskunalar hamda mulklarning saqlanishiga chek qo'yish, korxonalarda tovar oboroti jarayonini jadallashtirish kabilardan manfaatdor.

Ikkinchidan, mulk solig'i ham soliqning boshqa turlari kabi majburiy to'lovlarga kiradi. Uning soliqlar tizimidagi o'rni davlat budjetidagi ulushidan tashqari iqtisodiy mohiyati bilan ham belgilanadi.

Uchinchidan, soliqni undirib olish uchun davlat butun mulkni hisobga olib boradi. Mulk davlatning, mamlakatning moddiy ne'mati, moddiy boyligi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuridik shaxslarni mol-mulki ularning asosiy moddiy aktivlari bo'lib, u ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi. Yuridik shaxslar o'zlarining buxgalterlik balansida bo'lgan asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari uchun mol-mulk solig'i to'laydilar.

Bundan tashqari, belgilangan normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar uchun ham soliq to'lash belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XV bo'lim, 59-bob, 410-423-moddalarida mol-mulk solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi belgilangan.

Bozor munosabatlarining muqarrar oqibati mulkiy va ijtimoiy notenglikning kuchayishidir. Bunday sharoitlarda soliqqa tortishni daromad va moddiy boyliklarni adolatli qayta taqsimlanishiga qaratish kerak. U daromadlar va farovonlik sohasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy va ijtimoiy notenglikni kamaytirishi lozim. Yirik va kichik korxonalar o'rtasidagi notenglikni mutanosib daromad solig'i va mol-mulk solig'i orqali kamaytirish mumkin.

Soliq tizimini tuzishda jahon amaliyoti ikki tamoyilga: gorizontal va vertikal tenglik tamoyiliga tayanadi. Gorizontal tenglik daromadi va kapitalni solishtirish mumkin bo'lgan shaxslarni teng soliq tartiblari yaratishini taqozo etadi. Kapital (mol-mulk)ni soliqqa tortishning turlicha xillariga turlicha usullar yordamida erishiladi. Sof aktivlarga solinadigan yillik soliq material aktivlarining turli ustunliklarini hisobga oladi. Kapitalga solinadigan soliq daromad solig'ini bir vaqtning o'zida moddiy boylikni soliqqa tortish yordamida ko'paytiradi.

Soliqlar qonun chiqaruvchilar uchun mol-mulk egasiga shunday ta'sir ko'rsatadiki, u o'zining shaxsiy manfaatlariga intilishi bilan birga bilvosita o'zining xohishidan tashqari jamiyat manfaatlarini qondirish va budjetga mablag'lar tushirish kabi harakatlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga bu yerda mol-mulkka egalik huquqi juda muhim ahamiyatga egadir. Mol-mulkka egalik huquqi o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra uch unsurdan: egalik huquqi, foydalanish huquqi va boshqarish huquqidan iborat. Yuridik jihatdan qayd qilishni aks ettiradigan egalik har doim ham foydalanish bilan bog'liq emas. Mol-mulk egasi mol-mulkdan foydalanmasa ham egalik qilish huquqiga egadir. Amaliyotda shunday hollar yuz berishi mumkinki, unda mulkdor mol-mulkdan foydalanmasa-da, uni foydalanish uchun boshqa shaxslarga bermaydi, masalan, qurilishi tugallanmagan binolar yoki boshqa foydalanilmaydigan mol-mulklar.

Bunday holatlarning yuz berishi sababi turlicha: mol-mulk qurilishini tugatish uchun mablag' yetishmasligi, chayqovchilik maqsadlari va bir qancha boshqa sabablar bo'lishi mumkin. Shuning uchun mol-mulkka solinadigan soliqlar mulkdorlarni ongli ravishda yoki tabiiy inersiya holatidan o'zining mol-mulkini xo'jalik faoliyatida faol ishlatish yoki mol-mulknii foydalanishda faolroq bo'lgan boshqa shaxslarga berishga o'tkazuvchi vosita bo'ladi. Agar soliqni hisoblashda mol-mulkning bozor bahosi asos nilib olinsa, soliq samarali ishlaydi. Yer solig'ini hisoblash uchun kadastr uslubiga asoslangan o'rta normalar daromadlilikdan foydalanish lozim. Shu yusinda davlat mulkdorni mazkur hududdagi yerlardan odatdagi daromaddan yuqoriroq daromad olishga undaydi.

Davlat mulkdorning faoliyatini tartibga solish uchun soliqlardan ikki yo'l bilan foydalanishi mumkin: bir tomondan,

foydalanilmayotgan mulkka egalik huquqini soliqqa tortish mumkin, ikkinchi tomondan sust (passiv) faoliyatdan faol (aktiv) faoliyatga o'tgan shaxslarga soliq (davlat uchun muhim bo'lgan mol-mulkni ishlatishni soliqdan ozod qilish) imtiyozlari berish. Mutanosib (proporsional) soliqqa tortishga asoslangan bizning soliq tizimimizda yuridik shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishda xo'jalik sub'ektlari balansining faol (aktiv) qismi (eskirish chegirilmagan holda) soliqqa tortiladi. Shu bilan bir qatorda mol-mulkning ba'zi bir qismi hisobga olinishi va obyektlarning ba'zi bir qismini ularning ehtiyojlarini qondirishga qarab tabaqalashtirish mumkin.

## **7.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solish**

O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududida Soliq kodeksning 411-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chmas mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar.

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlashning imkoni bo'lmasa, ushbu mulkka egalik qiluvchi va (yoki) undan foydalanuvchi shaxs soliq to'lovchi hisoblanadi.

Agar yuridik shaxs ko'chmas mulkni moliyaviy ijaraga (lizing) olgan bo'lsa, u ham soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Ko'chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko'chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlar;

2) qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu

obyektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) temiryo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek, mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari, ko'chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgach.

Quyidagi ko'chmas mulk obyektlari soliq solish ob'ekti hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan obyektlar;

2) turar joy-kommunal xo'jaligining va belgilangan maqsadi bo'yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi obyektlari. Turar joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari obyektlari jumlasiga shaharlar va shaharchalarni sanitariya tozalash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish obyektlari, tashqi yoritish, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun va aholiga vodoprovod (suv olish va tozalash inshootlari bilan), kanalizatsiya (tozalash inshootlari bilan), gaz, qozonxonalar va issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlar (ularning inshootlari bilan), shuningdek, turar joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga texnik jihatdan xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash uchun mo'ljallangan binolar kiradi;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;

4) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari;

5) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar;

6) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar jumlasiga kiritish tegishli ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki yong'in xavfsizligi organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

7) yer uchastkalari.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha quyidagilar soliq bazasidir:

1) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 411-moddasi ikkinchi qismining 1 va 3-bandlarida nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha — o'rtacha yillik qoldiq qiymati.

Ko'chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Bunda to'liq amortizatsiya qilingan bino bo'yicha uning uch yilda kamida bir marta aniqlanadigan qayta bahoqlangan (bozor) qiymati soliq bazasidir;

2) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning o'rtacha yillik qiymati;

3) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 4-bandida belgilangan obyektlar bo'yicha — mazkur obyektlarning o'rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymatidir.

Soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha soliq bazasi mazkur obyektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Soliq bazasi har bir soliq solish obyekti bo'yicha alohida aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida



yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritishning imkoni bo'lmasa, soliq bazasi soliq to'lanishi nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning jami sof tushum hajmidagi ulushiga qarab aniqlanadi.

Soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari mustasno), jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot obyektlarining;

2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalarini balansida bo'lgan mol-mulkning.

Quyidagilar mol-mulk solig'idan ozod qilinadi:

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga.

Mol-mulk solig'i bo'yicha soliq stavkasi 2 foiz miqdorida belgilanadi.

Agar qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 414-moddasida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari ularga tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,4 foiz miqdorida belgilanadi:

1) umumiy foydalanishdagi temiryo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

Mol-mulk solig'i bo'yicha kalendar yil soliq davri bo'lib hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar soliqni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan esa soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevraliga qadar bo'lgan muddatda taqdim etiladi.

Agar ko'chmas mulk, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 411-moddasining ikkinchi qismi 3-bandida ko'rsatilgan obyektlardan tashqari, soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, soliq hisoboti ko'chmas mulk joylashgan yerdagi soliq organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar (bundan O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi.

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10-yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

aylanmadan soliq to'lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay;

aylanmadan soliq to'lovchilar hisoblanmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgargan taqdirda soliq to'lovchi soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo'nak to'lovlarga soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi, bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda, soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay budgetga o'tkaziladi.

Soliq davrida soliq bo'yicha bo'nak to'lovlar summasi soliq hisobotida ko'rsatilgan budgetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo'nak to'lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan soliq har yili bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay to'lanadi.

### **7.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 419-moddasiga muvofiq soliq solish obykti deb tan olinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan holdagi yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Agar mol-mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, shuningdek, ko'chmas mulk mulkdori vafot etgan taqdirda,

bu mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulk jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solish obyekti hisoblanadi.

1) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;

2) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari;

3) qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlar.

Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlarga ushbu obyektни qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

4) ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq bazasi hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi qirq ikki million so'mdan kam bo'lishi mumkin emas.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida — ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan summaning besh baravari miqdorida, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa — ikki baravari miqdorida soliq bazasi hisoblanadi.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha soliq to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq bazasi har bir obyekt bo'yicha alohida hisoblab chiqiladi.

Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning.

Mazkur imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar.

Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki mayib bo'lganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinalari (beva erlari).

Ushbu imtiyoz «Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, soliq imtiyozi ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va harbiy xizmat nazarda tutilgan boshqa idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi.

Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) soliq imtiyozi faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

4) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga.

Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida taqdim etiladi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:

1) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Ushbu moddada ko'rsatib o'tilgan soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish obyektiga joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Ushbu moddada belgilangan soliq imtiyozlari mulkdorning tanloviga ko'ra faqat bitta yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk obyektiga tatbiq etiladi, bundan energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchilar mustasno.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga ko'ra soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

## Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalarini

T/r	Soliq solish obyektlari	Soliq stavkalarini (foizlarda)
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lganlari mustasno), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,23
2.	SHaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:	
	200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo'lganlari	0,3
	500 kv.m dan ortiq bo'lganlari	0,4
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,3
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari	2

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan soliq stavkasi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorida qo'llaniladi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari o'rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan

oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilashga haqli.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonalar turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq 1-3-bandlarida belgilangan soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.

Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralarini qo'llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish obyekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq summasi mol-mulkning 1-yanvardagi holatiga ko'ra bo'lgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir necha mulkdorlarining umumiy ulushli mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1-yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan o'ning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa, unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq mulk huquqi yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.



Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun soliq merosxo'rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran tugatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1-martdan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha soliq davri uchun soliqni to'lash teng ulushlarda 15-aprelga va 15-oktabrga qadar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq obyektini aniqlash, soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.
2. Jismoniy shaxslarga mol-mulk solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlarning tarkibi.
3. Jismoniy shaxslar mol-mulkidan soliqni hisoblash va undirish tartibi.
4. Mol-mulk solig'i bo'yicha yuridik shaxslarga qanday soliq imtiyozlari taqdim etilgan?
5. Mol-mulk solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga qanday soliq imtiyozlari taqdim etilgan?

## TESTLAR

1. Jismoniy shaxslarga mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomasi qaysi muddatdan kechiktirilmay taqdim etiladi?
  - A. Joriy yilning 1-mayidan
  - B. Joriy yilning 25-aprelidan
  - C. Joriy yilning 15-iyunidan
  - D. Joriy yilning 5-yanvaridan
2. Jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladimi?
  - A. Jismoniy shaxslarga nisbatan faqat sud qarori bilan qo'llaniladi
  - B. Jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi
  - C. Jismoniy shaxslarga nisbatan DSI qarori bilan qo'llaniladi
  - D. Jismoniy shaxslarga nisbatan eng kam ish haqining 5 baravaridan oshgan soliq qarzi bo'yicha qo'llaniladi
3. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchatkalaridan soliq qanday stavkalar bo'yicha undiriladi?
  - A. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha
  - B. Jismoniy shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha
  - C. Jismoniy shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalarga 1,5 koeffitsiyent qo'llagan holda
  - D. Yuridik shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalarga 1 koeffitsiyent qo'llagan holda
4. Jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar qanday daromadlarga kiradi?
  - A. Mulkiy daromadlarga

- B. Moddiy naf tarzidagi daromadlarga
  - C. Boshqa daromadlarga
  - D. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga
5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar quyidagilardir
- A. Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari
  - B. Yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari
  - C. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari
  - D. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasining norezidentlari
6. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasini aniqlang.
- A. 2%
  - B. 5%
  - C. 3,00%
  - D. 4%

## 8-BOB. RESURS SOLIQLARI

- 8.1. Resurslarning turlari va ulardan foydalanishning zamonaviy talablari.
- 8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.
- 8.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i
- 8.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- 8.5. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq.

### 8.1. Resurslarning turlari va ulardan foydalanishning zamonaviy talablari

Tabiiy jismlar va energiya turlariga resurs (manba)lar deyiladi. Resurs so'zi fransuzcha bo'lib "Yashash vositasi" degan ma'noni anglatadi. Tabiiy resurslar insonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan asosiy manbadir.

Tabiiy resurslarga: havo, suv, tuproq, turli xil rudalar, yoqilg'i va energiya manbalari ko'mir, neft, gaz, turli xil yog'ochlar hamda yovvoi o'simliklar va hayvonlar kiradi. Bularning hammasi yer planetasida mavjud bo'lgan tabiiy resurslardir. Bundan tashqari kosmik resurslar ham mavjud. Kosmik resurslarga quyoshdan kelayotgan nur, meteoritlar va boshqalar kiradi.

Tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va uni muhofaza qilishni to'g'ri tushuntirish uchun ularni turlarga bo'lib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) qazilma boyliklar;
- 2) iqlim resurslari;
- 3) suv va havo resurslari;
- 4) tuproq resurslari;
- 5) o'simlik resurslari;
- 6) fauna (biror joy mamlakat yoki geologik davrga oid bo'lgan hamma hayvonlar) resurslari;
- 7) atom resurslari;
- 8) biosfera resurslari;
- 9) kosmik resurslar.

Foydalanish darajasiga qarab tabiiy resurslar:

a) tugaydigan;

b) tugamaydiganlarga bo'linadi.

Tugaydigan resurslar. Bular o'z navbatida qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanadigan resurslarga bo'linadi.

Qazilma boyliklar qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Ulardan foydalanish natijasida miqdori va sifati kamaya boradi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklardan unumli foydalanish va uni qo'riqlash quyidagicha bo'lmog'i lozim: miqdori va sifatini hisobga olish, kompleks ravishda to'g'ri, tejab, o'rnida foydalanish, ularni qazib olish, tashish, qayta ishlash, ishlatishda nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslik, chiqindi kam chiqarish choralari ko'rish, yangi konlar topish, ayniqsa yerning chuqurroq qatlamlarini o'rganish zarur va nihoyat ularning o'rnini bosuvchi yangi sun'iy manbalar topish va boshqalar. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanilsa, ular kishilik jamiyati ehtiyojlarini uzoq muddatlargacha to'la ta'minlay oladi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida ba'zi foydali qazilmalar tugaguncha ularning o'rnini bosa oladigan yangi resurslar yaratish mumkin.

Qayta tiklanadigan resurslarga asosan, suv, tuproq, o'simliklar va hayvonot dunyosi kiradi. Masalan: tuproq, unda o'simlik o'stirib foydalanilishi natijasida tugab yo'q bo'lib ketmaydi. Tuproq shuning uchun ham tugamaydigan – qayta tiklanadigan resurslar jumlasiga kiritiladiki, madaniy o'simliklar undagi mineral ozuqa moddalar (azot, fosfor, kaliy birikmalarini va boshqalar) ni shimib oladi, ana shu ozuqa moddalar tiklab borilmasa, tuproqning unumdorligi yildan-yilga kamayib, dehqonchilik uchun butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi. Tajribadan ma'lumki, tuproq unumdorligini doimo tiklab borish mumkin. Bu tiklanish tabiiy va sun'iy ravishda bo'lishi mumkin. Masalan: tuproq yo'qotgan mineral ozuqalarini o'simlik qoldiqlarining chirishi natijasida, tog'lardan oqib keladigan suvlar tarkibidagi turli birikmalar hamda kishilar tomonidan beriladigan tabiiy mineral o'g'itlar hisobiga qayta tiklaydi. Agar tiklanadigan resurslardan plansiz ravishda, vahshiylarcha foydalanilsa ular tiklanmaydigan holga tushib qoladi. Bunga yer sirtida atom bombasini portlashi, konlar tugagandan so'ng o'z holiga tashlab ketishlar va boshqalar kiradi. Tuprog'ini suv yuvib yoki shamol uchirib ketgan joyni qayta tiklash mumkin. Ammo buning uchun ko'p mablag', uzoq vaqt mehnat qilish

kerak. Ekinlar ekiladigan joylarga ko'plab kimyoviy o'g'itlar solish ham, uni yaroqsiz holga olib keladi, oqibatda hech narsa o'smaydigan bo'lib qoladi.

Yer sharida o'rmonlar, o'simliklar dunyosi nihoyatda ko'p va rang-barang. O'simlik dunyosi tabiatda alohida ahamiyat kasb etadi. Daraxtlar, o'rmonlar qirgilsa, uni qayta tiklash mumkin. Shu sababli daraxtlarni shartli ravishda qayta tiklanadi deyiladi. O'rmonlarni qayta tiklash uchun 20-30 yil vaqt kerak bo'ladi.

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim vosita – bu davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlardir. Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, renta, royalti va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar – bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat budjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar hajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi subyektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.<sup>13</sup>

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi. Rentals tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi. Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti – bu mineral xomashyoni qazib olish xajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi Qonuni, 20-modd.

hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xomashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun aksiz soliqlari ham amal qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyo resurslari to'plangan. O'zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog'i 95 turdagi mineral xomashyoni o'zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleyev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xomashyo salohiyoti 3,3 trillion AQSH dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSH dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yer osti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

Tabiiy resurslardan foydalanish tizimidagi soliqlar va to'lovlar ham davlat manfaatlari uchun ijtimoiy boyliklardan foydalanganlik uchun to'lov hisoblanadi.

Yer osti boyliklari uchun undiriladigan to'lovlarning yana bir muhim qismi deb mineral xom ashyo zaxirasini yaratish uchun ajratilgan mablag' ham tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tarkibidagi resurs soliqlari va to'lovlari tarkibida ekologik muhitni saqlash maqsadidagi to'lovlar tizimi muhim ahamiyatga egadir.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar va to'lovlarning iqtisodiy asosiy ijtimoiy mulk hisoblangan tabiiy boyliklardan foydalanish hisoblanadi. Resurs soliqlari va to'lovlarida asosiy

manbani daromad va mulk tashkil etib, to'lovlar asosini yer uchun olinadigan to'lovlar (renta) tashkil qiladi. Shuning uchun ham aksariyat adabiyotlarda mazkur soliqlar va to'lovlar renta xususiyatiga egaligi e'tirof etiladi.

Yer uchun olinadigan to'lovlar turlarini, tabiiy manbalardan foydalanishda olinadigan to'lovlar darajasi tashkil qiladi. Shuningdek, ushbu to'lovlarning xarajati va miqdoriga tabiiy manbaning turi, uning sifat belgilari va foydalanish maqsadlari ta'sir ko'rsatadi. Mazkur soliq turlarini o'ziga xos undirish mexanizmlari mavjud bo'lib, ayni vaqtda soddalashtirilgan soliqqa tortish mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiqligi e'tirof etilmoqda.

Yuqoridagilardan tashqari ushbu tizim tarkibiga ekologik soliqlar va to'lovlar deb nomlanuvchi turli majburiy to'lovlar ham kiritiladi. Bularga tabiiy manbalardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun solinadigan jarimalar, boshqacha qilib aytganda, tabiiy manbalardan foydalanish qoidalarini buzganlik va atrof-muhitga zararli chiqindilar uchun olinadigan mablag'lar iqtisodiy adabiyotlarda ekologik soliqlar deb yuritiladi.

Keyingi yillarda resurs soliqlarining salmog'ini ortib borishi kuzatilmoqda. Bunday tendensiya mazkur soliqlarni bir tomondan budjet daromadlarini potensial moliyaviy manbai hisoblanishi bilan belgilansa ikkinchi tomondan yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga soliqlarning tartibga soluvchilik vazifasini kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati bilan bog'liqdir.

Davlat budjeti daromadlari tarkibida mol-mulk solig'i bo'yicha daromadlar salmog'i ham ortib bormoqda. Mol-mulk solig'i o'zining iqtisodiy tabiati nuqtayi nazardan real soliqlar toifasiga kiritiladi. Mazkur soliqning soliqqa tortiladigan obyekt korxonalar ixtiyoridagi mulklarning balans qiymati hisoblanadi, ya'ni ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijalariga bevosita bog'liq emas.

Mazkur soliq bo'yicha tushumlar samaradorligining ortib borishi mahalliy budjetlar daromad imkoniyatlarini ko'paytiradi. Chunki, mazkur soliq mahalliy byudjetlarning asosiy birlashtirilgan daromad manbasi hisoblanadi.



## 8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari yer solig'i mahalliy soliq sifatida mahalliy budjetni to'ldiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Yer solig'i soliqning maxsus turi sifatida O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi "Yer solig'i to'g'risida"gi qonuniga binoan joriy etilgan. Yer solig'i yerga egalik qilish va yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq sifatida olinadi. Mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy budjetga o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasida yer fondi va ularning toifalarga bo'linishi. O'zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig'imlar tizimi birmuncha mukammal holda 1993-yil 7-maydagi "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida"gi qonun qabul qilinganidan so'ng vujudga keldi. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari. Lalmi ekinzorlar, bo'z yerlar. Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar. Shaharlar va qo'rg'onlarda yer uchastkalari. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalari. Yer solig'ini davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o'rni. Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijara berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijara olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijara berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijara olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara to'lovi tarzda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijara berilgan yer uchastkalarini uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijara olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida foydalaniladigan yer uchastkalarini uchun yer solig'i to'laydi.

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar (bundan buyon ushbu bobda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb e'tirof etiladi.

Ko'chmas mulk ijara berilgan taqdirda, ijara beruvchi soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijara (lizing) berilgan (olingan) ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha ijara oluvchi (lizing oluvchi) soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalarini yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyektidir.

Quyidagi yer uchastkalarini soliq solish objekti sifatida hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, shoxobcha yo'llar, sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi umumiy foydalanishdagi yerlar);

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan erlar;

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog'lari, sayilgohlar, xiyobonlar, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

5) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (bundan ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog'larning yerlari;

6) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bog'lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo'lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan erlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy, qurilish va boshqa chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko'p kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zaxiralar.

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan yer uchastkalari xo'jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular ushbu bobda belgilangan tartibda soliq solish obyekti hisoblanadi.

Quyidagilar soliq bazasidir:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan er uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo'lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

Soliq to'lovchi soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmaganda, soliq bazasi soliqni to'lash nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy sof tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MVt va ko'proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi erlar kiradi:

madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari band qilgan yerlar mustasno) va ijtimoiy ta'minot obyektlari egallagan yerlar;

sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, o'quv-mashq bazalari va bolalar-sog'lomlashtirish oromgohlari egallagan yerlar;

shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari (magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar);

magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sohadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalar atrofidagi o'rmonlar; suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi

o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;

suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg'irlatib, diskret va boshqa) sug'orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar — suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan e'tiboran besh yil muddatga. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organning xulosasi asosida beriladi. Agarda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yoki demontaj qilingan bo'lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi;

qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tqazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tqazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lgan yerlar va o'rmon fondining yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Belgilangan soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkasi respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq o'lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

8.1-jadval

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkasi**

Respublika hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln. so'mda)
Toshkent shahri	208,2
1 zona	166,5
2 zona	124,9
3 zona	83,3
4 zona	41,6
5 zona	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,2
Andijon viloyati	33,0
Buxoro viloyati	26,7
Jizzax viloyati	26,7
Qashqadaryo viloyati	26,7
Navoiy viloyati	26,7
Namangan viloyati	33,0
Samarqand viloyati	33,0
Surxondaryo viloyati	23,5
Sirdaryo viloyati	20,8
Toshkent viloyati	27,6
Farg'ona viloyati	26,7
Xorazm viloyati	26,7

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda, belgilangan bazaviy

soliq stavkalarini asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa — belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida kiritadi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalarini har yili joriy soliq davrining 31-dekabriga qadar qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi. Yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlari ushbu soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to'lovchilarga ma'lumot uchun yetkazishlari kerak.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar uchun soliq stavkalarini qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,25 koeffitsiyent qo'llaniladi:

yagona ishtirokchilari nogironlarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etadigan hamda nogironlarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar egallagan yerlar;

elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

umumiy foydalanishdagi temiryo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temiryo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan



iborat temiryo'l stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temiryo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariya qarshi stansiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar;

samolyotlarning uchish-qa'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;

O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar — qurilishning normativ muddati davrida;

konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar — ularning konservatsiyasi davrida.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo'lgan bonitet balidan kelib chiqqan holda to'lanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o'tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati bo'yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq ikki baravar soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan maydonlar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, shuningdek, samarali foydalanilmayotgan baliq yetishtirish (o'stirish) uchun mo'ljallangan sun'iy suv havzalari joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin. Bunday yer uchastkalariga soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydi.

Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga ushbu qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektlarning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatonmasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi.

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud er uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining to'rt baravari miqdorida belgilanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan konlar va karyerlar band etgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga 0,1 koeffitsiyentini qo'llagan holda to'lanadi.

Soliq har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha — joriy soliq davrining 10-yanvariga qadar;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlar bo'yicha — joriy soliq davrining 1-mayiga qadar.

Soliq to'lovchilar soliqni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 427-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq bazasi (hisoblab chiqarilgan soliq summasi) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinzorlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlari bo'yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 426-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar joriy soliq davrining 10-yanvariga qadar mazkur obyektlarning joylashgan yeri bo'yicha soliq organlariga soliq solish obyekti hisoblanmaydigan, yuridik shaxsda mavjud bo'lgan yer uchastkalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnomani taqdim etadi.

Ko'p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo'lmagan ko'chmas mulk obyektlari bilan band bo'lgan yer uchastkalari bo'yicha soliq turar joy bo'lmagan ko'chmas mulk obyektining qavatlar soniga bo'lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

aylanmadan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;

aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1-sentabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1-dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

### 8.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga asosan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini soliq to'lovchilari (bundan buyon ushbu bobda soliq to'lovchi deb yuritiladi) deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imoratlar va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini inobatga olgan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ining soliq solish obyektidir:

- 1) dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek, yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari;
- 4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;
- 5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- 6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;
- 7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi, bundan yuqorida 7-bandda ko'rsatilganlar va ko'p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari mustasno.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining maydoni soliq bazasidir.

Dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 428-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari bo'yicha soliq bazasi ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yer maydonlari bo'yicha soliq bazasi o'z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota va onadan biri yoxud ota-ona vafot etgan ko'p bolali oilalar spliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Ushbu imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironligi bo'lgan shaxsning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar — qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga. Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida beriladi.

Respublika hududlari kesimida bazaviy soliq stavkalari 1 kv. m uchun mutlaq o'lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi (bundan dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar mustasno).

**Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari**

<b>Respublika hududlari</b>	<b>1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi (so'mda)</b>
Toshkent shahri	
1 zona	1193,6
2 zona	1013,2
3 zona	832,6
4 zona	652,3
5 zona	471,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	245,0
Andijon viloyati	297,6
Buxoro viloyati	245,0
Jizzax viloyati	245,0
Qashqadaryo viloyati	245,0
Navoiy viloyati	245,0
Namangan viloyati	297,6
Samarqand viloyati	297,6
Surxondaryo viloyati	221,6
Sirdaryo viloyati	191,8
Toshkent viloyati	252,2
Farg'ona viloyati	245,0
Xorazm viloyati	245,0

Soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda belgilanadi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda, belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

soliq qonunchiligiga ko'ra tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga Toshkent shahri uchun esa

—belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida kiritadi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining 31-dekabriga qadar qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi.

Dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarga soliq stavkasi qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijara berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo'yicha undiriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 436-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek normativ muddatida qurilishi tugallanmagan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonada yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to'lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda



foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

Jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi turar joy qurish va obodonlashtirishga berilgan tomorqa yer uchastkalariga yakka tartibdagi uy-joy qurishga berilgan yer uchastkalari uchun belgilangan stavka qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida, dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar bo'yicha esa — qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning normativ qiymatini aniqlovchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari har yili 1-martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirib yoki to'lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to'lovchiga soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Ko'p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo'lmagan ko'chmas mulk obyektlari bilan band bo'lgan yer uchastkalari bo'yicha soliq turar joy bo'lmagan ko'chmas mulk obyektining qavatlar soniga bo'lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq er uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e'tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Soliq

bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash jismoniy shaxslar tomonidan 15-aprel va 15-oktabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

#### **8.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste'mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

faoliyatini O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalari orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;

suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;  
dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv uchun soliqni to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;

2) sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab

chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektrostansiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;

6) issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;

7) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari;

8) kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari.

Soliq qonunchiligiga ko'ra foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasidir.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lhagich asboblari ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lhagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suvni iste'mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15-yanvariga qadar taqdim etishi kerak. Soliq organlari uch kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Issiqlik suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Binolarning bir qismi, alohida inshootlar ijaraga berilganda soliq bazasi suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijaraga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to'laydi.

Suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ har yili joriy soliq davrining 10-dekabridan kechiktirmay qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaligida, suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga, dehqon xo'jaliklari bo'yicha esa — hisobot davri uchun kelgusi yilning 20-yanvaridan kechiktirmay suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish joyi bo'yicha soliq organlariga — soliq bazasini aniqlash uchun ular tomonidan ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmini taqdim etadi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq bazasi soliq organlari tomonidan suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ taqdim etgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun'iy suv obyektlaridan olingan va ushbu suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladiganlar mustasno, o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning

imkoni bo'lmagan taqdirda, soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste'molining normativlariga ko'ra aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to'lovchilar soliq bazasini tabiiy suv obyektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Soliq to'lovchi soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq bazasi qaysi faoliyat bo'yicha soliq to'lash sof tushumning umumiy hajmida nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste'mol idishidagi tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Soliq solish obyekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo'lgan bir necha turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va tegishli soliq stavkalari bo'yicha soliq to'lashlari shart.

Belgilangan limitlar doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o'lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi.

*8.3-jadval*

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari**

T/ r	Soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ekti	I kub. m uchun soliq stavkasi (so'mda)	
		yer usti suv	yer osti suv

	resurslari manbalari	resurslari manbalari
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2 – 6-bandlarda ko'rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	182	221
2. Sanoat korxonalari	472	564
3. Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	70	90
4. Qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish va baliqlarni o'stirish (yetishtirish) uchun foydalanilgan suv hajmi qismi, shu jumladan dehqon xo'jaliklari	40	40
5. Avtotransport vositalarini yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmi	1990	1990
6. Alkogolsiz ichimliklar hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	25 185	25185

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo'yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek, avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari mustasno – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan – joriy soliq davrining 15-dekabrigacha;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – soliq davridan keyingi yilning 20-yanvarigacha.

Soliq organlari soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasini dehqon xo'jaliklariga soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiradi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek dehqon xo'jaliklari mustasno.

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 20-yanvarigacha, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Soliq davri davomida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgarganda, soliq to'lovchi soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo'nak to'lovlarga soliqning o'zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar summasi soliq hisobotida ko'rsatilgan budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo'nak to'lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan soliqni to'lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.

### **8.5. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq**

Yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib oluvchi, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib oluvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirishni, foydali qazilmalarni qazib olishni, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar deb e'tirof etiladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo'yicha soliq to'lovchilar bo'lmaydi.

Foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi foydali qazilmalarning haqiqiy yo'qotishlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmaning zaxirasi qaysi foydali qazilmaning miqdoriga kamaytiriladigan bo'lsa, o'sha foydali qazilmaning hisoblangan miqdori va foydali qazilmani qazib olishning (ajratib olishning) to'liq



texnologik sikli yakunlangach aniqlangan, haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma miqdori o'rtasidagi farq foydali qazilmaning haqiqiy yo'qotishlaridir.

Soliq solish obyekti foydali qazilmaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar soliq solish obyektidir:

qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar (shu jumladan birga qo'shilib chiqadigan);

foydali qazilmalardan, mineral xomashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;

sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan qazib olingan uglevodorodlar, shu jumladan birga qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi qazib olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar;

ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni yopiq texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlama qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi;

soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) noruda foydali qazilmalar, bundan qayta ishlangan va realizatsiya qilingan foydali qazilmalar hajmi mustasno.

Soliq bazasi yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga, shu jumladan asosiy foydali qazilmani qazib olishda birga chiqadigan foydali komponentlarga nisbatan aniqlanadi.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo'yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) ularning naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali alohida aniqlanadi.

Hisobot davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foydali qazilma umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi. Bunda, soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida shakllangan o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Qazib olingan foydali qazilmaning bir qismi realizatsiya qilinib, qolgan qismidan o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda, foydali qazilma bo'yicha soliq bazasi realizatsiya qilingan ushbu foydali qazilmaning o'rtacha olingan realizatsiya qilish narxidan kelib chiqib aniqlanadi.

Foydali qazilmadan o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday foydali qazilmalar uchun soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmani ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) 0 foizli stavka bo'yicha soliq solish foydali qazilmalarning normativ yo'qotishlariga taalluqli qismi bo'yicha amalga oshiriladi. Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) konlarda foydali qazilmalarni qazib olishning qabul qilingan sxemasi va texnologiyalari bilan texnologik bog'liq holdagi, vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tasdiqlanadigan normalar doirasidagi yo'qotishlar normativ yo'qotishlardir.

*8.4-jadval*

**Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari**

Soliq solinadigan obyektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
-----------------------------------	-----------------------------

<b>I. Asosiy va birga qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun</b>	
<b>Energiya manbalari:</b>	
Tabiiy gaz	30
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	9
Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
Gaz kondensati	20
Neft	20
Tosh ko'mir	4
Qo'ng'ir ko'mir	4
Yonuvchi slanslar	4
<b>Rangli, nodir va radioaktiv metallar:</b>	
Tozalangan mis	10
Molibdenli sanoat mahsuloti	10
Reniy	10
Konsentratlangan qo'rg'oshin	8
Metall rux	10
Volfram konsentrati	10,4
Uran	10
Selen	10
Tellur	10
Indiy	10
Vismut	10
<b>Asl metallar:</b>	
Oltin	10
Kumush	10
Palladiy	10
Platina	10
Osmiy	10
<b>Nodir tosh xomashyosi:</b>	
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zebziynat uchun toshlar xomashyosi	24
Feruza, listvenit, rodonit, zmeevik, marmar yo'l-yo'l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedon,	24

aqiq, gematit	
<b>Qora metallar:</b>	
Temir	5
Titan-magnetitli rudalar	4
Marganets rudalari	4
<b>Kon-kimyxo xomashyosi:</b>	
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	3,5, biroq 10000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Kaliy tuzi	3,5
Sulfat tuzi	3,5
Fosforitlar (donasimon)	5
Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Ohaktoshlar (soda uchun va Biox texnologiyasi bo'yicha sanoat chiqindilarini tozalash)	3,5
Mineral (loysimon, temirokisli, karbonatli) pigmentlar	5,5
Yod	4,8
Qishloq xo'jaligi ruda xomashyosi (glaukonit, bentonitli gil, urug'simon va tabiiy foydalaniladigan hamda jelvakli fosforitlar)	3,5
<b>Kon-ruda xomashyosi:</b>	
Eruvchan shpat	21,2
Tabiiy grafit	8
Birlamchi kaolin (konsentrat), realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	7,9
Ikkilamchi kaolin, realizatsiya qilingan hajmiga doir	7,9
Dala shpati xomashyosi (pegmatit, dala shpati, felzit, leykokratli granit, kvars-dala shpati xomashyosi)	6,5
Kvars qumlari (shisha)	3
Qumtosh (shisha)	5

Bentonitli loy (burg'ulangan eritmalar)	4,8
Talk va talk toshi	4
Talkli magnezit	4
Vollastonit	4
Asbest	4
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4
Barit konsentrati	4
O'tga chidamli, qiyin eruvchan gillar	4
Ohaktoshlar, dolomitlar (shisha, metallurgiya uchun, o'tga chidamli), flyus ohaktosh	5, biroq 11500 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Kvars va kvarsit (shisha, texnik kremniy, silikomargans, dinalar ishlab chiqarish uchun)	6,5
Qoliplash xomashyosi (qumlar, loylar)	4
Vermikulit	4
Mineral paxta uchun xomashyo (dolomit, tog' jinslari)	5
Hayvonlar va qushlarni oziqlantirish uchun ohaktosh qobig'i	5
Serpentinit (o'tga chidamli xomashyo)	5
<b>Qurilish materiallari:</b>	
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari sement xomashyosi (mergeli, loylar, slanslar, lyossimon jinslar, qumoqsimon, loysimon chig'anoqlar, kaolin, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, bazaltlar, diabazlar, andezibazaltlar, gliejlar, temir tarkibli qo'shimchalar, magnetit – gematitli jinslar, kvars qumi va h.k.)	10
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	45000 so'm/tonna*
Ohak ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	5
Tabiiy bezaktoshdan bloklar (ohaktosh, ohaktosh-chig'anliq, ravertin simon ohaktoshlar, mramor, granit, granodiorit,	5, biroq 20000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan

granosienit, nefelinli sienit, gabbro, granosienitporfir, kvarts porfiridagi ignimbritlar, liparito-datsitlar, vulqon tufi, vulqon jinslari, qumtosh)	
Marmar ushug'i	5, biroq 17000so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Keramzit xomashyosi (bentonit va loy jinslari)	5
G'isht-cherepitsa xomashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, lyosslar, zichlovchi sifatida qumlar va boshqalar)	5, biroq 7000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Gips toshi, gips va anhidrid, ganch	5, biroq 9500so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5, biroq 7000so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Sohilni himoya qilish ishlari uchun xom ashyo (ohaktoshlar, porfirritlar, granitlar)	5, biroq 10000so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Qurilish qumi	5, biroq 7 500 so'm/kub. m dan kam bo'lmagan
Qum-shag'al aralashmasi	5, biroq 7 500 so'm/kub. m dan kam bo'lmagan
Qumtoshlar	5, biroq 7 500 so'm/kub. m dan kam bo'lmagan
Ohaktosh-chig'anoq	5, biroq 12500so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5, biroq 7 500 so'm/kub. m dan kam bo'lmagan

Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanets jinslari)	5, biroq 7 500 so'm/kub. m dan kam bo'lmagan
Farfor xomashyosi (farfor toshi, loyli oq quyuglashuvchi slanets)	5
To'g'on qurish uchun xomashyo (tosh-shag'al materiallari, lyossimon jinslar, qum, bentonitli loy, ohaktoshlar)	5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5
<b>2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar</b>	Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun stavkani 30 %

\* Sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek sement xom ashyosi — ohaktoshni realizatsiya qiladigan yer qariidan foydalanuvchilar belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq to'laydi. Sement ishlab chiqarish uchun ko'mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

Asl, rangli, noyob va radioaktiv metallarni qazib olishni amalga oshiruvchi alohida soliq to'lovchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

bo'yicha kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

bo'yicha quyidagilar hisobot davridir:

yuridik shaxslar uchun — bir oy;

jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

Soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda soliq hisoblab chiqariladi.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo'yicha soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan, lekin belgilangan soliq summasidan kam bo'lmagan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turgan joydagi, noruda foydali qazilmalar bo'yicha esa — qazib olish amalga oshirilgan joydagi soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan — ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

jismoniy shaxslar tomonidan — yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay.

Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yuridik shaxslar tomonidan — har oyda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan — soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Yuridik shaxslar to'laydigan yer solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi.
2. Yagona yer solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi.
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlarning qo'llanilishi.
5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.

### **TESTLAR**

#### **1. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to'laydilar?**

- A. O'zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan
- B. O'zbekiston Respublikasidagi manbalaridan
- C. O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan



D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan muvofiqlashtiriladi

**2. Proporsional soliq stavkasining mohiyati nimadan iborat?**

- A. Soliqqa tortish obyekti qanday bo'lishidan qat'i nazar soliq stavkasi o'zgarmaydi
- B. Soliq obyektining o'zgarishi bilan o'z navbatida soliq stavkasi o'zgaradi
- C. Soliq obyektining oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi
- D. Soliq to'lovchining moliyaviy holatiga ko'ra o'zgarib boradi

**3. Qat'i soliq stavkasi qanday birlikda belgilanadi?**

- A. Pul birligi so'mda
- B. Foizda
- C. Gektarda, sotixda
- D. Foizli va so'mda

**4. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan bazasi to'g'ri berilgan?**

- A. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlar
- B. Yer uchastkalarining inventarizatsiya qiymati
- C. Yer uchastkalarining bozor qiymati
- D. Yer uchastkalarining me'yoriy qiymati

**5. Qaysi javobda mol-mulk solig'ini to'lovchilar to'g'ri keltirilgan?**

A. Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, shuningdek dehqon xo'jaliklari

B. II guruh nogironlari

C. Fermer xo'jaliklari

D. Uchala darajadagi "Shuhrat" ordeni bilan taqdirlanganlar

**6. Qaysi qatorda soliq to'lash shakllari to'g'ri keltirilgan?**

A. Naqd pul yoki naqd pulsiz

B. So'mda va chet el valutasida

C. Bo'nak va to'liq

D. Faqat naqdsiz ko'rinishda

**7. Quydagilarning qaysi biri soliq obyektini hisoblanadi?**

A. Daromad, foyda, oborot, realizatsiya, tovarning fizik hajmi, ishlab chiqarilgan tovar eksporti

B. Tomorqa daromadi, tovarning fizik hajmi, realizatsiya, daromad

C. Intellektual mulk, mol-mulk, realizatsiya, yordam puli

D. Daromad, pul tushumi, oborot, yer ushastkasi, meros

**8. Quyida keltirilgan qaysi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan obyektini hisoblanmaydi?**

A. Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari

B. Dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari

C. Yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari

D. Jamoa bog' dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari

**9. Respublikamizda yer solig'ini kadastrli usulda undirishda nima hisobga olinadi?**

- A. Yerning unumdorligiga
- B. Yerdan foydalanayotgan shaxsga
- C. Egasining huquqiy maqomiga
- D. Yerning hajmiga

**10. Soliq manbayi korxonalarda nima?**

- A. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan yalpi tushum
- B. Soliq to'lanadigan daromad
- C. To'lash tegishli bo'lgan daromad miqdori
- D. Tovarlar sotish oboroti

## **9-BOB. SOLIQ IMTIYOZLARI**


- 9.1.** Soliq to'lovchilar faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmi.
- 9.2.** Soliq imtiyozlari va preferensiyalari.
- 9.3.** Soliq imtiyozlarini taqdim etish yo'nalishlari.

### **9.1. Soliq to'lovchilar faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmi**

Jahon soliq amaliyotida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirishda hukumat tomonidan aniq belgilab olingan dasturlar ishlab chiqiladi. Respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Davlat dasturi va mazkur dastur doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida sohada yuqori natijalar qo'lga kiritildi.

Soliq imtiyozlari deganda soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga taqdim etiladigan va ularga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan o'z soliq majburiyatlarini qisqartirishga huquqiy jihatdan imkoniyat beradigan ustunliklar tushuniladi. Soliq imtiyozlari barcha soliq to'lovchilarga taqdim etilgan taqdirda ham ularni belgilashdan maqsad ularni kiritishdan nisbiy foyda boshqalarga qaraganda kattaroq bo'lgan soliq to'lovchilarning ma'lum bir qisminigina qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Mamlakatimizda xo'jalik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlarini quyidagi chizma orqali ko'rib o'tamiz.



### **9.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish yo'nalishlari**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirishda soliq imtiyozlari va preferensiyalaridan keng foydalaniladi. Barchamizga ma'lumki, soliq imtiyozlari soliqqa tortish tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Soliq munosabatlariga oid nazariyalar va soliqqa tortishning amaldagi konsepsiyalarida soliq imtiyozlarini taqdim etishning ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlari e'tirof etiladi.

Respublikamizda keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish, ular moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida soliq stavkalarini pasaytirish, soliq imtiyozlari va preferensiyalarining turli shakllardan keng foydalanilib kelinmoqda.

### **9.2. Soliq imtiyozlari va preferensiyalari**

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaqlik yoki ularni

kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchiga soliqlarni to'lash bo'yicha muddatni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyati berilishi soliq imtiyozlari hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq imtiyozlari Soliq Kodeksi bilan taqdim etiladi.

Taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas.

Ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar soliqlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran ularning butun amal qilish davri mobaynida foydalanishga yoki soliq imtiyozidan foydalanishdan voz kechishga yoxud undan foydalanishni bir yoki bir necha soliq davrlarida to'xtatib turishga haqli, bundan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish mustasno.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag'lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag'lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so'ng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar budjetga o'tkazilishi lozim.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar, shu jumladan tovarlar O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kiritilishida (importida) soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan, berilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliqlarni to'lashdan ozod etiladi, bundan ijtimoiy soliq va O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kirishda (importida) to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i mustasno.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort obyektlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig'i va yer solig'ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to'lashdan ozod qilish huquqiga ega.

Soliq imtiyozlari va preferensiyalarini joriy etishning umumiy va asosiy maqsadi soliq to'lovchilar faoliyatiga soliq yukini kamaytirishdir. Biroq, ularni ta'minlash mexanizmlari farq qiladi. Soliq imtiyozlari soliq idoralari tomonidan ko'proq nazorat qilinadi va boshqariladi, chunki ular soliq to'lovchilarning soliq hisobotlarida alohida-alohida e'lon qilinadi, bu esa aniq miqdorlarni qaytarib olish va budjet yo'qotishlarini kuzatishga imkon beradi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari statistik soliq hisobotida maxsus shakllar yordamida taqsimlanadi. Biroq, afzalliklar bunday hisobotlarda hujjatlashtirilmagan.

Soliq imtiyozi soliq to'lovchining soliq bazasini yoki soliq miqdorini kamaytirishga (yoki umuman to'lamaqlikka) bo'lgan huquqi yoki istagi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Soliq imtiyozlari shaxsiy daromad solig'i bo'yicha ijtimoiy va mol-mulk solig'i bo'yicha chegirmalarni o'z ichiga oladi, agar ular soliq to'lovchiga ularni olishni istasa va soliq organlariga ariza topshirsa taqdim etiladi.

Preferensiya, o'z navbatida, soliq bazasini yoki soliq miqdorini kamaytirish uchun soliq to'lovchining vazifasi sifatida qaralishi kerak. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha eksport va import operatsiyalari bo'yicha 0% stavka eksport va import operatsiyalarini

amalda soliqqa tortmaslik, shuningdek, ushbu operatsiyalar uchun chegirma olish imkonini beradi, agar bu operatsiyalar soliq to'lovchida bo'lmagan bo'lsa QQSga tortilmaydi.

Zamonaviy soliq tizimida 200 ga yaqin turli xil imtiyoz va preferensiyalarni o'z ichiga oladi. Yangi va ko'p sonli imtiyozlarning joriy etilishi mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirmasligi aniq. Ularning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish kerak. Buning uchun soliq imtiyozlari samaradorligini, ularni doimiy kuzatib borish orqali baholash zarur. Shunday qilib, soliq siyosatining eng muhim sohasida, yangiliklarni taklif qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda, yangi soliq imtiyozlarini yaratishga emas, balki amaldagi soliq tizimini to'g'rilashga yo'naltirilgan vektor belgilandi.

Soliq imtiyozining iqtisodiy samaradorligi – bu soliq imtiyozlari joriy qilingan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy subyektlarga ta'sir o'tkazish qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi ikki asosiy yo'nalishda ifodalanadi, ya'ni:

- rag'batlantirishning iqtisodiy samarasiga to'liq erishish kerak, rag'batlantirish iqtisodiyotning ma'lum bir obyektiga ta'sir qilishi kerak;
- budjetga tushadigan mablag'lar miqdori soliq imtiyozlarini joriy etishning iqtisodiy samarasi bilan taqqoslanishi kerak.

Bugungi kunga kelib, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash uchta asosiy mezon bo'yicha amalga oshirilmoqda, ular davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari asosida ajratiladi: byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy.

Budjet samaradorligi soliq imtiyozining budjet daromadlariga ta'sirini belgilaydi va imtiyozlar berishdan kelib chiqadigan budjet yo'qotishlarini uni qo'llash natijasida paydo bo'ladigan soliq to'lovlarini ko'payishi bilan taqqoslash yo'li bilan hisoblanadi.

Agar soliq imtiyozlaridan foydalanish mintaqa aholisini ijtimoiy muhofaza qilishning o'sishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, fuqarolar daromadlarining ko'payishiga va ularning hayoti uchun qulay sharoitlarning yaratilishiga yordam beradigan bo'lsa, ijtimoiy samaradorlik ijobiy deb tan olinadi.

Va nihoyat, imtiyoz berishning iqtisodiy samarasi ushbu imtiyozdan foydalangan soliq to'lovchilarning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari yaxshilanishini nazarda tutadi.

Bugungi kunga qadar soliq qonunchiligining barcha tarkibiy tuzilmalari va ularning belediyeleri soliq imtiyozlari samaradorligini



baholash usullarini qabul qildilar. Biroq, ular turli xil baholash ko'rsatkichlaridan, ularni hisoblashda turli xil yondashuvlardan foydalanadilar, ba'zi usullar faqat iqtisodiy samaradorlikni baholashga qaratilgan, boshqalari faqat soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligini tekshiradi va faqat mahalliy soliqlar bo'yicha; ko'plab hududlarda ushbu usullar mavjud, ammo ular foyda samaradorligini baholamaydilar. Shu bilan birga, hech qanday usul soliq imtiyozlarini berish natijasida bo'shatilgan mablag'larni sarflash yo'nalishlari to'g'risida soliq to'lovchining hisobotini nazarda tutmaydi.

Qonunchilik darajasida mustahkamlangan soliq imtiyozlari samaradorligini baholash ko'rsatkichlarining yagona va umumlashtirilgan tizimining yo'qligi soliq imtiyozlaridan soliq tizimining vositasi sifatida foydalanishni, ularni kuzatishni va ularni yanada uzaytirish to'g'risida keyingi qarorlarni qabul qilishni murakkablashtiradi.

### 9.3. Soliq imtiyozlarini taqdim etish yo'nalishlari

«Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident farmonida YATTni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun har oyda to'lab boradigan ikkita soliq bo'yicha imtiyozlar berildi. Bu imtiyozlar 2020-yil 1-apreldan 1-oktabrga qadar amal qildi.

- Barcha YATTlar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 50 foizga kamaytirildi. Ya'ni, hozirda YATT soliqqa har oyda 223 ming so'm to'lab kelayotgan bo'lsa, endi 111,5 ming to'laydi. Bu me'yor markazlashgan holda DSQ tomonidan dasturiy mahsulga tegishli o'zgartirish kiritish orqali amalga oshiriladi va 1-apreldan boshlab avtomatik tarzda ijtimoiy soliq 50 foizga kamaytirilgan holda hisoblanadi.

- Faoliyati turizm sohasi bilan bog'liq YATTlardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summalarini 30 foizgacha kamaytirish masalasi belgilandi. Bu me'yor joylardagi Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari qarori orqali amalga oshiriladi.

- YATTlar ushbu soliqqa faoliyat turi va faoliyatini amalga oshirish joyiga qarab 50 ming so'mdan 750 ming so'mgacha soliq to'laydi.

- Mol-mulk, yer va suv soliqlari bo'yicha qarzdorlik undirilmasligi, penya hisoblanmasligi ham avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Agar,

ushbu mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash bo'yicha foizlarni undirmasdan 6 oyga kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) bo'yicha mahalliy davlat hokimiyatga ariza bilan murojaat qilish kerak bo'ladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar uchun ham soliq imtiyozlari berilishi bo'yicha ma'lumot berildi.

• Unga ko'ra, qishloq xo'jaligi korxonalari tovar aylanmasi 1 mlrd so'mdan kam bo'ladigan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliq to'laydi. Agar ko'p bo'lsa QQS to'lovchisi bo'ladi. Asosiy faoliyati, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash bilan bog'liq mol-mulk bo'yicha mulk solig'i to'lamaydi. Yer solig'i hisobotini 1-mayga qadar taqdim etadi. Lekin soliq summasining 30 foizini 1-sentabrga qadar, qolgan qismini (70 foizini) 1-dekabrga qadar to'laydi.

• Suv solig'i 2020-yilda o'rnatilgan stavkalariga ko'ra, 1 kub metr uchun yer usti suv resurslaridan foydalansa 140 so'm, yer osti manbalaridan foydalansa, 170 so'm to'lanishi kerak. Prezident farmoni bilan ushbu soliq bo'yicha stavka, ya'ni qishloq xo'jaligidagi yerlarni sug'orish uchun foydalaniladigan hajmlar bo'yicha 50 foizga pasaytiriladi.

Jumladan, respublikada soliq-budjet siyosatini isloh qilish doirasida xorijiy investorlarga qulayliklar yaratish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Masalan, soliq yukini kamaytirishga qaratilgan ishlar buning yaqqol tasdig'idir. O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasida investitsiyalarning va O'zbekiston Respublikasi budjeti daromad qismi o'sib borishini rag'batlantiradigan zamonaviy yumshoq soliq tizimini yaratish vazifalari belgilandi.

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq yukini izchillik bilan kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan.

Bunda to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda resurs soliqlari bo'yicha imtiyozlar beriladi:

• 300 ming AQSH dollaridan 3 mln. AQSH dollarigacha – 3 yil muddatga;

• 3 mln. AQSH dollaridan ortiq 10 mln. AQSH dollarigacha – 5 yil muddatga;

• 10 mln. AQSH dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga (PF-3594).

SHuningdek, mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarda xorijiy sarmoyalar hisobiga tashkil etilgan korxonalar ham resurs soliqlaridan ozod etilgan.

Mazkur imtiyozlar kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha, jumladan:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 mln. AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 3 yil muddatga;

- 3 mln. AQSH dollaridan 5 mln. AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 5 yil muddatga;

- 5 mln. AQSH dollaridan 10 mln. AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 7 yil muddatga (PF4853).

“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida investitsiyaga oid soliq krediti investorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga investitsiyaga oid soliq krediti berilishi va ushbu kredit bo‘yicha to‘lashi kerak bo‘lgan soliq to‘lovlarini, kredit summasini va hisoblangan foizlarni Soliq kodeksiga muvofiq keyinchalik bosqichma-bosqich to‘lagan holda kamaytirish imkoniyati beriladi.

Bu o‘z o‘rnida Jahon hamjamiyati va Markaziy Osiyo davlatlari orasida O‘zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni jalb etishdan manfaatdor ekanligini e‘tirof etadi.

Kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish uchun sharoitlar yaratilishi hisobiga, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarining soni 82,4 mingga yetdi yoki soliq islohotlarining boshlanishiga nisbatan 12,2 baravarga oshdi.

2019-yilda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o‘tdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi.

2019-yilda xorijiy sarmoyalar bilan tashkil topgan korxonalarda 140 ta korxonalar tomonidan 113 mlrd. so‘mlik soliq imtiyozlaridan foydalanilgan.

Hozirda yurtimizda ko‘plab xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tuzilmoqda va ular turli xil tarmoqlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining o‘sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotganligi bilan izohlanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi.
2. Soliq imtiyozlarining huquqiy asoslari.
3. Soliq imtiyozlari va preferensiyalarining o'zaro o'xshash tomonlari.
4. Soliq imtiyozlarining taqdim etish shartlari.
5. Pandemiya sharoitida taqdim etilgan soliq imtiyozlarining yo'nalishlarini tushuntirib bering.

## TESTLAR

### 1. Soliq imtiyozining turlarini ko'rsating.

- A. To'liq, qisman, vaqtinchalik
- B. Butunlay ozod etish, oz muddatga ozod etish
- C. Vaqtincha, uzoq muddatga, to'liq
- D. Qisqa muddatga, uzoq muddatli, butunlay

### 2. Soliq imtiyozlari ...

- A. Soliq to'lovchilarning ayrim guruhlariga turli xildagi soliq yengilliklari va afzalliklari
- B. Soliq to'lovchilarga soliq to'lashdan bo'yin tovlagan qismi
- C. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beruvchi soliq summalari
- D. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod qilish shakli

### 3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qaysi soliqlarni o'z ichiga oladi?

- A. Aylanmadan olinadigan soliq, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.
- B. Yagona soliq, yagona yer solig'i, yagona ijtimoiy to'lov
- C. Yer solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari uchun qat'iy belgilangan soliq
- D. Yagona ijtimoiy to'lov, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari uchun qat'iy belgilangan soliq

### 4. Soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushunchalar o'zida nimani aks ettiradi?

- A. Soliq elementlarini

- B. Soliq stavkalarini
  - C. Soliq imtiyozlarini
  - D. Soliq ko'rsatkichlarini
- 5. Soliqqa tortishning amaldagi prinsiplariga asosan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshi holat yuzaga kelsa....**
- A. Soliq to'lovchining foydasiga hal qilinadi
  - B. Soliq undiruvchining foydasiga hal qilinadi
  - C. Davlat soliq xizmati organi foydasiga hal qilinadi
  - D. Mahalliy hokimiyat organi foydasiga hal qilinadi
- 6. Soliqqa tortishning qanday usullari mavjud?**
- A. Kadastrli, deklaratsiya, manba oldida soliqqa tortish
  - B. To'g'ri va egri
  - C. Bevosita va bilvosita
  - D. Kadastrli, deklaratsiya
- 7. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan soliq yuki qaysi darajada aniqlanadi?**
- A. Mikrodarajada soliq yuki
  - B. Makrodarajada soliq yuki
  - C. Mezodarajada soliq yuki
  - D. Absolut soliq yuki

## **10-BOB. Qo'shilgan qiymat solig'i**

- 10.1. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy mohiyati va rivojlanish bosqichlari.
- 10.2. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza.
- 10.3. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari va nol darajali stavkaning qo'llanilishi.
- 10.4. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va budjetga to'lash mexanizmi.


### **10.1. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy mohiyati va rivojlanish bosqichlari**

Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1992-yilda joriy etilgan bo'lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo'lib 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992-yil 30-martdagi «Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi» yo'riqnoma hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ining obyektiv zarurligini davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan ifodalash mumkin. Mamlakatimizda xilma-xil mulk shakllarining paydo bo'lishi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ular faoliyatiga aralashuvi faqat qonun yo'li bilan, ya'ni soliqlar jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i orqali bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining rivojlanish bosqichlari Davlat budjetining daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'idan foydalanish 1919-yilda vujudga kelgan. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor Germaniyada 1919-yilda Vilgelm fon Simens tomonidan «Veredelte Umsatzsteuer» nemischa mukammallashtirilgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilib, bu soliq turi qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954-yilda taklif qilingan va 1960-yilda Kot-d Ivuar Respublikasida joriy etildi va Fransiya soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan. Dunyo mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'i undirish tartibi dastlab 1954-

yilda fransuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog'liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida 1992-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan.



Qo'shilgan qiymat solig'i joriy ichki iste'mol uchun soliq hisoblanadi. Shu sababli kapitaldan daromadlar ushbu soliq obyekt bo'lmaydi, shu bilan birga ichki jamg'arma soliqqa tortilmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining afzalliklari sifatida qayd etish kerakki, mazkur soliq boshqa soliqlardan farqli o'laroq iste'molchi tanlovining o'zgarishiga juda past darajada ta'sir ko'rsatadi. Demak, asosi barcha tovarlar xizmatlar hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i iste'molchiga sotiladigan va sotilmaydigan moddiy ne'matlar o'rtasida tanlash huquqini beradi.

Umumiy nuqtayi nazardan olib qaraganda iste'molga soliq sifatida qo'shilgan qiymat solig'ining regressiv xarakteri shuni ifodalaydiki, aholining kam daromadli qatlami yuqori daromadli qatlamiga nisbatan o'z daromadining ko'proq qismini iste'molga sarflaydi, pirovardida kam ta'minlangan oilalar daromadining ko'proq qismini qo'shilgan qiymat solig'i sifatida to'laydi. Biroq, iste'molchining jamg'armani to'liq sarflash sharoitidagi hayotiy tsiklini ko'rib chiqadigan bo'lsak qo'shilgan qiymat solig'ining regressiv xarakteri yo'qolib boradi.

Mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish va to'lov balansini yaxshilash maqsadida odatda eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etiladi. Shu munosabat bilan importga nisbatan yagona ijobiy stavka va eksportga nisbatan nol stavkali qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishining ta'siri makroiqtisodiy nuqtayi nazardan milliy valuta devalvatsiyasi ta'siri bilan teng hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ajratib turuvchi muhim jihatlardan biri birinchi navbatda mehnat taklifi miqdoriga ta'siri bilan bog'liq.

Umumiy holatda aholining nisbatan past daromadli qismi daromad samarasini hisobiga mehnat taklifi o'sishiga erishilishi bilan bir vaqtning o'zida jamg'armani qisqartirishni xohlamaydigan aholining boy qatlami mehnat taqsimoti hamda bo'sh vaqtiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Boshqacha aytganda, past daromadga ega aholi qatlami qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi pasayishi bilan o'zining moliyaviy holatini saqlab turish maqsadida vaqtini va daromadini qayta taqsimlashga ehtiyoj sezadi.

Izlanishlarimiz natijasida aniqlandiki, ko'pchilik mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i savdoga soliqqa alternativ sifatida joriy qilingan. Savdoga soliqqa nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishining quyidagi xususiyatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1) aksariyat mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i ulgurji savdoga soliqqa o'rniga joriy qilingan, bu holat ishlab chiqarishning vertikal integratsiyasini rag'batlantiradi. Qo'shilgan qiymat solig'ining qo'llanilishi iste'molga soliqlarni narxga munosabati nisbatan neytralligini, ishlab chiqarish va iste'molning samaradorligini hamda iste'molchi tanlovini ta'minlaydi. Qo'shilgan qiymat solig'ini tizimida korxonalar va tashkilotlar xaridiga emas uy xo'jaligi iste'molini soliqqa tortilishini keltirib chiqaradi;

2) qo'shilgan qiymat solig'i nisbatan kengroq soliq solinadigan bazaga ega bo'ladi, u orqali nafaqat chakana savdo shu bilan birga so'nggi iste'molchi sifatida korxonaning butun noishlab chiqarish xaridi, shuningdek, o'z ehtiyojlari uchun korxonaning o'zi tomonidan bajarilgan ishlar ham soliqqa tortiladi. Soliq vositasida korxonaning barcha faoliyati uchun xaridi, ushbu soliqdan ozod etilgan qismidan tashqari soliqqa tortiladi;

3) qo'shilgan qiymat solig'i hududiylik tamoyili orqali xalqaro savdoda narxlardagi soliq yo'qotishlarining qisqartirish imkonini beradi, ya'ni yo'qotishlarini narxlarini yoki ishlab chiqaruvchi narxlarini tenglashtirish imkonini beradi;

4) qo'shilgan qiymat solig'ini undirishda xalqaro amaliyotda qabul qilingan schyot-fakturalar asosida hisoblash usuli oson boshqariluvchi va soliqlarni to'lashdan qochishdan saqlashning samarali qo'riqlanish imkonini beradi, ya'ni mazkur tizim umumiy soliq majburiyatlarining hajmini har bir mahsulot bo'yicha bir necha



to'lovchilar – ishlab chiqarish-tijorat jarayonida ishtirok etuvchilar o'rtasida taqsimlaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq to'lovchilar uchun quyidagi ustunliklarini e'tirof etishda qo'shilgan qiymat solig'i qulay pul potokiga ega bo'lishi, ya'ni korxonaga hisobraqamiga soliq to'lovlari uchun haqiqiy tushumlar tushishi bilan uni davlat budjeti o'tkazish muddatlarining turlichaligi. Bu korxonaga ma'lum muddat davomida beminnat mablag'ni idora qilish imkonini berishini alohida qayd etish kerak.

Bugungi kunda qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy stavkasi 15 foiz qilib belgilangan. Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Tovarlarini import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

## **10.2. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza**

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- 2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so'mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- 3) O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa;
- 4) faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;
- 5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha — oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;

6) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyatlari ushbu bo'limda belgilangan hollarda va tartibda soliq agentlari tomonidan bajariladi.

Quyidagilar soliq to'lovchilar deb hisoblanmaydi, bundan yuqoridagi 6-bandida nazarda tutilgan hollar mustasno:

1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari – o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;

2) aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchi shaxslar.

Soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida qo'shilgan qiymat solig'ini (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) to'lovchi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazish hisobida turadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanadi:

1) realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma;

2) O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

Faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmani bunday doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o'tkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassasi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o'zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valuta yoki chet el valutasini muomalasi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish (bundan numizmatika maqsadlari mustasno).

Tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1) tovarga bo'lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo'yicha o'tkazish;

2) tovarni bepul berish, bundan shunday berish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno;

3) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish;

4) tovarni bo'lib-bo'lib to'lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi:

1) pullik asosda xizmatlar ko'rsatish;

2) bepul xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to'lovchining bepul foydalanishi uchun berish, bundan shunday xizmatlarni ko'rsatish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno.

Tovarlarni bepul berish yoki bepul xizmatlar ko'rsatish quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda biriga rioya etilganda iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi deb e'tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan bo'lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlash yoki rivojlantirish uchun zarur bo'lsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi asoslantirilgan bo'lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida quyidagilar ham tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmadir:

1) yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) ishtirokchilari o'rtasida shunday shartnoma doirasida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

3) quyidagilarga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish):

a) yuridik shaxs ishtirokchilari tarkibidan ishtirokchi chiqqanda (chiqarilganda) yoki uning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoxud ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) yuridik shaxs tomonidan qaytarib sotib olinganda, ishtirokchiga;

b) emitent bo'lgan yuridik shaxs tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olishda, aksiyadorga;

d) yuridik shaxs tugatilganda, aksiyadorga yoki ishtirokchiga;

4) xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan xizmatlar ko'rsatish;

5) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to'lash yoki dividendlar to'lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

6) soliq to'lovchi tomonidan o'ziga tegishli mol-mulkni (xizmatlarni), agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo'yicha soliq summasi to'liq yoki qisman hisobga o'tkazilgan bo'lsa, boshqaruv organi a'zolariga, xodimlarga, ularning oila a'zolariga yoxud boshqa shaxslarga soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko'rsatish);

7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishlash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to'lamasdan joylashtirilgan tovarni yo'qotish, boshqa holatlarda soliqni to'lash zarur bo'lgan taqdirda;

9) qaytarilishi lozim bo'lgan, ko'p marta muomalada bo'ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdagi mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini beruvchi vaucharlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi.

Quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi:

1) tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa va bitim natijasida uning hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo'lsa;

2) tovar jo'natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa.

Agar xizmatlarning xaridori O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxsni (uning filiallarini yoki vakolatxonalarini) yoki jismoniy shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish asosida haqiqatda hozir bo'lsa, mazkur hudud xaridorning faoliyatni amalga oshirish joyi deb e'tirof etiladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan taqdirda, xaridorning O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo'lishi yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan joy yoki uni boshqarish joyi, uning doimiy muassasasi joylashgan yer, jismoniy shaxsning yashash joyi asosida belgilanadi.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan hisobvaraƒ-faktura taqdim etilgan sana yoki tovarlar jo'natilgan (berilgan) sana, agar ushbu sana hisobvaraƒ-faktura taqdim etilgan sanadan oldin kelsa, tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Agar tovarni jo'natish (berish) amalga oshirilmasa, tovarga bo'lgan mulk huquqi xaridorga o'tkazilgan kun tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Ko'chmas mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, ko'chmas mol-mulkni boshqa shaxs tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi shartnomaning taraf-lari tomonidan imzolangan qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha xaridorga ko'chmas mol-mulk berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hisobvaraƒ-faktura yoki boshqa hujjat rasmiylashtirilgan (imzolangan) sana xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Elektr va (yoki) issiqlik energiyasi, suv, gaz, kommunal xizmatlar, aloqa xizmatlari, quvurlar tizimi orqali yuklarni tashishga doir xizmatlar realizatsiya qilinganda, tovarlar (xizmatlar) doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilingan boshqa hollarda tovarlar yetkazib berilgan (xizmatlar ko'rsatilgan) kalendar oyning so'nggi

kuni tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Obyektlar qurilishida, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor holda qurishda, shuningdek uzoq (bir soliq hisoboti davridan ortiq) texnologik davriylikdagi uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha, agar tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar shartlarida xizmatlarni har oyda topshirish nazarda tutilmagan bo'lsa, har bir kalendar oyning oxirgi kuni aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi taraflari tomonidan imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga ko'ra mol-mulk ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) tasarrufiga berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni berishda (xizmatlar ko'rsatishda) aylanma amalga oshirilgan sana deb soliq to'lovchining tegishli ichki hujjati bilan rasmiylashtirilgan, ushbu tovarni berish (xizmatlar ko'rsatish) amalga oshirilgan kun e'tirof etiladi.

Tovarlar eksport bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan holda O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilgan taqdirda, quyidagi sanalar tovarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi:

1) bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona chegarasi haqiqatda kesib o'tilgan sana;

2) bojxonaga oid deklaratsiyalashni amalga oshirgan bojxona organining belgilari qo'yilgan holda tovarlarga taalluqli bojxona yuk deklaratsiyasi ro'yxatdan o'tkazilgan sana – davriy va (yoki) vaqtinchalik bojxonaga oid deklaratsiyalashdan foydalanilgan hollarda.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq o'zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan Soliq kodeksi va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to'lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to'lov, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan haq to'lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida soliq to'lovchining chet el valutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) ushbu O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 242-moddasida belgilangan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valutada qayta hisoblab chiqiladi.

Agar sotuvchi va xaridor o'rtasidagi shartnomada tovarlarga (xizmatlarga) chet el valutasida belgilangan summaga teng bo'lgan summadagi milliy valutada haq to'lash nazarda tutilgan bo'lsa hamda bunda realizatsiya qilingan tovarlarga (xizmatlarga) haq to'langan sana ularni realizatsiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 242-moddasiga muvofiq aniqlanadigan aylanma amalga oshirilgan sanaga to'g'ri kelmasa, mazkur sanalarda chet el valutasida kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday ijobiy yoki salbiy farq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XII bo'limiga muvofiq boshqa daromadlar yoki boshqa xarajatlar tarkibida sotuvchi tomonidan hisobga olinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasiga muvofiq o'z ehtiyojlari uchun soliq solish obyekti deb e'tirof etiladigan tovarlar berilgan (xizmatlar ko'rsatilgan) taqdirda, soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ushbu bobga muvofiq aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 176-moddasi talablarini hisobga olgan holda, aksiz solig'ini (aksiz to'lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi.

Xaridorlarga realizatsiya qilish bo'yicha aylanmani amalga oshirish sanasida chegirmalar (boshqa tijorat bonuslari) bergan soliq to'lovchi soliq bazasini bunday chegirmalar (tijorat bonuslari) chegirib tashlangan holdagi narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlarning (xizmatlarning) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlab realizatsiya qilishda;

2) agar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasi birinchi qismi 2-bandida yoki ikkinchi qismining 2-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko'rsatishda);

3) yuridik shaxsning mol-mulkidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasi to'rtinchi qismi 6-bandiga muvofiq shaxsiy maqsadlarda foydalanishda.

Agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo'lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli. Soliq to'lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor narxlariga muvofiqligini va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo'li bilan nizolashishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan (import qilingan) tovarlarni realizatsiya qilish chog'ida soliq bazasi ushbu tovarlarni olib kirish (import qilish) chog'ida budjetga haqiqatda to'langan soliq hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, unga soliqni kiritmagan holda, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i hisobga olingan holda aniqlanadi.

Obyektlarni qurishda, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurishda, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagi boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalendar oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmining O'zbekiston



Respublikasi Soliq kodeksining 303-moddasiga muvofiq soliq bazasi kiritilmagan holda aniqlanadigan qiymati asosida aniqlanadi. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, soliq bazasi bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning qiymatidan kelib chiqqan va buyurtmachi materiallarining qiymatini soliq bazasiga kiritmagan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarga mehnat haqi hisobiga yoki dividendlar to'lovlari hisobiga tovarlar berilganda (xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasi to'rtinchi qismi 3-bandida belgilangan hollarda soliq bazasi tovarlarning (xizmatlarning) ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq aniqlanadigan qiymatidan kelib chiqqan va soliqni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Erkin bojxona hududining bojxona rejimiga soliq to'lamadan joylashtirilgan tovar yo'qotilganda soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 254-moddasi birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Tovarlarni (xizmatlarni) olishga bo'lgan huquqni beruvchi vaucherni realizatsiya qilish chog'ida vaucherning soliq hisobga olingan holdagi qiymati soliq bazasi bo'ladi.

Olib sotish uchun jismoniy shaxslardan olingan avtomobillar va uy-joy ko'chmas mulk obyektlari realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va sotib olish qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Foyda solig'ini hisoblab chiqarishda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlardan foydalanilganda (o'z kuchi bilan xizmatlar ko'rsatilganda), soliq bazasi ushbu tovarlarning (xizmatlarning) bunday soliq to'lovchi tomonidan o'tgan 90 kun davomida realizatsiya qilingan aynan shunday (ular mavjud bo'lmaganda shunga o'xshash) tovarlarning (xizmatlarning) o'rtacha o'lchangan narxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan qiymati sifatida, ko'rsatilgan davrda bunday realizatsiya mavjud bo'lmaganda esa aksizlar hisobga

olingan (aksizosti tovarlar uchun) va soliq qo'shilmagan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ushbu bo'limga muvofiq realizatsiya qilishga doir aylanmalari soliq solinmaydigan aylanmalar bo'lgan chiptalar, abonementlar, yo'llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlarni olish huquqini beruvchi boshqa hujjatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va ularni sotib olish narxi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq to'lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda;
- 3) bitim shartlari o'zgarganda, shu jumladan jo'natilgan tovarlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning narxi va (yoki) soni (hajmi) o'zgarganda;

4) tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi tomonidan chegirmalar berilganda. Ushbu bandda nazarda tutilgan tuzatish kiritish, agar siylovlar berish shartlari shartnoma shartlarida yoki soliq to'lovchining narx (tarif) siyosatida nazarda tutilgan bo'lsa, ilgari amalga oshirilgan tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo'yicha soliq bazasini kamaytiradi. Bunday shartlar tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko'rsatish) shartnomasining muayyan shartlarini xaridor tomonidan bajarishni, shu jumladan tovarlarning (xizmatlarning) muayyan hajmini olishni va muddatidan oldin haq to'lashni nazarda tutishi mumkin.

Soliq bazasiga uni kamaytirish yoki ko'paytirish tarafga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish tovarlarga (xizmatlarga) haq to'lash bo'yicha majburiyat O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 313-moddasiga muvofiq umid qilib bo'lmaydigan qarzdorlik deb e'tirof etilganda va uni hisobdan chiqarish lozim bo'lgan hollarda ham amalga oshiriladi. Bunday holda tuzatish kiritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq bazasiga tuzatish kiritish (salbiy yoki ijobiy) qo'shimcha hisobvaraq-faktura yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida va ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollar ro'y bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Soliq bazasi xatolarni tuzatish natijasida o'zgartirilgan taqdirda, shuningdek ilgari yozib berilgan hisobvaraq-fakturaga o'zgartish va (yoki) qo'shimchalar kiritish zarur bo'lganda ushbu moddaning qoidalari qo'llanilmaydi. Bunday holda ilgari yozib berilgan hisobvaraq-faktura bekor qilinadi va uning o'miga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzatilgan hisobvaraq-faktura rasmiylashtiriladi.

Tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan soliq bazasiga tuzatish kiritish amalga oshirilayotganda, xaridor yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtirilgan qo'shimcha hisobvaraq-faktura asosida ilgari o'zi hisobga olish uchun qabul qilgan soliq summasiga tegishli tarzda tuzatish kiritadi (ko'paytiradi yoki kamaytiradi).

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq stavkalari 2 xil shaklda qo'llaniladi. Bular asosiy soliq stavkasi 15 foiz miqdorida belgilanadi. Ayrim yo'nalishlar bo'yicha esa qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq stavkasi 0 foiz miqdorida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 39-bobida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, bir oy soliq davridir.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasi oyiga bir milliard so'mdan oshmaydigan soliq to'lovchilar uchun soliq davri chorak hisoblanadi.

### **10.3. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari va nol darajali stavkaning qo'llanilishi**

Agar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 260-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagilarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:

- 1) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga qarash bo'yicha xizmatlarni;
- 2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlarni;

3) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlarini, diniy ashyolarni, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlarni va marosimlarni o'tkazishga doir xizmatlarni;

4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inventarni, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilish, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni;

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarni;

7) pochta markalarini (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalarni, konvertlarni;

8) pensiyalar va nafaqalar to'lashga doir xizmatlarni;

9) budget mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini. Mazkur soliq solishdan ozod etish tegishli moliya organining budgetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi;

10) o'qitish (ta'lim) sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar o'tkazishni tashkil etish xizmatlarini, xususan:

boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, texnik va kasb-hunar, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasidagi ta'lim xizmatlarini;

ta'lim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha ta'lim berish bo'yicha xizmatlarni;

maktabgacha ta'lim va tarbiya dasturlari doirasida ta'lim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash bo'yicha xizmatlarni, to'garaklarda,

seksiyalarda (shu jumladan sport seksiyalarida) va studiyalarda voyaga yetmagan bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha xizmatlarni;

11) tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno). Ushbu bandning maqsadida tibbiy xizmatlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

tibbiy yordamga va sanitariya xizmati ko'rsatishga doir xizmatlar;

tashxis qo'yish, profilaktika va davolash bo'yicha xizmatlar;

stomatologik xizmatlar, shu jumladan tishlarni protezlash bo'yicha xizmatlar;

12) veterinariya xizmatlarini. Ushbu bandning maqsadida veterinariya xizmatlari jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

veterinariyaga oid xizmatlar ko'rsatish, hayvonlarga tashxis qo'yish va ularni davolash bo'yicha xizmatlar;

hayvonlar va inson uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan aholini himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya va veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash;

13) dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni;

14) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlarini. Ushbu bandning maqsadida:

a) sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonolari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko'rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ko'rsatilishidan qat'i nazar, yo'llanmalar yoki joysiz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi;

b) jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari bo'yicha o'quv guruhleri hamda jamoalarida sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishga

oid xizmatlar, umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarni, sport-tomosha tadbirlarini o'tkazish bo'yicha xizmatlar, shuningdek mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish uchun sport inshootlarini ijaraga berish kiradi;

15) yo'lovchilarni yagona tariflar bo'yicha tashish xizmatlarini ko'rsatish:

a) umumiy foydalanishdagi yo'lovchi tashish shahar transportida va yo'lovchi tashish avtomobil transportida (bundan taksi, shu jumladan yo'nalishli taksi mustasno) mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadigan tariflar bo'yicha;

b) shahar atrofidagi yo'nalishda temiryo'l transportida;

16) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari, yer resurslari va davlat kadastri, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;

17) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o'lchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalaniladigan tangalardan, shuningdek qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), zargarlik buyumlarini;

19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni;

20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni, agar bunday xizmatlar ko'rsatish shart ekanligi qonun hujjatlarida belgilangan bo'lsa, faoliyatning muayyan sohasida ushbu organlar va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan alohida vakolatlarni bajarish doirasida davlat boji yoki boshqa to'lovlar undiriladi;

21) budjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlarini;

22) budjet mablag'lari hisobidan har yillik mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko'rsatiladigan geologiya xizmatlari;

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), agar ularni soliqdanda ozod etish qonunda nazarda tutilgan bo'lsa;

24) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo'riqlash bo'linmalari xizmatlarini;

25) telekommunikatsiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

26) metsenatlik ko'magi tarzida beriladigan (ko'rsatiladigan) tovarlarni (xizmatlarni);

27) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 244-moddasida nazarda tutilgan moliyaviy xizmatlarni;

28) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 245-moddasida nazarda tutilgan hayotni sug'urta qilish xizmatlarini va boshqa sug'urta xizmatlarini.

Sanab o'tilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma soliq to'lovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini litsenziyalash lozim bo'lsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq solinadigan aylanmalarni va ushbu moddaning qoidalariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 268-moddasiga muvofiq aylanmalarning alohida hisobini yuritishi shart.

Soliq qonunchiligi bo'yicha quyidagilarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish soliq solishdan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;

3) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda — boshqa tashkilotlar va shaxslar yo'nalishlari bo'yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko'rsatish (grantlar) uchun olib kiriladigan tovarlar;

4) chet el diplomatik vakolatxonolari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

5) qonun hujjatlariga muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros obyektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg'aga olingan madaniy qimmatliklar. Ushbu soliq solishdan ozod etish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tegishli tasdiqnomasi mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi;

6) o'xshashi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;

7) xalqaro kitob almashinuvi bo'yicha davlat kutubxonolari va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;

8) milliy valuta va chet el valutasini, qonuniy to'lov vositalari bo'lgan banknotlar (bundan kolleksiyalash uchun mo'ljallanganlari mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlar;

9) xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo'lsa;

10) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha



maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

11) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xom ashyo. Mazkur norma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi bo'yicha nol darajali stavka bo'yicha soliq solish quyidagilar realizatsiya qilinganda amalga oshiriladi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

2) ilgari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash natijasida olingan (hosil bo'lgan) tovarlar (qayta ishlash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

3) O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g'amlab qo'yilgan narsalar. Ushbu modda maqsadida havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallari g'amlab qo'yilgan narsalar deb e'tirof etiladi;

4) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoxud transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar;

5) xalqaro tashishlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar.

Nol darajali stavkani ayrim hollarda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 264-moddasida belgilangan.

Nol darajali stavkani qo'llash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar soliq hisoboti bilan birga taqdim etiladi.

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:

1) kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi);

2) tovarlarni chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish uchun belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar belgilangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo'yicha realizatsiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (ishonch bildiruvchi) tomonidan qo'shimcha tarzda soliq to'lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi) taqdim etiladi.

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning turiga qarab boshqa hujjatlar taqdim etilishi mumkin. Soliq to'lovchining amalga oshiriladigan faoliyat turiga qarab nol soliq stavkasini qo'llash huquqini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati hamda ularni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqish sharti bilan nol stavka bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha

xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq erkin muomalaga chiqarish rejimiga joylashtirgan holda O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 258-moddasi birinchi qismida belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq solinishi lozim.

Nol stavka bo'yicha soliq solish quyidagilarni realizatsiya qilish chog'ida amalga oshiriladi:

1) tovarlarni xalqaro tashish bo'yicha xizmatlarni. Tovarlarni xalqaro tashish deganda tovarlarning jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan taqdirda tovarlarni havo kemalari, temiryo'l transporti va (yoki) avtotransport vositalari orqali tashish tushuniladi;

2) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan to O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoki transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlarni;

3) tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, basharti yo'lovchilarni, pochmani va bagajni jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, yo'lovchilarni, pochmani va bagajni tashish bo'yicha xizmatlarni;

4) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport qilinadigan tovarlarni tashish yoki transportda tashish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududidagi qayta ishlash mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo'lgan tashuvchilar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni. Ushbu bandning qoidalari, basharti tashish hujjatlarida bojxona organlarining belgilari qo'yilgan bo'lsa, qo'llaniladi;

5) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatini.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi to'langan soliqni qoplash (qaytarish) yo'li bilan nol darajali stavkasi bo'yicha tortiladi, agar ushbu tovarlar (xizmatlar) quyidagicha olinsa:

1) chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolarining) shaxsiy foydalanishi uchun;

2) mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olayotgan soliq to'lovchilar tomonidan, agar bitimda nol darajali stavka qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Agar tegishli chet davlatning qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga, ushbu vakolatxonalarning diplomatik hamda ma'muriy-texnik xodimlariga (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolariga) nisbatan xuddi shunday tartib belgilangan bo'lsa yoxud bunday norma O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, nol darajali stavkani qo'llash bo'yicha yuqoridagi birinchi qismiga muvofiq amalga oshiriladi.

Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo'linmalari tomonidan olishga, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadi.

Nol darajali stavka qimmatbaho metallarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni olish bo'yicha vakolatli organga realizatsiya qilinadigan bunday metallarga nisbatan qo'llaniladi.

#### **10.4. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va budjetga to'lash mexanizmi**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 247-257-moddalariga muvofiq soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo'lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini ko'paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o'zgartishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko'ra hisoblab chiqariladi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiy summasi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 254-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq bazasining soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 254-moddasi to'rtinchi qismida belgilangan talablarga muvofiq soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiy summasi bunday soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo'shish orqali hisoblab chiqariladi.

Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda, agar O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 267-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasini hisobga olish orqali O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 265-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliqning umumiy summasini kamaytirishga, quyidagi shartlarni bir vaqtda bajargan taqdirda, haqli bo'ladi:

1) soliq to'lovchining tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlardan (xizmatlardan) foydalanilganda realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasiga soliq solinishi, shu jumladan nol stavka bo'yicha soliq solinishi lozim bo'lganda;

2) olingan tovarlarga (xizmatlarga) soliq to'lovchi tomonidan hisobvara-faktura yoki yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan soliq summasi alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat olinganda hamda tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilganda;

3) tovarlar olib kirilgan (import qilingan) taqdirda soliq budjetga to'langanda;

4) O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 255 va 256-moddalarida nazarda tutilgan hollarda soliq budjetga to'langanda;

5) nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirma mavjud bo'lsa.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizatsiya qilish aylanmasi maqsadida foydalaniladigan, haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) soliq tovarlar eksportidan soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushgan valuta tushumining ulushida hisobga olinadi.

Nol darajali stavka bo'yicha tortiladigan tovarlar eksporti vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirilgan taqdirda, soliq vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining hisobvarag'iga kelib tushgan valuta tushumining summasi ulushida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydigan xizmatlarni ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari ushbu bobda belgilangan tartibda haqiqatda olingan tovarlar bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Bunda ushbu bobni qo'llash maqsadida bunday xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq solinadigan aylanmaga tenglashtiriladi.

Soliq to'lovchi tomonidan asosiy vositalar (shu jumladan o'rnatiladigan asbob-uskunalar), nomoddiy aktivlar va ko'chmas mulk obyektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar sotib olinganda, shuningdek kelgusida o'z asosiy vositalari sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan aktivlarni yaratish uchun tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda sotuvchi tomonidan soliq to'lovchiga taqdim etilgan soliq summasini hisobga olish to'liq hajmda amalga oshiriladi. Soliq to'lovchi O'zbekiston Respublikasi hududiga bunday tovarlarni olib kirish chog'ida ushbu soliq to'lovchi tomonidan

to'langan soliq summasini hisobga olish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Mol-mulk ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan taqdirda, oluvchi mol-mulknii ustav fondiga (ustav kapitaliga) berish chog'ida ishtirokchi tomonidan to'langan soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va ko'chmas mol-mulk obyektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha ishtirokchi ularni berish chog'ida to'langan soliq nazarda tutilgan tartibda berilgan aktivlarni oluvchi soliq to'lovchida hisobga olinadi.

Soliq to'lovchi bo'lmagan shaxs soliq to'lovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 237-moddasiga muvofiq maxsus ro'yxatga olish hisobiga qo'yilganda, shuningdek soliq to'lashdan ozod etish bekor qilingan taqdirda soliq to'lovchi maxsus ro'yxatga olish hisobiga qo'yish (ozod qilishni bekor qilish) sanasida o'z balansida mavjud bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlarining va uzoq muddatli aktivlarning balans qiymatida hisobga olingan soliq summasini belgilangan shartlarga rioya etilgan taqdirda, hisobga olish huquqiga ega.

Agar soliq to'lovchi sifatida hisobda turmaydigan chet el yuridik shaxsi komitent (ishonch bildiruvchi) bo'lsa, tovar tegishli vositachilik (topshiriq) shartnomasiga muvofiq shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan taqdirda, ushbu tovar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda to'langan soliq summasi tegishli soliq davrida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan tovarlar ulushiga to'g'ri keladigan ulushda vositachi (ishonchli vakil) tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig'iga ko'ra olingan tovar O'zbekiston Respublikasi hududiga vositachi (ishonchli vakil) tomonidan olib kirilgan taqdirda, import qilingan tovarning bojxona rasmiylashtiruvchi chog'ida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan to'langan soliq komitentda (ishonch bildiruvchida) hisobga olinishi lozim.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish chog'ida ekspeditor tomonidan tashuvchidan va (yoki) boshqa

yetkazib beruvchilardan olingan xizmatlarga doir soliq summasi bunday shartnoma bo'yicha ekspeditorning mijoz bo'lgan tarafda hisobga olinadi.

Sotuvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasining soliq to'lovchisi bo'lmagan chet ellik shaxsga ushbu chet ellik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasida tovarlarni (xizmatlarni) olish chog'ida taqdim etilgan yoki ushbu chet ellik shaxslar tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish maqsadlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishi chog'ida ular tomonidan to'langan soliq summalari hisobga olinishi lozim. Soliqning mazkur summalari O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 255-moddasiga muvofiq soliq agenti tomonidan ushbu chet ellik shaxsning daromadlaridan ushlab qolingani soliq budjetga to'langanidan keyin, ushbu shaxs olgan (olib kirgan) tovarlardan (xizmatlardan) faqat soliq agenti qiymatidan soliqni ushlab qolgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish maqsadida foydalanilgan qismi bo'yichagina hisobga olinishi yoki ushbu chet ellik shaxsga qaytarilishi lozim. Bunda soliqning mazkur summalari, basharti chet ellik shaxs O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 237-moddasiga muvofiq soliq to'lovchi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazish hisobiga qo'yilgan bo'lsa, hisobga olinishi yoki ushbu shaxsga qaytarilishi lozim.

Agar soliq to'lovchi realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasiga soliq solinishi lozim bo'lgan tovarlarni (xizmatlarni), shuningdek realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasi soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilsa, hisobga olinishi lozim bo'lgan soliq summasi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 268-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Agar hisobga olish huquqi tovarlarni (xizmatlarni) olish bo'yicha qalbaki yoki ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitim natijasida vujudga kelganligiga oid dalillar mavjud bo'lsa, soliq organlari hisobga olishni bekor qilishni yoki unga tuzatishni amalga oshirishga haqli.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish (olib kirish) chog'ida soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi ushbu Kodeksning 266-moddasiga muvofiq quyidagi hollarda hisobga olinmaydi:

1) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalari ushbu bo'limga muvofiq soliq solishdan ozod etilgan tovarlarni ishlab chiqarish va



(yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun mo'ljallangan asosiy vositalar, ko'chmas mulk obyektlari va nomoddiy aktivlar sotib olinganda (olib kirilganda);

2) tovarlar (xizmatlar) ushbu qismning 1-bandida ko'rsatilgan asosiy vositalarni, ko'chmas mulk obyektlarini qurish, modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va ta'mirlash uchun sotib olinganda;

3) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalari soliqdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun sotib olinganda;

4) tovarlar (xizmatlar) soliq to'lovchi bo'lmagan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan sotib olinganda;

5) vakillik xarajatlari;

6) tovarlar (xizmatlar) bepul olinganda, bundan oluvchi ular bo'yicha soliq to'lagan hollar mustasno;

7) soliq to'lovchining shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishga mo'ljallangan, ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq foyda solig'ini hisoblab chiqarishda xarajatlar chegirib tashlanmaydigan tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda.

Soliq to'lovchi tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish chog'ida to'lagan soliq summaları quyidagi tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish yoki olib kirish chog'ida ham, agar bu tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish amalga oshirilayotgan faoliyat turiga bog'liq bo'lmasa, hisobga olinmaydi:

1) yengil avtomobillarni, mototsikllarni, vertolyotlarni, motorli qayiq'larni, samolyotlarni, shuningdek motorli vositalarning boshqa turlarini va ular uchun yoqilg'ini;

2) alkogol va tamaki mahsulotlarini.

Ushbu Kodeksning 268-270-moddalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, hisobga olinmaydigan soliq summasi sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida hisobga olinadi.

Agar soliq to'lovchi soliq solinadigan va soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshirsa, soliq solinadigan aylanmaga to'g'ri keladigan soliq summasi hisobga olish uchun qabul qilinadi.

Hisobga o'tkazilishi lozim bo'lgan soliq summasi soliq to'lovchining tanloviga ko'ra alohida-alohida usulda va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi.

Alohida-alohida usul bo'yicha soliq to'lovchi soliq solinadigan va soliq solishdan ozod etilgan aylanmalar uchun foydalaniladigan, olingan tovarlarning (xizmatlarning) hamda ular bo'yicha to'langan soliq summalarining alohida-alohida hisobini yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkoni bo'lmagan umumiy xarajatlar bo'yicha xarajatlarni ajratish mutanosib usulda amalga oshiriladi.

Mutanosib usul bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinadigan soliq summasi soliq solinadigan aylanma summasining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish (soliqni hisobga olmasdan) bo'yicha aylanmaning umumiy summasidagi joriy kalendar yil ichida o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadigan solishtirma miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Mutanosib usuldan foydalanish chog'ida hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq, shuningdek ushbu Kodeksning 269-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinishi lozim bo'lgan soliq summasiga tuzatish kiritilgan hollarda hisobga olishga qabul qilinmagan soliq soliq to'lovchi tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida chegirib tashlanadigan xarajatlar tarkibida hisobga olinadi.

Agar soliq solinadigan aylanmalarning ulushi joriy soliq davrida aylanma umumiy summasining 5 foizidan oshib ketmasa, soliq to'lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar bo'yicha), shu jumladan uzoq muddatli aktivlar bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasini joriy soliq davrida olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatiga to'liq kiritishga haqli.

Ilgari tovarlarni (xizmatlarni) olish chog'ida hisobga olish uchun qabul qilingan, olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha soliq summasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritilishi lozim:

- 1) tovarlardan (xizmatlardan) kelgusida soliq solishdan ozod etilgan aylanma uchun foydalanilganda;

- 2) ular buzilganda yoxud qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organ tomonidan, ular yo'qligida esa soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha yo'qotilgan taqdirda. Ushbu bandning qoidasi favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong'in, avariya, yo'l-transport hodisasi va boshqa shu kabi holatlar) munosabati bilan tovarlarning buzilishiga yoxud yo'qotilishiga nisbatan tatbiq etilmaydi;

3) yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan hisobvaraƒ-fakturalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haqiqiy emas deb e'tirof etilganda;

4) soliq to'lovchi maqomini yo'qotganda (yoki soliq to'lashdan ozod qilinganda).

Sotib olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 267-moddasi birinchi qismi 1-4-bandlariga muvofiq ilgari hisobga olinmagan soliq summasi kelgusida ular soliq solinadigan aylanma uchun foydalanilgan hollarda tuzatiladi (hisobga olinadi).

Tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan soliq summasi bunday tuzatishlarni amalga oshirishdan oldingi oxirgi o'n ikki oy ichida olingan tovarlarning (xizmatlarning) soliq summasi qayta tiklanishi lozim bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlariga to'g'ri keladigan qiymati asosida aniqlanadi.

Asosiy vositalarning obyektlari, ko'chmas mulk obyektlari va nomoddiy aktivlar bo'yicha tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan soliq summasi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 270-moddasida nazarda tutilgan tartibda qayta baholash hisobga olinmagan, ushbu obyektlarning balans qiymatiga to'g'ri keladigan, ilgari bu obyektlar bo'yicha hisobga olingan (yoki ularning qiymatiga kiritilgan) soliq summasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ilgari bunday tovarlar (xizmatlar) bo'yicha hisobga olish uchun qabul qilingan miqdordagi, asosiy vositalarga, ko'chmas mulk obyektlariga va nomoddiy aktivlarga nisbatan esa ularning qayta baholash hisobga olinmagan holdagi qoldiq (balans) qiymatiga mutanosib miqdordagi soliq summolari tiklanishi lozim.

Tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 257-moddasiga muvofiq soliq bazasiga tuzatishlar kiritish amalga oshirilganda, xaridor yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtirilgan qo'shimcha (yoki tuzatilgan) hisobvaraƒ-faktura asosida u tomonidan ilgari hisobga qabul qilingan soliq summasiga tegishli tartibda tuzatish kiritishi kerak.

Soliqqa tuzatish kiritish summasi ko'rsatilgan obyektlarning balans qiymatini oshirishga (yoki kamaytirishga) taalluqli bo'ladi yoxud foyda solig'ini hisoblab chiqarishda hisobga olinadigan xarajatlar (yoki daromadlar) tarkibiga kiritiladi.

Tovar reeksport bojxona tartib-taomiliga joylashtirilganda va ushbu tovarning importi chog'ida soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi unga bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilganda, soliq to'lovchi hisobga o'tkaziladigan soliq summasiga o'ziga qaytarilgan soliq summasi bo'yicha tuzatish kiritadi (uni kamaytiradi).

Hisobga olingan soliq summasiga tuzatishlar kiritish ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelgan soliq davrida amalga oshiriladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi ahamiyati.

2. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar va soliq bazasini aniqlash tartibi.

3. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarining qo'llanilishi.

4. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar va tovar aylanmasini aniqlash tartibi.

5. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solishdan ozod etish tartibi.

6. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavka qo'llanilishi.

### **TESTLAR**

#### **1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar quyidagilardir ...**

A. Soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar. Tovarlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar

B. Soliq solinadigan daromadlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar

C. Tovarlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga eksport qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar

D. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan daromadlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar

#### **2. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi aniqlang.**

A. 15%

- B. 20%
- C. 12%
- D. 8%

**3. Qo'shilgan qiymat solig'i soliq solish obyekti quyidagilardir**

- A. Soliq solinadigan oborot. Soliq solinadigan import
- B. Soliq solinadigan daromad
- C. Soliq solinadigan eksport
- D. Soliq solinadigan mol-mulk

**4. Yuridik shaxslarning turlarini ko'rsating.**

- A. Tijorat va notijorat tashkilotlar
- B. Korxonalar, tashkilot, firma, kompaniya
- C. Kichik korxonalar, mikrofirmalar, yirik korxonalar
- D. Budjet va nobudjet tashkilotlari

**5. Soliqlarni undirish qaysi organlar vakolatiga kiradi?**

- A. Davlat soliq xizmati organlari, Davlat bojxona xizmati organlari
- B. Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi
- C. Sud va prokuratura organlari
- D. Tijorat banklari

**6. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlagan soliq to'lovchiga nisbatan qancha miqdorda jarima solinadi?**

- A. Agar faoliyat ko'pi bilan o'ttiz kun amalga oshirilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorda
- B. Eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorda

C. Eng kam ish haqining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorda

D. Eng kam ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorda

**7. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining maxsus unvonlari qaysi me'yoriy hujjatda keltirilgan?**

A. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunida

B. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida

C. O'zbekiston Respublikasining "Soliq maslahati to'g'risida"gi Qonunida

D. DSI Nizomida

**8. Davlatlararo bitimlarga ko'ra ikki tomonlama soliq solinmasligi qaysi soliq imtiyozini belgilash mezoniga ko'ra belgilanadi?**

A. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning darajasi mezoniga ko'ra

B. Sohani rivojlantirish ustuvorligi mezoniga ko'ra

C. Soliq to'lovchilarning investitsiya mavqei mezoniga ko'ra

D. Ijtimoiy himoya mezoniga ko'ra

**9. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar qanday manbalardan soliq to'laydilar?**

A. O'zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan

B. O'zbekiston Respublikasidagi manbalaridan

C. O'zbekiston Respublikasidan tashqaridag faoliyatlari manbalaridan

D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan muvofiqlashtiriladi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### 1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 1993.- 62 b.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida Qonuni (yangi tahriri). 2012-yil 2-may, O'RQ-328-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 18-son, 201-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda, 41-son, 543-modda; 2014 y., 49-son, 579-modda, 50-son, 588-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda, 52-son, 645-modda; 2016-y., 52-son, 598-modda; 2017-y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.12.2018-y., 03/18/506/2356-son; 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son

1.3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014. 2-bob, 12-modda, 8-bet.

1.4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. Rasmiy nashr – T. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003. 46 b.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5283-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.12.2017-y., 06/17/5283/0407-son.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-mayda "Loyiha-qidiruv tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2946-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 21-son, 381-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda PQ-3454-sonli O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi Qarori.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yilning 5-fevralida 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida"gi Nizom.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta asosiy yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

1.10. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 55 b.

## **2. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar**

2.1. Абишов М.С. Билвосита солиklarining ishlab chikarish samaradorligini oshirishga ta'siri (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2011, 24 б.;

2.2. Абрютинa М.С. Экономический анализ торговой деятельности. Учебное пособие. –М.: Дело и сервис, 2008. 195 с.

2.3. Адвогулова А. «Реанимация налога на недвижимость в России», 2013.

2.4. Александров М. Налоги и налогообложение: Учебник. –7-е. изд., перераб. и доп. –М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и Ко», –М.: 2007. – 314 с.

2.5. Александров И. Налоги и налогообложение: Учеб. – М.: Дашков и К, 2006.

2.6. Альмарданов М. Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга солиқ тизимининг таъсири. – Т., 2003.

2.7. Альмардонов М. Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга солиқ тизимининг таъсирию Монография. – Т.: ГМИ, 2003.- 233 б.

2.8. Альмардонов М.И. Ўзбекистон Республикаси солиқ тизими ва уни тадбиркорлик фаолиятига таъсири. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: 2004. 22-б.

2.9. Анимица П. «Налогообложение недвижимости: зарубежный опыт и российские перспективы», Международный бухгалтерский учет, № 47, 2012

2.10. Ашурова Н.Б. Баркарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиқка тортиш механизмини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Ташкент, – 2018.

2.11. Базаров К.Т. Корхоналар фойдасидан олинган солиқ механизмдаги муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари. Иқтисод



фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент, 1998. 30 б.

2.12. Байжанов.С.Х. Кудияров. К.Р. Корхоналарда молиявий ресурсларни шакллантиришнинг назарий асослари ва зарурияти. «Biznes-Эксперт».–Тошкент, –2018.№3.Б.6-10. (08.00.00 №3)

2.13. Балашевич. М.И. «Малый бизнес: отечественный и зарубежный опыт» Учеб. Пособие. –Москва: НКФ «Экоперспектива» 1995 г. стр. 27-28.

2.14. Барда Ф.С. проф. и проф. Под.ред. Павловой Л.П. Налоги в условиях экономической интеграции. / – М.: КНОРУС, 2004. - С. 10.

2.15. Барулин С.В. Бекетова О.Н. Лафферовы эффекты в экономике современной России // Финансы. –М.,2003.№4;

2.16.Ботиров А.А. Кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш йўллари.И.ф.н.ил.дар.ол.ёз. дисс.автореф.–Т., 2012.–23 б.

2.17. Бурханов А.У. Иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш шароитида саноат корхоналарининг молиявий барқарорлигини таъминлаш йўналишлари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2011.

2.18. Вахобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик. – Т.: Шарк, 2009. - 448 б.

2.19. Воронин С. Оптимизация налоговой нагрузки – фактор повышения устойчивости реального сектора экономики // Халқаро илмий-амалий конференция. – Т., 2004ю

2.20.Гайбуллаев О.З. Солиқ юқини баҳолашни такомиллаштириш масалалари. И.ф.н.ил.дар.ол.ёз. дисс.автореф.–Т., 2004.–20 б.

2.21. Гайбуллаев О.З. Солиқ юқини баҳолашни такомиллаштириш масалалари: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент, ДЖҚА, 2004.-20 б.

2.22. Галкин. В.Ю. Система налогов с предприятий и её совершенствование. Автореферат. Дисс... канд. экон наук. –М., 1992.

2.23. Гатаулин Ш.К. Солиқлар ва солиққа тортиш. –Т. 1996.

2.24. Грачев А.В. Анализ и управление финансовой устойчивостью предприятия. От бух учета экономическому. Учеб.практ.пособие. – М.: Финпресс, 2002. – 208 с.

2.25. Гуломов С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес.–Т.: «Шарк», 2002. 9 б.

- 2.26. Гуров Л. Кичик тадбиркорликнинг янги имкониятлари // Бозор, пул ва кредит. – Т.: 1999. – №7. – Б. 32.
- 2.27. Гусева С.М. Упрощенная система налогообложения: Учебник. – М.: ЕНВД 2004. – 112-с.
- 2.28. Ё.Абдуллаев ва бошқалар.Тадбиркор ён дафтари: кичик бизнес ва тадбиркорлик.Т.: “Меҳнат”, 1999-126
- 2.29. Егорова Е. Налоговое бремя и инвестиции. [www.voskres.ru/articles/taxes.htm](http://www.voskres.ru/articles/taxes.htm)
- 2.30. Есмурзаев Ж.Т. Иктисодиётни эркинлаштириш шароитида маҳаллий солиқлар ва йиғимларни ундириш механизмини такомиллаштириш. Иктисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент 2007.
- 2.31. Жўраев А.С. Давлат бюджетни даромадларини шакллантиришнинг долзарб муаммолари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т.: ДЖКА, 2005. – 38 б.
- 2.32. Жўраев Т.Т. ва бошқ. «Мулкчиликнинг турли шакллари шароитида тадбиркорлик фаолияти». Ўқув кўланма. –Т.: 1994 й. 45 б.
- 2.33. Замалетдинова Э.Н. «Косвенные налоги в России и зарубежный опыт в области взимания косвенных налогов». «МЕЖДУНАРОДНЫЙ БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ». 7 (157) – 2011
- 2.34. Звягинцева Н.А. Оценка результативности регулирования рынка ценных бумаг (на примере рынка ценных бумаг США) // Вестник Иркутского государственного технического университета. – 2015.-№2 (97).-С.253-262
- 2.35. Ионова А.Ф., Селезнева Н.И. Финансовый анализ. Учебник –М.: Инфра М. 2010 437 с.
- 2.36. Исламкулов А.Х. Бюджет даромадларида бевосита солиқлар тушуми барқарорлигини таъминлаш йўллари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т., 2012, 24 б.
- 2.37. Исроилов Б.И. Солиқ юки ва уни ифодаловчи кўрсаткичлар тизими// Ўзбекистон Республикаси солиқ тизимини ислоҳ қилишнинг тамойиллари ва асосий йўналишлари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент 2006. 52-б.
- 2.38. Йўлдошев А. Корхоналар молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари. 30.12.2016. №12(108)-2016.
- 2.39. Кадушни А., Михайлова Н. Насколько сильно налоговое бремя (попытка количественного анализа) [www.klerk.ru/boss](http://www.klerk.ru/boss).

- 2.40. Кирова Е.А. Методология поределения налоговой нагрузки на хозяйствующие субъекты// Финансы. –М., 1998. №9. 30-32 с.
- 2.41. Корень А.В., Татуйко А.В. Зарубежный опыт реализации налоговой политики по стимулированию экономического роста // Азимут научных исследований: экономика и управление. - 2016. – Т.5. № 4 (17).-С.187-191.
- 2.42. Кузьмина Наталья Александровна, «Зарубежный опыт исчисления и уплаты налога на прибыль и возможности его применения в РФ». НАУКА БЕЗ ГРАНИЦ – 6 (11) -2017.
- 2.43. Курбангалеева О.А. Как правильно применять упрощёнку. – М.: «Эксмо», 2007. – С. 416.
- 2.44. Курбангалеева О.А. Как правильно применять упрощёнку. – М.: «Эксмо», 2007. – С. 416.
- 2.45. Курбанов Д.Р. «Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун соликка тортиш услуби ва ундириш механизми такомиллаштириш». Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2017 йил.
- 2.46. Ланг Й. Проект кодекса налоговых законов для государств Центральной и Восточной Европы. Бонн, 1993;
- 2.47. Лебединская Т.Г., «Налогообложение недвижимости: опыт стран ОЭСР и перспективы России», Налоговая политика и практика, № 1, 2010.
- 2.48. Майбуров И. Налоги и налогообложение: Учебник.–М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2007.–655 с.
- 2.49. Майбуров И.А. Налоговые реформы. Теория и практика. –М.: Юнити-Дана, 2010.
- 2.50. Мьликлар Т. Солиқлар ва солиқка тортишнинг долзарб масалалари. –Т., 2002.
- 2.51. Маликов Т.С. Солиқлар ва солиқка тортишнинг долзарб масалалари.–Т.: Академия, 2002.- 204 б.
- 2.52. Менкью Н.Г. Принципы экономики. –СПб.: Питер Ком, 1999.
- 2.53. Мильков Н. Налоги и налогообложение: Учебник. М.: Инфра-М, 2007.- 507 с.
- 2.54. Мильков Н.В. Налоги и налогообложения: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2006.
- 2.55. Мирзиёев, Шавкат. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса

тараққиётнинг кафолатидир. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.14-15. (- 64 б.)

2.56. Митрофанова И.А. Актуальность применения зарубежного опыта налогообложения предприятий в российских условиях // Молодой ученый. – 2013. - № 9. – С. 217-220.

2.57. Мусагалиев А.Ж. Юридик шахсларни солиққа тортишни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Тошкент–2009.

2.58. Ниязметов И. Солиқ юқининг тадбиркорлик субъектлари молиявий фаолиятига ва бюджет даромадларига таъсири тахлили: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, БМА. 2008. 39-б.

2.59. Ниязметов И. Солиқ юқининг тадбиркорлик субъектлари молиявий фаолиятига ва бюджет даромадларига таъсири тахлили: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, БМА. 2008. 40-б.

2.60. Ниязметов И.М. Солиқ юқининг тадбиркорлик субъектлари молиявий фаолиятига ва бюджет даромадларига таъсири. И.ф.н.ил.д. ол.ёз. дис.

2.61. Ниязметов И.М. Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Б.9

2.62. Олимжонов О. Адолатли солиқ мамлакат таъини // Солиқ тўловчининг журнали, 2006. №6.

2.63. Олимжонов О. Бозор иқтисодиётига ўттиш даврида солиқ сиёсати. «Ҳаёт ва иқтисод», 1992.

2.64. Орлова И.В, Половников В.А. Экономико-математические методы и модели: компьютерное моделирование. 0,1 – 0,3 – кучси; 0,3 – 0,5 – сезиларли; 0,5 – 0,7 – ўртача; 0,7 – 0,9 – кучли; 0,9 – 1,0 – ўта кучли. Учебное пособие. – М.: Вузовский учебник, 2009. – С.175.

2.65. Пансков В, Князев В. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов.–М.: МЦФЭР, 2003.–336с.;

2.66. Пардаев А., Азимов Б. Корхоналар фаолиятини солиқлар воситасида бошқариш. –Тошкент, Zar qalam, 2005. 68-б.

2.67. Пепеляев С.Г. Основы налогового права. –М., 1995, 24 с.

2.68. Петти У. Трактат о налогах и сборах. Разное о деньгах.–М.: Ось-89, 1997.–346 с.

- 2.69. Полянская Н.М. Зарубежный опыт налогообложения. Известия, электронный журнал. 2014. № 6.
- 2.70. Рикардо Д. Начало политической экономики и налогового обложения. Сочинения, том I. –М.: Государственное издательство политической литературы, 1955.-360 с.
- 2.71. Рикардо Д. Сочинения т. I Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. – М.: «Госполитиздат», с. 360.
- 2.72. Сиддаров Ш. Корхоналар молиявий ресурслари ва уларнинг таркибий тузилиши. Тошкент ахборот технологиялари университети. –Тошкент, 2016.
- 2.73. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер.с англ. –М.: 1962. -408 с.
- 2.74. Собиров Ш.М.“Фойда солиги ва унинг тадбиркорлик субъектлари иқтисодий фаолиятига таъсири”. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Тошкент, 2008.
- 2.75. Соколинский В.М. Эволюция налоговой политики: опыт Германии / Соколинский В.М., Костюк А.Н.//Финансы. – 2001. - № 5. – С.60.
- 2.76. Столярова. И.А. Антология экономической классики. Т.1.(В.Петти, А.Смит, Д.Рикардо). – М., Предисловие 1991.
- 2.77. Стояновой Е.С. Под ред. Финансовый менеджмент: теория и практика / 5-е изд., перераб и доп.–М.: Перспектива, 2003. -656 стр.
- 2.78. Ташмурадов Т. Солиқ назарияси ва тизими. –Тошкент, 2004.
- 2.79. Ташмурадова Б. Иқтисодий тараққиётга эришишда солиқлардан самарали фойдаланиш: и.ф.д. автореф. –Т., 2007.
- 2.80. Титов В.В. Влияние налоговой системы на эффективность деятельности предприятия //Финансы.–М., 2006. №2.
- 2.81. Тошматов Ш.А. Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2008. -38 б.
- 2.82. Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли: Монография. –Т.: Fan va texnologiya, 2008., 204 б.
- 2.83. Тошматов Ш.А. Кичик бизнесни ривожлантиришда солиқ сўбатини такомиллаштириш. Жамият ва бошқарув журнали, 2013 йил 1-сон.
- 2.84. Тошмурадова Б.Э. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми. – Т.: Янги аср авлоди, 2002.- 128 б.

2.85. Тошмуродова Б. Солиқ муносибатларини оптималлаштириш. Монография. – Тошкент: ТМИ нашриёти. 2005. 160-б.

2.86. Тўраев Ш. Хўжалик субъектларининг солиқ юкнини оптималлаштириш масалалари: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. – Тошкент, БМА, 2007. 10-б.

2.87. Тўраев Ш. Хўжалик субъектларининг солиқ юкнини оптималлаштириш масалалари. и.ф.н. ол. уч. дис.

2.88. Тургенев Н.И. Опыт теории налогов. 1818 г.

2.89. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947-сонли Фармони.

2.90. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодий назарияси: Дарслик. – Т.: «Меҳнат», 1999–Б.243.

2.91. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодий назарияси. – Т.: “Меҳнат”, 1995. 377-бет.

2.92. Ўлмасов А.Ў., Ваҳобов А.В. Иқтисодий назарияси. – Т.: «Шарк», 2006. 152 б.

2.93. Ўлмасов Ахмад. Иқтисодий асослари. – Т.: «Меҳнат» нашриёти, 1997. – Б.83 (224-бет).

2.94. Ўрмонов Ж.Ж. Кичик бизнесни ривожлантиришда солиқларнинг рағбатлантириш функциясида самарали фойдаланиш истикболлари. и.ф.н. ил. дар. ол. ёз. дисс. автореф. – Т.: 2010. -23 б.

2.95. Ҳайдаров Н.Х. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. Ўқув кўланма. Академия. – Т., 2007. -214 б.

2.96. Черник Д. Введение в экономико-математические модели налогообложения. – М.: Финансы и статистика, 2000. 256 с.

2.97. Черник Д. Налоги и налогообложение. Учебник – М.: МЦФЭР, 2007. -528 с.

2.98. Черник Д.Г. Налоги в рыночной экономике. «Финансы», 1992, №3.

2.99. Черник Д.Г. Налоги: Учеб пособие. – М.: Финансы и статистика, 1996.

2.100. Тошматов Ш.А. Кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш асослари. Монография. – Т.: “Молия”, 2012. –22 б.

2.101. Шоалимов А.Х. ва бошқалар. Иқтисодий таҳлил. Ўқув кўланма. – Т.: Лексон-пресс, 2016. 196 б.

2.102. Элмирзаев С.Э. Корпоратив молияни бошқаришда солиқ муносибатларини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017.

- 2.103. Юлдашев О.Т. Ўзбекистонда солиқ имтиёзларини такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Тошкент, 2011.
- 2.104. Юткина Т. Налоги и налогообложение. Учебник. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: ИНФРА-М, 2002.-576 с.;
- 2.105. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. –М.: ИНФРА-М, 2002.
- 2.106. Яхёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Дарслик. – Т., 2000.
- 2.107. Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти: Дарслик. –Т.: «Фан ва технологиялар», 2003.–247.
- 2.108. Яхёев Қ.А. Ўзбекистон солиқлари. Т. Тошкент молия институти, 1993.
- 2.109. "Development of Chinese small and medium-sized enterprises" by Jia Chen. 2017.
- 2.110. Atkinson A.B., Stiglitz J.E. The design of tax structure: Direct versus indirect taxation / Journal of Public Economics 6. 1976.
- 2.111. Dushuratov R.D. Moliya. –Toshkent: «Fan va texnologiya». 2013.
- 2.112. Goloyad A.N. «Foreign experience of taxation of operations with s present papers».
- 2.113. Kaplow, Louis. The theory of taxation and public economics. Princeton University Press, 2011. P.434.
- 2.114. Laffer A. The LafferCurve: Past, Present, and Future. The Heritage Foundation, 1 June, No. 1765. 2004.
- 2.115. Laffer, Arthur B., and Jan P. Seymour. "The economics of the tax revolt: A reader." (1981).
- 2.116. Muratov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.S.H. Korxonatqisodiyoti. –Toshkent, 2014.
- 2.117. Пансков В.Г. Tax reform: what it seems [Налоговый манжовр: каким он видиджа] Экономика и управление: Проблемы, решение — Economy and Management: problems, solutions, 2017, No. 6, pp. 13–20.
- 2.118. Smith, Adam, and John Ramsay McCulloch. "An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations." (1910). P.455
- 2.119. Toshmuratov T. Soliqlar va xalqaro soliq tizimi. –Toshkent, 2005.

2.120. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqla tortish. –Toshkent, 2009.

2.121. Valdani Vicari & Associati SRL (VVA) and Centre for European Economic research (ZEW). SME taxation in Europe. Brussels - May – 2015. 153 P.

2.122. Xusainov R.R. Moliya va soliqlar (II qism Soliqlar). –Toshkent, 2014.

### **3. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

2.123. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

2.124. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2.125. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).

2.126. [www.mf.uz](http://www.mf.uz).

2.127. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).

2.128. [www.imf.org](http://www.imf.org).

2.129. [www.worldbankbankgroup](http://www.worldbankbankgroup).

2.130. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz).

2.131. [www.finance.uz](http://www.finance.uz).

2.132. [www.strana-oz.ru](http://www.strana-oz.ru).

2.133. [www.biznes inkubator.ru](http://www.biznes inkubator.ru).

2.134. [www.ec.europa.eu/growth/smes/business-friendly-environment/sme-definition/](http://www.ec.europa.eu/growth/smes/business-friendly-environment/sme-definition/).

2.135. [www.smallbusiness.ru](http://www.smallbusiness.ru).

2.136. [www.taxfoundation.org/corporate-tax-rates-around-world-2018](http://www.taxfoundation.org/corporate-tax-rates-around-world-2018).

2.137. [www.singstat.gov.sg/media/files/publications/reference/sif2018.pdf](http://www.singstat.gov.sg/media/files/publications/reference/sif2018.pdf).

2.138. [www.adb.org](http://www.adb.org).

2.139. [www.oecd.org](http://www.oecd.org).



*TO'XSANOV QUDRATILLO NOZIMOVICH*  
*ABDUSATTAROVA DILDORA BAHODIROVNA*

## **SOLIQQA KIRISH**

Darslik

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH  
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

<b>Muharrir:</b>	<b>X. Zakirova</b>
<b>Tex. muharrir:</b>	<b>M.Tursunov</b>
<b>Musavvir:</b>	<b>A. Shushunov</b>
<b>Musahhih:</b>	<b>L. Ibragimov</b>
<b>Kompyuterda sahifalovchi:</b>	<b>M. Zoyirova</b>

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35  
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

**Bosishga ruxsat etildi 09.09.2021.**

**Bichimi 60x84 I/16. «Timez Uz» garniturasida.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i: 16,0. Nashriyot bosma tabog'i 15,0.**

**Tiraji: 50. Buyurtma № 262**

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA  
UYI» bosmaxonasida chop etildi.  
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,  
Universitet ko'chasi, 7-uy.**